

891
D-64



ARTUR KONANDOYL

YO'QOLGAN DUNYO

ROMAN I KITOB

JA'ON ADABIYOTI TURKUMIDAN

829
D 67

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

ARTUR KONAN DOYL

YO'QOLGAN DUNYO

Roman

Birinchii kitob



ZIYO NASHR

Toshkent
2020

OLY VA O'RIJA MAXSUS TAJLIM MIZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

- 0410 -

UO'K: 821.111-31
K BK 84(4Bbr)
D 67

Tahrir hay'ati:

Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurad Quronov, Nurboy Jabborov,
Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev

Tarjimon:

Mahmud YAHYOYEV

Doyl, Artur Konan.

D 67 Yo'qolgan dunyo: birinchi kitob. [Matni: roman / A.K.Doyl;
tarjimon: M. Yahyoyev. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 144 b.

ISBN 978-9943-6342-5-1

Mashhur ingliz adibi Artur Konan Doyl nomini eshitmagan
kitobxon bo'lmasa kerak. Uning „Sherlok Xolms va doktor Uotsonning
sarguzashtlari“ asarini ko'pchiligimiz sevib mutolaa qilganimiz. Mashhur
adib bir nechta romanlar ham yozgan.

Nashriyotimiz ulardan biri – „Yo'qolgan dunyo“ romanini
e'tiboringizga havola qilmoqda. Mazkur kitob ham „Sherlok Xolms va
doktor Uotsonning sarguzashtlari“ asaridan qolishmaydi.

UO'K: 821.111-31
K BK 84(4Bbr)

ISBN 978-9943-6342-5-1

© Mahmud Yahyoyev (tarj.).
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan
hisssa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq,
falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan
meros hal-hanomon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomoni-
dan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy,
Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu
Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin
Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugna-
kiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin
Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz
borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar
deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyatini,
tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilanagina cheklanib qolmasligi lozim.
Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot
tarziga doimo hushyor nigo va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga
muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafak-
kir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy
tarзда hamqadam, hanna'as bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan
birota madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi
bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib,
ugshar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan
ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari,
xorij mutafakkirlari yozgan asarlarini tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l
kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namu-
nalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi
nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini tako-
millashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'timishda
yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz,
jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli
tarzda tanishib boshimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehti-
yojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga
bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarning yuz
jildligini chop etishga kirishdi.

YO'QOLGAN DUNYO

BIRINCHI KITOB



Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dickens, L.N.Tolstoy, A. Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flöber, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dunder, Dino Buttsati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muvassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissiini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'g'irgan asarlar qatorida umiddi yosh tarjimonlar ijodi namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'g'irmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalarini yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la boshishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini aynamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

BIRINCHI BOB

Inson – o'z shuhratining ijodkori

Gledisimning otasi mister Xangerton o'taketgan beandisha, ammo nihoyatda xushfe'l odam bo'lsa-da, o'ziga bino qo'yg'an, patlarini hurpaytirib yuradigan to'tiqushga o'xshardi. Gledisdan ko'nglimni qoldiradigan biror kimsa mavjud bo'lsa, ana shunday kishining qaynotam bo'lishini aslo xohlamasligimdir. Aminmanki, „Kashana“ga haftada uch kun kelib turishini mister Xangerton o'zicha, uning subbatiga, ayniqsa, bimetallizm¹ to'g'risidagi gaplariga ishibozligim tufayli deb o'ylaydi. U kishi bimetallizm bobida o'zini zo'r bilimdon deb hisoblaydi-da.

O'sha kuni kechqurun men u kishining kumush narxi arzonlashgani, pulning qadrsizlanayotgani, rupiya² kursi tushib borayotgani, binobarin, pul siyosatini to'g'ri yo'lga solib yuborish zarurati tug'ilgani haqidagi siyqasi chiqqan satsatarini eshitib o'tirdim.

– Faraz qiling-a, to'satdan, butun dunyoda hamma pullarni bir vaqtning o'zida to'lash zarur bo'lib qoldi deylik! – xitob qildi u zafona, ammo vahimali tovush bilan. Pul sistemasi hozirgidek ahvolda qolaversa, nimalar bo'lar ekan?!

¹ Bimetallizm yoki ikki xil metallidan yasalgan tanga – to'lov qonuniyga ko'ra, ikki xil metallidan, masalan, oltin va kumushdan yasalgan tangalar vositasi bilan qonuniy to'lovlar amalga oshiriladigan pul sistemasi.

² Rupiya – Hindistonning kumush tangasi.

– Tabiiyki, u holda dastlab men xonavayron bo'lar edim, – dedim, lekin bu javobim mister Xangertonni qoniqtirmadi, u kishi kursidan dik etib turdi-yu, yengiltakligim uchun meni koyib, shu qilig'ingiz siz bilan jiddiyroq biror masalani muhokama qilish imkoniyatini yo'qqa chiqardi-da, dedi. So'ngra xonadan yugurib chiqib, massonlar¹ yig'imga borish uchun otlana boshladi.

Nihoyat, men Gledis bilan yolg'iz qoldim! Mening bundan buyongi taqdirimni hal qiladigan daqiqaga keldi. Shu oqshom men o'zinni shiddatli jangga chog'langan, qalbini g'alaba nashidasi-yu mag'lubiyat vahimasi kemirayotgan soldadek his qildim.

Gledis deraza oldida o'tirar, uning mag'rurona niholdek qomati to'q-qizil darparda orqasidan aniq ko'rinib turardi. Muncha ham go'zal bo'lmasal! Ayni chog'da mendan naqadar uzoqda-ya! Biz u bilan do'st edik, juda qadrdon do'st edik, ammo-lekin uni, aytaylik, hankasb muxbirlarim bilan qiladigan o'rtoqlarcha munosabatlar doirasidan olib chiqib ketishga aslo muyassar bo'la olmayman-da.

Gledis biz erkaklarni maftun eta oladigan ayollarga xos hamma fazilatlar sohibasi. Ba'zilar uni sovuq, qo'rs deyishar, ammo bunday xayolga borish men uchun xoinkidek tuyulardi. Nozikbadanligi, sharq ayollariniki singari qar'aganotidek tin-gora sochi, xunor ko'zlari, do'rdoq, ammo xushbichim lablari – bularning barchasi uni ehtirosli nozarin qilib qo'yg'an edi. Shunga qaramay, hanuzgacha uning muhabbatiga sazovor bo'la olmayotganimga iqrar bo'lishdan o'zga choram yo'qligini o'ylab ezildim. Bas, yetar, ezilib yurgandan ko'ra tavakkal qilib, sharta yuragimni ochib solaman – vassalom! Shu oqshom uning javobini

¹ Massonlar yoki „ozod g'ishtichilar birodarligi“ – XVIII asr oxirida Angliyada paydo bo'lib, Yevropaga yoyilgan diniy-axloqiy oqim.

olishga erishaman! Balki, rad etar, lekin majburan aka-singil tutinib, ko'nglingni ovutib yurgandan ko'ra rad etilgan oshiq bo'lganing afzal-da!

Men ana shu qarorga kelib, oramizdagi noqulay sukunatni buzishga jazm etgan ham edimki, ul qora ko'zlarning menga sinchkovlik bilan tikilayotganini sezib, Gledisning mag'rur boshini yozg'irgannamo sarak-sarak qilib turganini ko'rib qoldim.

— Sezirib turibman, Ned, siz menga uylanmoqchi bo'lganingizni izhor qilib, ko'nglimni so'ramoqchisiz. Kerak emas. Hammasi eskicha qolaversin, shunda yaxshi bo'ladi.

Men unga yaqinroq suridim.

— Qayovqan bilingiz buni? — hayratimning chitligiga ishonmaslik mumkin emasdi.

— Bu narsani oldindan bilmaydigan ayol zoti bo'larmikin?!

Nahotki siz bizlarni g'afilda qoldiraman deb o'y-lasangiz? Oh, Ned! Siz bilan shunday yurganimiz menga qanchalar yaxshi va yoqimni ekanligini bilsangiz edi! Do'stligimizni buzishning nima keragi bor? Navqiron yigit bilan bokira qizning shunday ochiq, samimiy dilkashlik qilib yurishlari qanday soz, lekin siz buni hecham qadrlamay-siz.

— Rost, Gledis, bilmayman. Gap shundaki... inchnun, men bunaqa ochiq subbatni, aytaylik, temiryo'l bekatni boshlig'i bilan ham qilaveraman. — Bekat boshlig'i miyanga qanday kelib qolganiga o'zim ham hayronman, lekin bo'lar ish bo'ldi: bu mansabdor shaxs chaqirtirakanakdek oramizga tushib qolib, ikkovimizni ham kuldirib yubordi. — Yo'q, Gledis, mening umidlarim katta. Men sizni quchmogchiman, boshingizni bag'rimga bosmogchiman. Gledis, men xohlaymanki...

Gledis niyatimni amalga oshirmoqchi bo'lganini ko'rib, dik etib o'rmdan turib ketdi.

— Ned, hammasini rasvo qildingiz! — dedi u. — Shu narsa bo'lmasa qanday yaxshi, qanday soz, a! Nahotki, o'zingizni bosa olmasangiz?

— Lekin bu narsani birinchi bo'lib men o'y-lab topgan emasman-ku! — iltijo qildim unga. — Insonning tabiati shunaga o'zi. Muhabbat shunday bo'larkan.

— Ha, muhabbat ikki tomonlama bo'lsa, etimol, hammasi boshqacha bo'larmidi. Lekin men hech qachon sevgi nimaligini bilgan emasman.

— Nahotki siz shunday husningiz, shunday qalbingiz bilan sevgi nimaligini bilmasangiz! Gledis, axir, o'zingiz sevgi uchun yaratilgansiz-ku! Siz sevgi qolishingiz kerak!

— Unda sevgining o'zi qalbimni rom etishini kutish lozim.

— Lekin nima uchun meni sevmaysiz, Gledis? Sizga nima xalaqit beryapti o'zi — mening tashqi qiyofammi yoki boshqa biron narsami?

Shu gapdan keyin Gledis biroz yumshadi. U qo'lini uzatdi — o, bu harakatda qanchalar latofat, qanchalar nazokat zohir bo'lganini bilsangiz edi! — shu harakati bilan boshimni orqaga itardi. Keyin g'amgin tabassum bilan yuzimga boqdi.

— Yo'q, gap bunda emas, — dedi u. — Siz kekkaygan bola emassiz, shuning uchun ham bernalol iqtidor bo'lib aytaman-ki, gap bunda emas. Gap siz o'y-lagandan jiddiyroq masala ustida.

— Mening xarakterim xususidami?

U jiddiy qiyofaga kirib, boshini egdi.

— Men o'zgaraman, faqat nimani istayotganingizni aytasangiz bo'lgani. O'tiring, hammasini muhokama qilib chiqamiz. Xo'p, mayli, hech narsa qilmayman, jim o'tiraman, faqat o'tirsangiz bo'ldi!

Gledis menga tikildi, hoynahoy, samimiyligimga shubha qilyotgandir, lekin men uchun ana shu gumoni to'la

ishonchidan qimmatliroq edi. Bu holatni qog'ozda bayon qilish naqadar jo'n va ahmogona bir narsa bo'lib chiqishi-ni bilsangiz edi! Balki, menga shunday tuyulayotgandir? Hayot, nima bo'lgandayam, Gledis kursiga o'tirdi.

– Qani, xo'sh, aying-chi, nimadan norozisiz?

– Men boshqani sevaman.

Endi men dik etib turib ketdim.

– Qo'rqmang, men xayolimdagi mahbubni aytap-man, – tushuntira boshladi Gledis o'zgarib ketgan yuzimiga tikilib. – Hayotda bunaga odamga hali duch kelganim yo'q.

– Ayta qolsangiz-chi, kim u o'zi? Aft-angori qanaga?

– Umi, ehtimol, sizga judayam o'xshagan odamdir.

– Munchalar saxovatisiz, a? Unday bo'lsa, nega men-ga yopishib olmayapsiz? Bir og'iz so'zingiz kifoya-ku! Kim u – ichkilik ichmaydigan, go'sht yemaydigan odam-mi, samoga uchadigan aeronavtmi, farishtani yo? Men hammasiga roziman, Gledis, faqat siz nima kerakligini aytasangiz bas!

Bunchalik tantilgim kulgisini keltirib yubordi.

– Avvalo, mening xayolimdagi odam, har holda, bun-day demagan bo'lardi. U odam qattiqgo'l, pishiq-pux-ta bo'lib, xotinlarning bema'ni sarkashliklariga jon deb ko'navermaydi. Ammo eng muhimi – u harakat kishisi, o'limning ko'ziga tik boqishdan qo'rqmaydi, tajribasi boy, jasorat ko'rsatishga tayyor turuvchi, g'ayritabiiy taj-riba ortirgan kishi. Men uning o'zini emas, shuhratini sevaman, chunki shon-shavkatining nuri menga ham tu-shadi-da. Richard Berton'ni eslang. Bu sayyohning xoti-ni yozgan tarjimai holini o'qiganimda xonim uni nima

¹ Berton Richard Frensis – Afrikaga sayohat qilib, Tanganika ko'lini kashf etgan, Sharqni o'rganigan va o'z sarqizashlari haqida bir necha kitob yozgan sayyoh.

uchun yaxshi ko'rganini angladim. Ledi Stenli'-chi? Uning eri haqida yozgan kitobining oxirgi bobini eslaysizmi? Xotin kishi ana shunday erkaklarga qulluq qilishi kerak! Bunday muhabbat ayolni yerga urmaydi, balki ulug'laydi, chunki butun olam buyuk ishlariga ilhomlantiruvchi bun-day ayollarni e'zozlaydi!

Shu onlarda Gledis biram go'zal bo'lib ketdiki, men subhatimizning ko'tarinki ruhini buzib yuborishimga oz qoldi, xayriyaki, vaqtda o'zinni to'xtatib qoldim-u, bah-simizni davom ettiravardim.

– Hammayam Berton Stenli bo'lavermaydi-da, – dedim men. – Bunaga imkoniyatlar qayoqda deysiz. Agar shunday imkoniyatlar tug'ilib qolsa, men ulardan foydalangan bo'lur edim!

– Yo'q, bunday imkoniyatlar har qadanda uchraydi. Mening orzuym mohiyati ham shunda-da, uning o'zi ja-soratga peshvoz boradi. Hech qanday to'siq unga g'ov bo'la olmaydi. Men hali bunaga qahramonni topganimcha yo'q. Lekin uni tirik kishidek shundogqina ko'rib turib-man. Ha, inson o'z shuhratining ijodkoridir. Erkaklar jaso-rat ko'rsatishlari kerak, xotinlar esa ularni o'z muhabatlari bilan mukofotlashlari lozim. Bir necha kungina muqaddam havo shartida samoga ko'tarilgan fransuz yigitining jasorati-ni eslang. O'sha tong pallasida bo'ron bo'layotgandi, lekin parvozi e'lon qilingan edi, shuning uchun niyatini amalga oshirishni aslo kechiktirmadi. Bir kecha-yu kunduz ichida shamol havo sharini bir yarim ming mil masofaga surib ketib, allaqayerga, Rossiyaning markaziga olib borib tash-labdi. Men ana shunday odam haqida gapiryapman. Uni sevadigan xotinini o'ylang. Bu ayol boshqalarning havasini

¹ Ledi Stenli – Afrikada bedarak ketgan Livingston ekspeditsiyasini qidi-rib topgan mashhur ingliz sayyohi Genri Morton Stenlining rafiqasi.

kelirmaydi deysizmi! Sening ering qahramon deya menga ham havas qilishsin-da!

– Siz uchun men har narsa qilishga tayyorman!

– Faqat men uchummi? Yo‘q, bunaqasi ketmaydi! Siz boshqacha ish qila olmasligingiz tufayli jasoratga qo‘l urishingiz kerak, chunki o‘zingizning tabiatigingiz shunaga, chunki vujudingizdagi erkaklik g‘ururi o‘zinni ko‘rsataman deb turibdi. Mana, masalan, siz Kigan toshko‘mir shaxtasi-dagi portlash haqida yozgansiz. Lekin nima uchun o‘zingiz shaxtaning ichiga tushib, zaharli gaz yutib, bo‘g‘ilayotganlarga yordam bermadingiz?

– Men tushganman.

– Siz menga buni aytmovdingiz-ku.

– Buning nimasi jasorat?

– Men buni bilmovdim. – Gledis menga maroq bilan tikildi. – Jasurlik qilibsiz-da!

– Boshqa nimayam qila olardim. Yaxshi ocherk yozmoqchi bo‘lsang, hodisa yuz bergan joyda o‘zing bo‘lishing kerak.

– Jasorat sababini buncha jo‘n talqin qilmasangiz! Bu gapingiz niyatigingizning latofatini yo‘qqa chiqaradi. Lekin, har qalay, shaxtaga tushganingizdan juda xursandman.

Men uzatilgan qo‘lni o‘pishdan o‘zinni tiya olmadim – bu harakatda olam-olam nazokat, iftixor ifoda etilgan edi-da.

– Balki, siz meni bolalik orzulari haliyam qolmagan tentak ekan, deb o‘ylarsiz. Lekin bu orzular men uchun amalga oshadigan narsalar! Men ularsiz yashay olmayman – ular qon-qonimga singib ketgan. Men qachonlardir turmush qurishni ixtiyor etgudek bo‘lsam, faqat mashhur odamga tegaman.

– Boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas-da! – xitob qildim men. – Erkaklarni jasoratga ilhomlantiradigan xotin-

lar sizdaga bo‘lmay, qanday bo‘ladi yana! Qani, menga bir imkoniyat kelib qolsin-chi, o‘shanda ko‘rasiz, undan foydalana olamanni, yo‘qmi?! Siz inson o‘z shuhratini o‘zi buyod etishi kerak, u qo‘limga shuhratning o‘zi kelib tushadi, deb kutib turishi lozim emas, deyapsiz. Masalan, jilla qursa Klavy‘ni oling. Shu kamtagina xizmatkor – klerk Hindistonni zabt etdi-ya! Yo‘q, sizga qasamyod qilib aytamanki, mening nimalarga qodir ekanligimni olam biladi hali!

Mening irlandiyaliklarga xos ehtirosim jo‘shib ketgani-ni ko‘rib, Gledis kulib yubordi.

– Xo‘p, bo‘lmasa harakatingizni qilavering. Buning uchun sizda hamma narsa bor – yoshsiz, sog‘lig‘ingiz joyida, kuchingiz, bilimingiz, g‘ayrat-shijoatingiz barq urib turibdi. Siz bu gapni boshlaganingizda ko‘nglim g‘am-anduhga to‘lgan edi. Endi xursandman, chunki subhatimiz sizda ajoyib fikrlarni uyg‘otdi.

– Bordi-yu...

Uning qo‘li bannisoli duxobadek lablarini siladi.

– Endi bir og‘iz ham gapirmang, ser. Siz shundoq ham redaksiyaga yarim soat kechikib qoldingiz. Sizga buni eslatishdan iymanib turuvdim. Nasib etsa, hayotdagi o‘z o‘rningizni topib qolgudek bo‘lsangiz, shu bugungi subhatimizni davom ettiramiz, balki.

Shu sababdan ham men o‘sha tumanli noyabr oqshomida baxt nashidasi bilan mast bo‘lib, go‘zal mahbubamga munosib ulug‘ ishini amalga oshirish uchun biror kummi ham behudaga o‘tkazmaslikka qat‘iy qaror qilib, Kembernel tramvayi ortidan quvar edim. Lekin bu niyatga erishishim uchun qanday sir-sinoatlarga duch kelishimni, unga qanday yo‘llar bilan yetishimni Xudoning o‘zidan boshqa hech kim bilmas edi-da!

¹ Klavy‘ Robert – inglizlarning Ost-Indiya shirkati arbobi. Mehnat faoliyatini klerk (koti)likdan boshlagan.

Muharam kitobxon, bu kirish bobining men bayon qilmoqchi bo'lgan qissaga hech qanday aloqasi yo'q-ku, deyishim mumkin, ammo busiz hikoyaning o'zi ham bo'lmas edi, chunki inson shuhratining bunyodkori uning o'zidir degan g'oyadan ilhomlangan kishigina har qanday jasoratga tayyordir. Oddiy turmush ikir-chikirlari bilan aloqasini batamom uzib, sirti voqealar o'lkasiga, g'aroyib sarguzashtlar va buyuk mukofotlar kutayotgan mamlakatga bosh olib ketishga qodirdir!

Men itning keyingi oyog'i bo'lib, „Deyli gazett“ redaksiyasida ishlab yurgan kezarimdagi o'sha oqshom kallamni azizam Gledisga munosib jasorat ko'rsatish imkoniyatini shu kunlardayoq topishim lozim degan qat'iy qaror chulg'ab olganini tasavvur qilib ko'ring-al! Hayotimni tahlikalar girdobiga ro'baro' qilib shuhrat o'rtirishdan mahbubamning maqsadi nima ekan? Shafqatsizlikmi, xudbinlikmi? Bunday fikrlar kamolga yetgan kishilarni cho'chitishi mumkin, lekin endi yigirma uch yoshga to'lgan, ilk sevgi sharobidan mast bo'lgan yigirmi aslo ikkilantira olmaydi.

IKKINCHI BOB

Baxtingizga erishmoq uchun professor Chellenjerdan madad izlang

Men gazetamizning „So'nggi axborot“ bo'limi muharriri, malla, vaysaqi Mak-Ardlni hamisha yaxshi ko'rardim, o'ylashimcha, u ham mendan yaxshi muomalasini darig'tutmasdi. Biz hammamiz, albatta, Bomonga qoyil qolib yurardik, lekin u nuqul olimpiya cho'qqilaridagi siyraklashgan havo qo'ynidan tushmas, o'sha yerdan uning nigohiga xalqaro krizislar yoki ministrlar kabinetining qulashi kabi voqealar yaxshi ko'rinaradi. Biz uni ba'zan o'zining

muqaddas qarorgohida ulug'vorlik bilan qadam tashlab, nigohini ufqqa tikkanicha xayolan Bolgon yarimoridami, Fors ko'rfazidami – kezib yurganini ko'rib qolardik. Bomont bilan hamsuhbat bo'lish bizga qayda, shuning uchun ham biz, odarda, uning qo'li bo'lgan Mak-Ardl bilan ishimizni bitirib ketaverardik.

Redaksiyaga kirganimda qariya meni boshi bilan imladi-da, ko'zoynagini kal joyiga surib qo'ydi.

– E, keling, mister Meloun har tараfdan siz haqingizdagi gaplarni eshityapman. Muvaflaqiyatlaringsiz chakki emas, dedi u xushakalluftik bilan.

Men unga tashakkur aytdim.

– Sizning shaxtadagi portlash haqidagi ocherkingiz juda zo'r. Sautorkda bo'lgan yong'in to'g'risidagi yozgan maqolangiz ham ajoyib deyishim mumkin. Yaxshi jurnalist bo'lish uchun sizda hamma fazilatlar bor. Biror ish bilan keldingizmi?

– Ha. Bir yaxshiilik qilsangiz, deya iltimos bilan keldim. Mak-Ardlning ko'zlari bezovtalaniib javdiradi.

– Hm! Hm! Xo'sh, xizmat?

– Ser, siz meni gazetamizning topshirig'i bilan biror yoqqa yubora olmaysizmi? Men butun kuch-quvvatimni ishga solib, sizga qiziqarli xabarlar olib kelardim.

– Qanday topshirig'ni nazarda tutasiz, mister Meloun?

– Xohlagan topshirig'ingizni beravering, ser, faqat g'aroyib sarguzasht va xavf-xatarlar bilan bog'liq bo'lsin. Men gazetaning nomiga dog' tushirmayman, ser. Menga qancha bo'lsa, shuncha yaxshi.

– Chamamda, hayotingiz bilan xayrlashmoqchisiz shakilli?

– Yo'q, mening niyatim – hayot behuda o'tmasa bas, ser. – Azizim mister Meloun, siz judayam... judayam balandparvoz bo'lib ketibsizmi, a? U zamonlar o'tib ketgan. Maxsus muxbirlarga qilinadigan xarajatlar o'zini oqlama-

yapti. Har qalay, bunga topshiriqlar nomi chiqqan, xalq ishonchini qozona oladigan kishilarga beriladi. Xaritada „oq dog‘lar“ allaqachon aniqlangan, siz bo‘lsangiz he yo‘q-be yo‘q romantik sargushashtlarga chog‘lanib qolibsiz! Ha, aytganday, to‘xtang-chi, – qo‘shib qo‘ydi va qo‘qqisdan jilmaydi. – Ha, aytgancha, „oq dog‘lar“ masalasida... Bir tovlamachi, hozirgi zamon Myunxgauzeni bor, ana o‘sha-ning sharmadasini chiqarib ustidan bir kulmaymizmi? U targetgan yolg‘on-yashilarni fosh qilmaymizmi, a? Zo‘r ish bo‘lardi-da. Xo‘sh, rozimisiz?

– Nima desangiz ham, qayerga yo‘llasangiz ham – men hammasiga tayyorman!

Mak-Ardl xayolga toldi.

– Bir odam bor, – dedi u o‘ylab-o‘ylab. – Bilmadim, u bilan tanishib olish, jilla qursa ikki og‘iz subhatini yozib olish mumkin bo‘larmikin? Ha, aytgancha, sizda odamlarni rom qilish qobiliyati bor-ku. Buning siri nimada, hech bilolmayman, yo siz yoqimtoy yigitsiz, yo hayvoniy magietizning ishi bu, yoki sizning dilkash, xushchaqchaq kishi ekanligingizmikin, har qalay, men o‘zim ham buni his qilaman.

– Menga judayam mehribonsiz-da, ser.

– Xo‘sh, nima uchun endi biz professor Chellenjerdan baxtimizga erishish uchun madad so‘ramas ekamiz? U Enmor-parkda istiqomat qiladi.

Rostini aytсам, bu taklifni eshitib, boshim qotib qoldi.

– Chellenjer? Mashhur zoolog, professor Chellenjeri? „Telegraf“lik Blandellning miyasini yorgan olim emasmi?

„So‘nggi xabarlar“ bo‘limining muharriri qovog‘ini solib iljaydi.

– Nima, yoqmadimi? Axir siz har qanday jasoratga tayyor edingiz-ku!

– Yo‘q, nega endi? Bizning ishimizda har narsa bo‘lishi mumkin-da, ser, – javob berdim men.

– Juda to‘g‘ri. Sizga aytсам, u hamma vaqt ham unaqa badihl bo‘lavermaydi, chamamda. Aftidan, Blan dell vaqtini topmay oldiga kirgan yo bo‘lmasa qo‘pollik qilib qo‘ygandir. Sizga omad yor bo‘lsa ajab emas, deb umid qilaman. Sizga xos xushnuomalik ish berib qolishiga ishonaman. Bu mavzu xuddi o‘zingiz qilib yurgan ish, bunday subhatni gazeta jon deb bosib chiqaradi.

– Men o‘sha Chellenjer haqida hech narsa bilmayman desam bo‘ladi. Blandellni do‘ppostlaganida sudlangani uchun nomi esimda qolgan, xolos, – dedim.

– Ba‘zi ma‘lumotlar mendan topiladi, mister Meloun. Bir vaqtlar men bu nusxa bilan qiziqqandim. – U stol g‘aladonidan bir varaq qog‘oz oldi. – Mana, u haqidagi qisqacha ma‘lumot. „Chellenjer Jorj Eduard. Largsda 1863-yilda tug‘ilgan. Ma‘lumoti: Largsdagi maktabni, Edinburg universitetini bitirgan. 1892-yilda – Britaniya muzeyida ilmiy xodim. 1893-yilda – Muzey qiyosiy antropologiya bo‘limi xazinabonining yordamchisi. O‘sha yili muzey direktori bilan achchiq-uchuk yozishmalar qilganidan keyin bu joyni tark etgan. Zoologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlari uchun medalgazazovor bo‘lgan. Xorijiy mamakatlar ilmiy jamiyatlarining a‘zosi... Shu yerda mayda haf bilan terilgan uzundan uzog‘ ro‘yxat keladi: „Belgiya jamiyati, Amerika akademiyasi, La-Plata va hokazo va hokazo, Paleontologiya jamiyatining eks-prezidenti, Britaniya olimlar uyushmasi... va boshqalar“. E‘lon qilingan asarlari: „Qalmoqlar bosh suyagi tuzilishi masalasiga doir“, „Umurtqalilar evolutsiyasi haqida ocherklar“ – va shu kabi juda ko‘p maqolalar, jumladan, Venadagi zoologlar kongressida qizg‘in bahslarga sabab bo‘lgan „Veysmanning soxta nazariyasi“ sarlavhali maqola. Sevimi ernaklari: piyoda sayr qilish, alpizizm. Manzili: „Enmor-park, Kensington“.

Mana buni olib qo'yning. Bugun sizga boshqa hech qanday yordam bera olmayman.

Men qog'ozni cho'ntagimga solib qo'ydim-da, Mak-Ardning qizil yonoqli chehrasi o'rninga pushirang kal joyi menga bog'ib turganini ko'rib, dedim:

— Bir daqiqa, ser. Bu jentelmendan qaysi masala yuzasidan intervyu olaman, shunisini bilmay turibman. Nima ishlaring qilgan u o'zi?

Nigohim qarshisida yana uning qizil yonoqli chehrasi paydo bo'ldi.

— Nima qildi deysizmi? Ikki yil muqaddam bir o'zi Janubiy Amerikaga ekspeditsiyaga jo'nagan edi. U yerdan o'tgan yili qaytib kelgan. U Janubiy Amerikada, shubhasiz, bo'lgan, lekin qayerida bo'lganligini aniq ko'rsatib berishdan bo'yin tovlaydi. O'zining sarguzashtlarini endi boshlashi bilan, bitta-yarimta sinchkov savol berilishi hamono tutilib, mum tishlagandek jim bo'lib qoladi. Allaganday mo'jizalar yuz bermagan bo'lsa, aftidan, rosa yolg'omni to'qib, bizni chippa-chin ishontrayotganligi ham ehtimolga juda yaqin. Bu gaplarni eskitgan fotosuratlar bilan isbotlanmoqchi bo'ladi, odamlarning aytishlaricha, ular soxta fotolar emish. Bechorani yolg'onchiga chiqarib, shu darajaga olib kelishdiki, savol bilan murojaat qiluvchi har qanday odamga tashlanadigan bo'lib qoldi, muxbirlardan bir nechasini naq zinaning tepasidan itarib yuborgan. Menimcha, u g'irt savdoyi, hatto birovni o'ldirib qo'yishdan ham toymaydigan xavfli odam. Siz ana shunday kishi bilan muomala qilishingiz kerak bo'ladi, mister Meloun. Qani, endi tuyog'ingizni bir shiqillatib qoling-da, mumkin qadar undan ko'proq narsani bilib olishning ilojini qiling. Siz kap-katta odamsiz, bo'sh kelmassiz deb o'ylayman. Gapning po'stkallasini aytisam, ish betuvchi mas'uliyati haqidagi qonuni nazarda tutadigan bo'lsak, tavakkal qilib, omadingizni sinab ko'ravering.

Yana tirjagan qip-qizil bashara ko'z oldimdan g'oyib bo'lib, sarg'imtir po'stak jiyakli, pushirang yassi kalla namoyon bo'ldi. Subhatimiz tugagan edi. Men o'zimning „Yovvoyi“ klubimga ravona bo'ldim, lekin yo'l-yo'lakay Adelf-Terras panjarasi oldida to'xtab, pastda mo'l-ko'l moylar jimir-jimir qilib oqayotgan qop-qora suv betiga tikilgancha uzoq xayol surib qoldim. Toza havoda bo'lganida hamisha miyamga yaxshi, yorqin fikrlar kelardi. Cho'ntagimdan professor Chellenjening hamma jasorati bitilgan qog'ozni oldim-da, ko'cha fonari yorug'iga tutib qaray boshladim. Shu payt ilhom parisi ko'nglimga g'ulg'ula solib qoldi, ha, ilhomim keldi, deysishdan o'zga ilojim yo'q. Bu mijg'ov professor haqida bilganlarimga tayانب hukm chiqaradigan bo'lsam, shu narsa aniqki, u hech qanaga muxbirni yaqiniga yo'l atmaydi. Uning qisqacha tarjimai holida zikr etilgan ikki janjal shundan dalolat beradiki, u ilm-fanning fidoyisi. Uning ana shu jihatidan foydalansa bo'lmasmikin? Urinib ko'raman?

Men klubga kirdim. Soat o'n birdan salgina oshgan edi, hamma yig'iladigan vaqtga ancha bor bo'lsa ham, mehmonxona odamga to'lib ketibdi. Kamin pechka yonidagi kursida baland bo'yli, oriqgina bir odam o'tiribdi. Men kreslomni olovga yaqinroq surganida, u kishi men tomon o'tgiritib oldi. Bunday uchrashuvni men orzu qilishim mumkin edi. Bu odam „Tabiat“ jurnalining xodimi — murddek oriq, ammo xotamlkda jahonda tengi yo'q Tarp Genri edi. Men darhol ishga kirishdim:

— Siz professor Chellenjer haqida nimalarni bilasiz?

— Chellenjer haqida? — Tarp sovuq gap eshitgandek xo'mrayib oldi. — Chellenjer. E, anavi Janubiy Amerikaga borib keldim, deb har xil yolg'on-yashiqslarni targatib yurgan odammi?

— Qanaga yolg'on-yashiqslar?

– Go'yo u o'sha yerlarda allaqanday g'aroyib maxluqlarni kashf etgan emish. Keyingi paytlarda uni bu so'zlaridan voz kechishga majbur qilishgan chog'i. Har galay, churq etmay qoldi. Uning oxirgi valaqlashi – Reyter muxbiri savollariga bergan javoblari bo'ldi. Lekin bu subhati shunaga shov-shuvlar bo'ronini qo'zg'adiki, ishi chappasidan ketganini o'zi ham anglab qoldi. Bu voqea janjalga aylandi. Birovlar uning gaplariga chippa-chin ishongan edi, lekin ana shu bir hovuch xomiylarini ham o'zidan tezda uzoqlashtirib yubordi.

– Qanday qilib?

– Qo'polligi, nomatlub xulq-atvori bilan-da. Zoologiya institutida ishlaydigan bechora Uedli ham unga yaxshilik qilaman deb baloga qoldi-ya! Uedli unga „Zoologiya institutining direktori professor Chellenjer o'z hurmatini izhor etadi va institutning navbaddagi majlisida lutfan ishtirok etishlarini o'tinib so'raydi“, degan xatni yuborib qolarmidi. Javobi qo'poldan qo'pol bo'libdi.

– Be, unday bo'lishi mumkin emas!

– Juda pardaliroq qilib aytadigan bo'lsak, taxminan shu mazmunda javob yozibdi: „Professor Chellenjer Zoologiya institutining direktoriga o'z hurmatini izhor qilish bilan birga o'z tomonidan shuni ma'lum qiladiki, u kelgan joyiga tuyog'ini shiqillatib qolsa, lutfan matlub ish qilgan bo'lur edi“.

– Yo Rabbim, yo Olloh!

– Ha, qariya Uedli ham bo'sh kelmagan bo'lishi kerak. O'sha majlisning o'zida uning bo'g'ilib: „Fan arboblari bilan ellik yil muloqotda bo'lib, bumagasini ko'rganim yo'q...“ degani esimda. Qariya jig'ibiyroni chiqib, o'zini qo'yarga joy topmagandi o'shanda.

– Xo'sh, ana shu Chellenjer haqida menga yana nimalarni gapirib bera olasiz?

– Ha, aytgandek, ma'lumotingiz uchun men bakteriologman-ku axir. Men to'g'iz yuz marta katta qilib ko'rsatadigan mikroskop yordamida ko'rinadigan olamda yashayman, shundoq ham ko'zga chalinadigan narsalar meni kam qiziqtiradi. Men bilish mumkin bo'lgan olamning eng chekkasida posbonlik qilaman va har safar kabinetimdan chiqib, beo'xshov, qo'pol maxluqlar bo'lmish odamlar bilan to'qnashganimda muvozanatimni yo'qotib qo'yaman. Men odamovimam, g'iybatga tobim yo'q, shunga qaramay, Chellenjer haqidagi mish-mishlarning ba'zilarini mening ham qulog'imga chalingan, chunki bu uncha-muncha odamlardan emas-da. Chellenjer – donishmand odam. U inson kuch-qudrati, barhayotligining timsoli, lekin ayni chog'da u borib turgan mutaassib, buning ustiga o'z maqsadiga erishish yo'lida hech narsadan toymaydi. Bu odam hatto allaqanday soxtaligi yaqqol bilini b turgan fotosuratlarini ro'kach qilib, ularni Janubiy Amerikadan olib kelganman, deb ta'kidlashgacha borib etdi.

– Siz uni o'taketgan mutaassib dedingiz, a? Uning mutaassibliigi nimada ko'rinadi?

– Hamma narsada! Uning so'ngi qilig'ini oling – Veysmanning evolutsiyon rivojlanish nazariyasiga xurujlarini. Aytishlaricha, Chellenjer Venada shu xususda katta janjal ko'targan emish.

– Bu janjalning mohiyati haqida batafsilroq gapirib bera olmasizmi?

– Yo'q, hozir gapirib bera olmayman, lekin redaksiyamizda Vena kongressi protokollarining tarjimai bor. Xohlasangiz tanishib chiqishingiz mumkin, men ularni sizga ko'rsatib qo'yaman.

– Bu ayni muddao bo'lur edi. Menga o'sha nusxadan intervyu olish vazifasi topshirilgan, shuning uchun uning tilini topishim kerak-da. Berayotgan yordamingiz uchun katta rahmat. Agar kechikmagan bo'lsak, yura qoling.

Oradan yarim soat o'tgach, men jurnal redaksiyasida o'tirardim, oldimda kattakon kitobdek to'plamdagi „Veysmann Darvinga qarshi“ maqola. Sarlavha ostiga „Venadagi qizg'in e'tirozlar. Jo'shqin munozaralar“, deb yozib qo'yilgan. Mening bilimim unchalik chuqur bo'lmagani uchun munozaraning mohiyatini ilg'ab ololmadim, lekin shunga qaramay, ingliz professori muhokamani keskin olib borib, yevropalik barcha hamkasblarini g'azablantirganini payqadim. Ko'zim daslavval „Joylardan norozilik sadolari eshitiadi“, „Zalda to'polon“, „Hamma g'azablanadi“, degan qavs ichiga olingan jumalarga tushdi. Hisobotning qolgan qismidan bannisoli xitoycha yozuvni ko'rgandek hech vazo tushumadim. Men biologiya masalalarida g'irt savodsiz bo'lganim uchun hech nimani anglamadim.

– Manaviyarni jilla qursa inson tiliga tarjima qilib bersangiz bo'lardi! – iltijo bilan yolvordim hamkasabamga murojaat qilib.

– Iye, o'zi tarjima qilingan-ku!

– Unday bo'lsa asliga murojaat qilganim ma'qul ekan.

– Haqiqatan ham tushumagan odam bahsning ma'nosiga borib yetolmasligi aniq.

– Men bu abra-kadabra'dan biror ma'noni anglatadigan qoidani bildiruvchi yagona ma'nodor tushunchani ajratib olsam kifoya edi-yal! Ha, manavi jumla mos keladiganga o'xshaydi. Uning ma'nosini qariyb anglayapman.

Hozir ko'chirib olamiz. Bu jumla meni olabo'ji professoringiz bilan bog'lovchi vosita bo'la qolsin.

– Mendan sizga boshqa hech narsa kerak emasmi?

– Yo'q, yo'q, to'xtang-chi! Men unga xat bilan murojaat qilmogchiman. Shu maktubimni redaksiyangizda

¹ *Abrakadabra* – ma'nosizlik, chalkashlik.

yozishga hamda adresingizdan foydalanishimga ruxsat bersangiz soz bo'lardi-da, nomanning obro'si ko'tarilgan bo'lardi.

– Unda Chellenjer darhol redaksiyamizga bosib kelib, barcha jilhozlarimizni sindirib tashlaydi-da.

– Yo'g'-e, bo'lmagan gap! Xatni sizga ko'rsataman. Unda haqoratomuz biror og'iz ham so'z bo'lmaydi.

– Xayr, mayli, undog bo'lsa mening stolimga o'tiring. Qog'ozni manavi yerdan olasiz. Maktubni yuborishdan oldin nazorat qilish uchun menga ko'rsatib oling.

Men rosayam mehnat qilib, xatni yozdim, chog'imda, natijasi yomon bo'lmadi. O'z asarimdan mag'rurlanib, hech narsani yoqirtmaydigan bakteriologga o'qib berdim.

– „Muhtaram professor Chellenjer! Kaminiyi kamtarin bir tabiatshunos sifatida Sizing Darwin hamda Veysmann nazariyalari o'rtasidagi ziddiyatlarga oid farazlaringizni zo'r qiziqish bilan kuzatib bordim. Yaqinda men sizning qimmatli fikringizni eslash sharafiga muyassar bo'ldim...“

– Benomus yolg'onchi! – to'ng'illadi Tarp Geni.

– „...Ya'ni Sizing kongressdagi ajoyib nutqingiz yodimga tushib ketdi. Fikrlar aniq ifoda qilingan bu dokladni tabiatshunoslik bobidagi fanning eng zo'r yutug'i desha bo'ladi. Ammo u yerda mana bunday deyilgan: „Men ko'plab avlodlar davomida asta-sekin shakllanuvchi har biri alohida individ tarixidan tarkib topgan tuzilishga ega bo'luvchi mikroorganizmlar, degan mulqo qabul qilib bo'lmaydigan va quruq aqidanamo ta'kidlashlarga qat'iy qarshiman“. Siz so'ngi yillarda olib borilgan izlanishlarga suyanib, o'z nuqtayi nazaringizga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritish lozimmi deb hisoblamaysizmi? Bu nazariyangizda biror qusur yo'qmikin? Meni qabul etishdek luf-u karamingizni darig' tutmassiz degan umiddaman, chunki bu masalani hal qilib olish juda muhim, miyamda tug'ilgan ba'zi fikrlarni esa faqat shaxsan qiladi-

gan suhbatimiz chog'ida rivojlantirish mumkindir. Sizing ijodatingiz bilan huzuringizga indinga (chorshanbada), er-talab soat o'n birda tashrif buyurish sharafiga muvassaf bo'lganman. Kamrayi kamlayin qilingiz, ser, Sizga cheksiz hurmat ehtirom bilan D. Meloun".

– Xo'sh, qalay? – tantanavor ohangda so'radim.

– Nima ham derdim, modomiki vijdongingiz shunga yo'l qo'ysa...

– Vijdonim hech qachon menga pand bergan emas.

– Xo'sh, keyin nima qilmogchisiz?

– Uning oldiga boraman. Bir amallab xonasiga kirib ol-sam bas, u yog'iga vaziyatga qarab harakat qilaman. Ehtimol, chin yurakdan tavba-tazarru qilish kerak bo'lib qolar. Badanida musobaqalashishga jindek ishtiyof bo'lsa bas, didiga o'tirishib qolishim naqd.

– Yogarmikinsiz? Ehtiyot bo'ling, tag'in sizni ham biror narsa bilan tushirib qolmasin. Maslahatim shuki, sovut yoki amerikacha futbol o'yinchilari kiyimini kiyib oling. Xo'p, yaxshi boring. Mabodo lutf-u karam aylab javob yozgudek bo'lsa, maktubini chorshanba kuni ertalab manavi yerdan olasiz. Bu g'alamis, xavfli maxluqdan hamma jirkanadi, uning jig'iga tegishdan qo'rqmaydigan talabalar kalaka qilganlari qilgan. Lekin siz, har qalay, u haqda umuman eshitmaganingiz ma'qulroq edi.

UCHINCHI BOB

Muncha ham badfe'l bo'lmasa, qurg'ur

Do'stimning gumonlariyam, niyatlariniyam ro'yobga chiqmadi. Chorshanba kuni uning xonasiga kelganimda meni Kensington pochta si muhri bosilgan xat kutardi. Manzili tikonli simga o'xshatib aji-buji qilib, tirnab yozilgandi. Maktubning mazmuni quyidagicha edi:

Ennor-park, Kensington.

„Ser!

Xaotingizni oldim. Siz unda hech kimning qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'lmagan nuqtayi nazarimni yoqlamoqchi bo'lganingizni izhor qilib, meni ishonitirmogchi bo'lasiz. Mening darvinizm to'g'risidagi fikrlarim haqida gapirib, Siz „faraz“ degan so'zni ishlatishga jur'at etibsiz. Shuni ta'kidlashni lozim deb hisoblaymanki, mazkur so'z o'sha jumlada bir qadar taxxirona ma'no kasb etadi. Ha, aytganday, Siz yozgan maktubning mazmuni meni shu narsaga amin qildiki, Sizni nodonlik va betamizlikda ayblash mumkin, xolos, illo Sizda yomon niyatlar yo'q, shuning uchun ham jazodan xolisiz. Siz mening dokladimdan bir jumlanini yulib olgansiz-u, ammo, nazarimda, uning ma'nosiga aslo tushumagsiniz. Fikrimcha, mazkur jumlaning ma'nosi rivojlanish darajasi eng past pog'onada bo'lgan maxluqlargagina aniq bo'lishi mumkin, illo shu fikrni qo'shimcha sharhlar bilan tushuntirib berishim haqiqatan ham zarur ekan, Siz tayinlagan vaqtda o'zingizni qabul qilishim mumkin, garchi har qanday tashrifni, har qanday mehmonni jinim suymasa ham. Mening nazariyanga „ba'zi tuzatishlar kiritish“ masalasiga kelsak, ma'lumangiz bo'lsinkim, o'z qarashlarimni pishib yetilgan fikrlarda bayon qilgan ekanman, ularni o'zgaritish odatiim yo'q. Kelgandingizda, marhamat qilib mazkur maktubning konvertini xizmatchim Ostinga ko'rsatsangiz, chunki uning zimmasiga o'zlarini muxbir deb ataydigan xira-xandon ablalardan meni muhofaza qilish vazifasi yuklatilgan.

Sizga hurmat bilan
Jorj Eduard Chellenjer“.

Men olgan javobning mazmuni ana shunday edi. Jasurona urinishimning natijasini bilish uchun redaksiyaga ataylab barvaqt kelgan Tarp Genriga uni vijor bilan o'qib berdim. Tarp quyidagi izoh bilan kifoyalandi:

– Qon oqishini to'xtatuvchi allaqanday yangi dori – kutikurami-vey, shunga o'xshagan narsa bor deyishadi. U amikadan ham kuchli ta'sir qiladi.

Ba'zi odamlar xo'p g'alati, qiziqchi bo'lishadi-da!

Men xatni o'n yarimda olgan edim, ammo keb – izvoschi meni uchrashuv manziliga kechiktirmay yetkazib olib bordi. Biz ostonasida to'xtagan bino juda savlatli bo'lib, bosh darvozasi ravoqining kattaligi, derazalaridagi darpar-dalar og'irligi bu qutquli professorsorning baddavlatligidan dalolat berardi. Menga eshikni qorachadan kelgan, qotmagina, yoshini bilib bo'lmaydigan, matroscha qora kamzul, jigarrang charm getra kiygan kishi ochdi. Keyinchalik bilsam, bu kishi shofyor bo'lib, xonadonga xizmatchi chidamagani uchun har xil yumushlarni bajaraverar ekan. Uning sinchkov, tiniq moviy ko'zlari oyog'imdand boshimgacha kuzatib, chamalab chiqdi.

– Sizni kutishyaptimi? – so'radi u.

– Ha, meni qabul qilishlari belgilangan.

– Xat yoningizdami?

Men konvertini ko'rsatdim.

– To'g'ri,

Aftidan, bu odam behuda gapirishni yoqtirmasa kerak. Men unga ergashib, koridorda ketayotgan edim, to'stadan oshxona eshigi ochilib, ro'paramdan lop etib bir xotin chiqib keldi. Bu serharakat, ko'zlari qop-qora juvon inglizdan ko'ra fransuz ayollariga ko'proq o'xshab ketardi.

– Bir daqiqaga, – dedi bu xonim. – To'xtab turing, Ostin. Bu yoqqa o'ting, ser. So'rashga ijozat etsangiz, siz ilgari u bilan uchragganmidingiz?

– Yo'q, xonim, bunday sharaftga muyassar bo'lgandim.

– Unday bo'lsa, oldindan kechirim so'rayman sizdan. Sizni ogohlantirib qo'yayki, u juda bo'lmag'ur odam, ha, ha, tom ma'nodagi bo'lmag'ur odam! Shuni bilgani-ngizdan so'ng o'zingiz bilib muomala qilarsiz.

– Bunday e'tiboringizni qadrlayman, xonim.

– Jahli chiqishi bilanov xonadan qochib chiqavering.

Achchiq-qutluq gaplarni aytman. Bunday ehtiyotsizlik uchun ko'plar adabini yeyishdi. Keyin bu janjal oshkor bo'lib, oqibati men uchun ham, hammalarning uchun ham yomon bo'ladi. Siz u bilan nima haqida gaplashmoqchi edingiz? Janubiy Amerika to'g'risida emasmi?

Men ayollarga yolg'on gapira olmas edim.

– Voy Xudoyim-ey! Bu juda xavfli mavzu-ku. Siz uning biror og'iz ham so'ziga ishonmaysiz, bu meni aslo hayratlantirmaydi. Faqat ishonmayotganingizni aytib yubormang, juda quturib ketadi. O'zingizni go'llikka solib ishonayot-gandek eshitavering, shunda ishingiz o'ngidan kelaveradi. Shuni esingizdan chiqarmangki, u o'zining haqligiga qattiq ishonadi. Bunga shubhalanmasangiz ham bo'ladi. O'zi – poklikning timsoli. Endi boring, bunchalik ushlanib qolishingizdan shubhalanib yurmasin, u xavfli bo'la boshlaganini, chinakamiga xavfli bo'la borayotganini ko'rishingiz bilanov qo'ng'iroqchani chaling-da, men yetib borgunim-cha alahsitib turing. Men hatto eng og'ir onlarda ham uni tinchlantira olaman.

Xonim mana shu dadillantiruvchi so'zlar bilan meni kamgap Ostin ixtiyoriga topshirdi. Ostin bo'lsa qisqa suhbatimiz davomida bannisoli buyuk osoyishtalik timsolidek, xuddi jez haykalday churq etmay turgan edi. Ostin meni ichkariga boshladi. Eshik tiqillashiga javoban ichkaridan quturgan buqaning bo'kirishiga o'xshagan na'rani eshitdim-u, xonaning o'rtasida professorsorga ro'baro' bo'ldim.

U ustiga kitoblar, xaritalar, diagrammalar qalashitirib tashlangan keng stol qarshisidagi aylanna kresloda o'tiradi. Ostonadan o'tishim bilan oq aylanna kursi sharta burildi. Bu odamni ko'rgan zahotim jonim halqumimga keldi. Men har qanday g'ayritabiiy odamga ro'baro' bo'lishga tayyor edim, lekin bunday bahaybat odamni ko'rish xayolimga ham kelmagan edi. Ayniqsa, uning bahaybatligi aqlimni shoshirardi. Qadaming kattaligi-yu, ulug'vor yurishini aytmasizmi! Bunday katta boshni men umrimda ko'rmaganman. Agar uning silindr qalpog'ini kiyib ko'rganimda, balki, yelkamga tusharmidi. Professoring yuzi bilan soqoliga qaragan kishi Suriya bugasini ko'rgandek bo'lardi. Yuzi barkashdek, sergo'sht, to'rtburchak soqoli esa qop-qora bo'lib, selkillab ko'kragiga tushib turardi. Sochlari ham g'ayritabiiy taassurot qoldiradi – uzun bir tutam kokli bamsoli baland do'ng peshonasiga yopishtirib qo'yilgandek. Yorqin kulrang-moviy ko'zlari qop-qora qalin qoshlari ostidan menga tanqidiy, hokimona nazar tashladi. Men keng yag'rinlarini, dum-dumaloq qudrati ko'kragini, uzun qora jun bosgan ulkan ikki qo'lini ko'rdim. Shularning ustiga uning momaqaldiroqdek gumburlaydigan ovozi ham borligini aytadigan bo'lsam, mashhur professor Chellenjer haqidagi dastlabki taassurotim naqadar vahimali ekanligiga ishonch hosil qilasiz.

– Xo'sh? – dag'allik bilan dedi u. – Nima kerak sizga?

Menga shu narsa ayon bo'ldiki, bor gapni darhol to'kib solsam, intervyu olmayman.

– Muhtaram ser, meni qabul qilishga iltifot qilib, katta sahovatingizdan bahramand etdingiz, – mo'min-qobillik bilan shu so'zlarni ayta turib, unga konvertini uzatdim.

U stol g'aladonidan mening xatimni oldi-da, oldiga qo'ydi.

– E, anavi oddiy haqiqatlarni ham bilmaydigan yigit sizmidingiz? Ammo-lekin, fikrimcha, mening umumiy xulosalarim sizning maqtovingizga sazovor bo'lipiti-da, a?

– Shubhasiz, ser, shak-shubhasiz! – Men bu so'zlarni imkon boricha ishonchli qilib aytdim.

– Marhamat qilib aying-chi! Bu fikrlar mening pozitsiyamni qanchalik mustahkamlaydi! Sizning navqironligingiz bilan tashqi qiyofangiz bunday asosni yana-da kuchaytiradi. Xayt, mayli, menga Venada xuruj qilgan cho'chqalar podasi bilan mulqotda bo'lgandan ko'ra, siz bilan suhbatlashganim yaxshi, aslida, u betavfiqlarning cho'chqadek chiyillashlari ingliz to'ng'izining xurullashidek tahqirona bir narsa edi, xolos. – Shu on g'azabga to'lib, ko'zlarini shunday chaqchaytirdiki, afti hozir eslatilgan maxluqqa o'xshab ketdi.

– Ular, aftidan, o'zlarini ablahona tutishganga o'xshaydi, – dedim men.

– Hamardilingiz o'rinsiz! Sizni ishonitishga jur'at etib aytamanki, muxolifatimni bir yoqlik qilishga qodirman. Ser, siz Jorj Eduard Chellenjerni devorga taqashga intiling, shunda uni juda xursand qilgan bo'lasiz. Keling endi, ser, sizning tashriflaringizni kamaytirish uchun hamma ismini qilaylik. Bu kelishlaringiz sizni baxtiyor qilishiga shubham bor, meni bo'lsa inchinun. Fikri ojizimcha, siz mening dokladimda olg'a surtilgan o'sha tezislar haqida o'zingizning allaqanday mulohazalaringizni izhor qilmoqchi edingiz chog'i.

Uning suhbatlashuv tarzida beibolarcha to'g'rilik hukmron bo'lgani uchun hiyla ishlatish oson emasdi. Shunga qaramay, men zora bu o'yinning yaxshi yo'li topilib qolsa, degan umidda cho'zishga harakat qildim. Sirtidan qaraganda, hammasi juda jo'ndek tuyulardi! Ey mening irlandlarga xos topqirligim, senga juda muhtoj bo'lib turgan shunday paytimda nahotki ko'mak bermasang?! Po'lat ko'zlarining o'tkiritg'lari madorimni quritgan edi.

– X-xo'sh-sh! O'zingizni kutitishga majbur qilmangdal! – bo'kirdi professor.

– Men, albatta, fan olamiga endi kirib kelayotgan odamman, – dedim tentakona jilmayib, – kamtarona tadqiqotchi unvonidan boshqasiga da'vo qilmayman. Shunga qaramay, fikrimcha, bu masalada siz Veysmanga nisbatan haddan tashqari qat'iy ketganga o'xshaysiz. Axir o'shandan beri to'plangan dalillar uning nuqtayi-nazarlarini... fikrlarini mustahkamlamaydimi?

– Qanaqa dalillar? – bu gapni xavfli bir sokinlik bilan aytdi u.

– Albatta, fikri ojizimcha, bevosita dalillar hali yo'q. Agar ta'bir joiz bo'lsa, men hozirgi zamon ilmiy fikrlarining yo'nalishiga tayanaman.

Professor butun diqqat-e'tiborini menga tikkancha stol uzra engashdi.

– Sizga ma'lum bo'lishi kerakki, – dedi u chap qo'lining barmog'larini navbatma-navbat bukar ekan, – birinchidan, bosh chanog'i ko'rsatkichi doimiy faktor hisoblanadi.

– Shubhasiz! – javob berdim men.

– Telegoniya¹ ham hali sib jidegi².

– Shak-shubha bo'lishi mumkin emas!

– Homila plazmasi ham partenogenetik³ tuxumdan farq qiladi.

– Bo'lmassam-chi! – xitob qildim o'zimning beorligimdan huzurlanib.

– Bular nimani isbotlaydi? – so'radi u mayin, mug'am-birona tovush bilan.

– Nimaniam isbotlardi? – ming'illab so'radim, – nimanis isbotlaydi?

¹ Telegoniya – istsiyat nazariyasidagi soxta ta'limotlardan biri.

² Shubha ostida (lotincha).

³ Partenogenez – urug'ning bachadondagi rivojlanish holati. Ayrin ha-sharotlar va o'simliklarda uchraydi.

– Sizga aytaymi? – dedi professor hamon o'sha mug'ambrona tovushda.

– Himmatingizni darig' tutmang.

– Bu shuni isbotlaydiki, – kutilmagan g'azab bilan bo'kirdi u, – bunaga tovlamachining ikkinchisi butun Londonda topilmaydi! Siz ilm-fandan uzog' bo'lgan, oddiy insoniy fazilatlardan tamomila mahrum bo'lgan g'alamis, surbet muxbirvachchasizi!

U dik etib o'rmondan turdi. Ko'zlarida tentakona g'azab uchqunlari chaqnadi. Ana shu dahshatli daqiqalarda ham men professor Chellenjerning bo'yi pastligini ko'rib hayratlanishdan o'zini tiya olmadim. U mening yelkandan kelardi – xuddi ezib qo'yilgan Gerkulesning o'zi, borliq hayotiy kuch-qudrati go'yo yag'rinlarining kengligiga, xo'ppa semiz tanasiga-yu aql-zakovatiga singib ketgandek edi. – Nimaga endi siz bilan pachakilashib o'tiribman, ser! – bo'krib dedi u ikkila qo'lini stolga tirab, bo'yini cho'zib. – Bema'ni gaplar bilan ovora bo'lib o'tiribman, a? Siz bo'lsangiz menga teng kelmog'chisiz – mana shu kichkinagina yong'oqdek kallaingiz bilan, a! Bu la'nati yozg'uvcilar o'zlarini hamma narsaga qodirmiz, zo'rmi, deb o'ylashadi! Ular birovi ulug'lash yoki loyga qorish uchun bir og'iz so'zimiz kifoya, deb o'ylashadi-da. Biz hammamiz ularning bir og'iz maqtovlariga sazovor bo'lish uchun sajda qilib yalinishimiz kerak. Manavimisini arshi-a'loga ko'tarasiz, anavisini yerga qorasiz... Sizlarning qabixona qiliqlaringni men bilaman! Judayam haddan oshib ketdilaring! Ilgarilari dumlarining qisib, mo'mintoy bo'lib yurardilaring, endi bo'lsa dumlarining tutqizmaysanlar. Yaramas safsatabozlar! Sizlarning adab-laringni berib qo'yaman hali! Ha, ser, Jori Eduard Chellenjer sizning tengingiz emas. Bu odam buyruqqa itoat qilishni yomon ko'radi. U sizni ogohlantirib qo'yg'an edi, shunga qaramasdan surbetlarcha sug'laversangiz, o'zingiz-

dan ko'ring. Taslim bo'ling, muruvvati mister Meloun! Taslim bo'ling! Siz xavfi o'yin boshlagansiz, fikrimcha, yutqazdingiz!

— Quloq soling axir, ser, — dedim men eshik tomon tirsarilib, uni ocharkanman, — siz ko'nglingizga sig'ganicha so'kinaverishingiz mumkin, lekin hamma narsaning ham chegarasi bor. Men mushki ko'tarib boshimga kelishingizga yo'l qo'ymayman!

— Iye! Hali shundoqmi? — U vazmin, dahshatli qiyofada menga xuruj qila boshladi, keyin birdan to'xtadi-da, ulkan qo'llarini kap-katta kishidan ko'ra yosh bolaga yarashadigan kalta kamzulinig cho'ntaklariga sug'di. — Men bunaga sho'rtumshuqlarning uyimdan ko'pini ulotqirganman. Siz to'rtinchisi yoki beshinchisi bo'lasiz. Har biri uchun o'rta hisobda uch funt-u' o'n besh shillingdan¹ jarima ham to'laganman. Qimmatlika qimmat, lekin kerak bo'lgandan keyin ilojim qanchal! Endi, ser, nima uchun hamkasabalaringiz izidan tuyog'ingizni shigillatib ketavermayapsiz? Shaxsan men buni muqarrar deb bilaman. — U yana menga judayam noxush bo'lgan xurujini boshladi, mohir raqs muallimidek oyoqlarining uchini unda-munda qo'yib men tomon ketardi.

Men yugurgilab mehmonxonaga qochib qolishim mumkin edi, lekin bunaga qochqilikni sha'nimga munosib ko'rmadim, nomus deb bildim. Bundan tashqari, mening ham dilimda adolati qahr-u'g'azab uchqunlari alangalanib bormoqda edi. Shu chog'gacha o'zinni bosib turganim o'taketgan darajada nojo'ya ish bo'lgan ekan, lekin bu odamning do'q-po'pisalari tezda hamiyatimga tegib, jahlimni qo'zg'adi.

— Qo'lingizni torting, ser! Men bunga yo'l qo'ymayman!

^{1, 2} *Funt, shilling* — Buyuk Britaniya imperiyasining bir qator mamlakatarida qabul qilingan pul birligi. Bir funt sterling 20 shillingga teng.

— Buni qarang, al! — Uning qop-qora mo'ylabining uchlari silkindi, qahrti irjayishi natijasida lablari ochilib, oppoq qoziq tishlari yaltirab ketdi. — Siz bunga toqat qilolmaysizmi hali?

— Jimnlik qilang, professor! — qichqirdim men.

— Nimangizga chiranasiz? Toshim ikki yuz qadoqdan ortiq bo'lsa. Men chayirman, har shanba kuni regbi o'ynayman, Irlandiya terma komondasida. Men bilan tenglashishga yo'l bo'lsin.

Lekin shu chog' u menga tashlandi. Yaxshiyamki, eshikni ochishga ulgurgan ekanman, yo'qsa u dabdala bo'lib ketardi. Ikkalamiz koridor bo'ylab o'mbalog' oshib, dumalashib borarkamiz, yo'l-yo'lakay nimayam bo'lib bitta stulni ham ilashtirib ketdik. Professorning sog'oli og'zimga kirib ketibdi, ikkalamiz mahkam quechoqlashib olganicha badanlarimiz ayqash-uyqash holatda dumalasharkamiz, la'nati stulning bitta oyog'i ustimizda chir aylanardi. Hushyor Ostin chiqish eshigini lang ochib yubordi. Biz zinapoyalardan o'mbalog' oshib, koptokdek bo'lib pastga quladik. Myuzikxoll artistlari aka-uka Meklar ana shunday o'mbalog' oshishlarini ko'rganman, ammo bunday tomosha ko'rsatish uchun ular ozmuncha mashq qilishmagan, hech qanday tajribaga ega bo'lmay, bunday hayratomuz harakatlar qilishda biror a'zoying shikastlanmay iloji yo'q. Stul zinaning oxirgi poyasiga urilib, chi-chil bo'ldi, biz bo'lsak, ajralishib, tarnov tagidagi ariqchaga shaloplab tushibmiz. Professor dik etib turdi-yu, bo'g'ma odamning kasali tutgandek xirillab, mushklarini o'ynatib o'dag'aylay boshladi.

— Ta'ziringizni yegandirsiz? — qichqirdi u zo'rg'a nafas olib.

— Bezori! — javob berdim men yerdan bir amallab turishga intilib. Biz yana yoqalashib ketay dedik, chunki professorning jangariligi hali bosilmagandi, ammo taqdirning o'zi

meni bu ayanchli ahvoldan qutgardi. O'rtamizda cho'ntak daftarini ochib olgan politsiyachi turardi.

– Bu nima degan gap? Uyalmaysizmi? Uyat! – dedi u.

Enmor-parkda men eshitgan eng aqli so'zlar mana shular edi.

– Xo'sh. – Politsiyachi meni tergay ketdi, – tushuntirib bering-chi, nima gap o'zi?

– U menga birinchi bo'lib hujum qildi, – dedim men.

– Shu to'g'rimi, birinchi bo'lib siz hujum qildingiz-mi? – so'radi politsiyachi.

Professor javob o'rninga mishig'ini tortib qo'ydi, xolos.

– Bu nechanchi voqea o'zi? – dedi politsiyachi boshini jahl bilan sarak-sarak qilib. – O'tgan oyda ham xudi shunga o'xshash bir janjal ko'taruvdingiz. Yigiting ko'zi shikastlanibdi. Da'voyingiz bormi, ser?

Men darhol g'azabimni shafqatga burdim.

– Yo'q, da'voym yo'q.

– Bu qanaqasi endi? – so'radi politsiyachi.

– Bunda mening ham biron aybim bor. Men o'zim sababchi bo'ldim. U meni ogohlantirgan edi.

Politsiyachi datfarchasini sharta yopdi.

– Bunaqa bema'nigarchiliklar endi takrorlanmasin, – dedi u. – Xo'p mayli, ziyoni yo'q, tarqalinglar, tarqalinglar!

Bu gap qassoblik do'konida dastyorlik qiladigan bolaga, cho'ri xotinga va atrofmizga to'plangan ikki-uch tomoshatalab bekorchiga taalluqli edi. Politsiyachi bu kichkina podani oldiga solib, yo'lakdan odim tashlab ketdi. Professor menga qaragan edi, ko'zlarida istehzo uchqunlari chagnadi.

– Kiring! – dedi u. – Men siz bilan suhbatni hali tamomlaganim yo'q.

Bu so'zlar gahr ohangida aytilgan bo'lsa-da, men uning orqasidan uyga kirdim. Yog'och haykaldek qotib turgan xizmatkor Ostin orgamizdan eshikni yopdi.

TO'RTINCHI BOB

Olamdagi eng buyuk kashfiyot

Ko'cha eshik yopilishi bilan oq oshxonadan missis Chellenjer yugurib chiqdi. Bu ushoggina xotin gahr-g'azabga to'lgandi. U bamisoli jo'jalarini ko'pkadan ko'ksini qalqon qilib himoya qilgan kurk tovuqdek erining yo'lini to'sdi. Aftidan, missis Chellenjer mening haydab chiqarilishimni ko'rgan-u, qaytib kelganimdan bexabar edi.

– Jorj! Bu hayvonlik-ku! – qichqirib dedi u. – Shunday o'ktam yigini mayib qilding-ku axir!

– Mana o'zi, soppa-sog', jin ham urgani yo'q.

Missis Chellenjer xijolatdan dovdirab bir qaradi-yu, lekin tezda o'ziga keldi.

– Kechirasiz, men sizni ko'rmabman.

– Tashvishlanmang, xonim, ziyon-zahmat yetgani yo'q.

– Lekin u ko'zingizning tagini ko'kartirib qo'yipti-ku! Juda xunuk bo'ldi-da! Bu uyda biror hafta yo'qki, janjalsiz o'tgan bo'lsin! Seni hamma yomon ko'radi, Jorj, hamma seni kalaka, taxqir qiladi! Yo'q, men endi chidolmayman! Sabr-toqatim tugadi!

– Odamlarga kir ko'ylakni ko'z-ko'z qilypasammi! – g'o'ldiradi professor.

– Bu endi hech kimga sir emas! – qichqirdi xonim. – Gap shundoq ekan, aynganim bo'lsin, bu sharmandaliklar ko'chamizgagina emas, butun Londonga mashhur bo'lganimi nahoiki fahmlamagan bo'lsang!.. Ostin, siz bizga kerak emassiz, boravering. Har kim kelib, suyaklarini sindirib ketaverradi. Sen o'z sha'ningni, nafsoniyatini yerga urib yubording. Katta universitetning professori bo'ladigan sendek odam talabalarning hurmatini qozonishing kerak edi. Hamiyating qani, Jorj!

– O'zingniki qani, azizam?

– Xudo bilsin, sen meni ne ko'ylarga solmading! Bezori, uchiga chiqqan bezori! G'irt bezori bo'lib ketding!

– Jessi, o'zingni bosib ol.

– Benomus janjalkash!

– Bas! Bunaga so'zlar uchun sharmandalik doriga osadilar! – dedi professor.

Men shu chog' bir narsaga juda hayron bo'lib qoldim: professor egildi, xotinini azot ko'tardi-da, mehmonxona burchagida turgan qora marmarning baland shohsupasiga qo'ydi. Kamida yetti fut¹ keladigan bu shohsupa shu qadar tor ediki, missis Chellenjer unda yiqilib tushay-yiqilib tushay deb zo'rg'a o'tirardi. Bundan o'zga kulgili manzarani qidirib topish amri mahol: boyaqish yiqilib ketishdan qo'rqib, toshdek qotib, qimir etmay turardi, g'azabidan yuzi bujmayib ketgandi, faqat oyoqlarini likillatardi, xolos.

– Meni tushirib qo'y! – nihoyat, yalima boshladi missis Chellenjer.

– Jon er, tushirib qo'ying, desang.

– Bu bema'nilik, Jori! Meni hoziroq tushirib qo'y!

– Mister Meloun, yuring mening xonanga.

– Shafqat qila qoling, ser! – dedim men uning xotiniga tikilib.

– Eshityapsammi, Jessi? Mister Meloun sen uchun iltimos qilypiti, „Jon er“ deya iltimos qil, tushirib qo'yaman.

– Bema'nilik? Xo'p mayli, jon er, iltimos, tushirib qo'ying!

Professor xotinini bannisoli chittakdek yengil narsani ko'targandek marmardan uzib, tushirib qo'ydi.

– O'zingni yaxshi tut, azizam. Mister Meloun – matbuot vakili. Ertagayoq u mana shu mashmashalarni iflos

¹ Fut – ingliz o'lovchi. Bir fut 12 duymga yoki 30,479 sm. ga teng.

gazetasida do'mbira qilib, juda ko'p nusxasini qo'shnilarimizga sotadi. „Arshi-a'lodagi bir oyimtilaning g'alati qilqlari“, deb yozadi. Oyimtila degani – bu sen bo'lasan, Jessi, esingdami, bir necha daqiqaga seni arshi-a'loda mindirib qo'yuvdim, a? Sarlavhachasi ham antiq bo'ladi: „Bir turfa er-xotin turmushidan“. Bu mister Meloun hech narsadan taptormaydi, o'zining hamkasabalaridek yegani o'laksa, – porcusex grege diaboli – iblislar to'ldasining cho'chqasi. To'g'ri aytyapmammi, mister Meloun?

– Siz haqiqatan ham bad'e'l ekansiz, – dedim men jahll bilan.

Professor qah-qah urib kuldi.

– Sizlar, ikkovlaring menga qarshi ittifoq tuzinglar, – to'ng'illadi u baquvvat ko'ksini ko'pchitib, dam men tomon, dam xotini tomon ko'z qirini tashlab. Keyin tamomila boshqacha ohangda dedi: – Bu arzimas, beozor oilaviy mashmalarimiz uchun bizni kechirasiz-da, mister Meloun. Men jo'nab qo'ya qoling, deb taklif qilganimda, aslo mana shu beozor hangomalarning guvohi bo'la ko'rman demogchiydim. Qani, xo'sh, oyimtila, jo'nab qoling-u g'azablanib yurmang tag'in. – U o'zining ulkan qo'llarini xotinining yelkasiga qo'ydi.

– Har doimgidek, sen haqсан. Agarda Jori Eduard Chellenjer sening maslahatlaringga kirganida bormi, u boobro' odam bo'lib ketarmidi, lekin o'zi emas, boshqa kishiga aylanib qolardi. Hurmati odamlar juda ko'p, azizam, lekin Jori Eduard Chellenjer dunyoda yagona. Shunday ekan, u bilan murosas-yu madora qilib yashashga urinaver. – U xotinini cho'ipillatib shunday o'pdiki, boyagi qilqlari holva bo'lib qoldi, battar jahlim chiqib ketdi. – Endi, mister Meloun, – davom etdi professor yana ulug'vorlik qiyofasiga kirib, – bu yoqqa marhamat qilasiz.

Biz o'n daqiqagina ilgari gursullab, o'mbalog oshib chiqib ketgan xonaning o'ziga kirdik. Professor eshikni

yaxshilab berkitdi-da, meni kresloga o'tqizib, naq tumshug'imga sigaralar solingan qutichani ro'baro' qildi.

— Eng zo'r „San-Xuan Kolorado“ sigarasi, — dedi u. — Sizga o'xshagan salga pov etib ketadigan jizzaklarga bunaga narkotiklar yaxshi ta'sir qiladi. Voy Xudo-yey! Buning dumini kim tishlab uzadi! Kesib tashlang — sigarani hurmat qilish lozim! Mana endi kresloning suyanchig'iga o'zingizni bemaol tashlang-da, men sizga izhor qilishni lozim topgan gaplarni diqqat bilan tinglang. Biror savol-pavol chiqib qolgudek bo'lsa, qulay fursat kelguncha o'ylab turishga harakat qiling. Dastavval — tamomila haqli ravishda haydalganingizdan keyin uyimga qaytganingiz xususida. — U soqolini cho'chhaytirib, go'yo yana bahsga kirishishini kutgandek, g'o'daygancha menga tikildi. — Demak, qaytaraman: mutlaqo haqli ravishda haydalganingizdan so'ng. Nima uchun sizni qaytib kirishga taklif qildim? Chunki sizning o'sha surbet politsiyachiga bergan javobingiz menga ma'qul bo'ldi. Bu javobda jirkanch kasbingizga xos bo'lmagan odamshavandalik, halollik uchuqunlari yalt etgandek bo'ldi. Ayb o'zingizda ekanligini tan olib, siz ma'lum darajada obyektivlik va bilimlaringiz doirasi kengligini namoyish qildingizki, bu fazilatlaringiz rahm-u shafqatimga sazovor. Inson irqlarining eng tuban tabaqalari, afsuski, siz ham shular jumlasidansiz, mening aql-u zakovatim doirasidan chetda turadilar. Sizning politsiyachiga bergan javobingiz o'zingizni darhol mening nuqtayi nazarim doirasiga olib kirdi. Siz bilan yaqindan tanishish istagi tug'ildi menda va uyga qaytib kirishingizni taklif etdim. Huv anavi bambuk stolcha ustida turgan yapon kuldoniga sigaraning kulini lutfan to'ksangiz, ana, oldingizda turibdi.

Professor bu so'zlarning hammasini bamisoli talabalariga leksiya o'qigandek, to'xtamay, tutilmay, tez aytdi. U ulkan cho'iqurbaqadek shishingan holda menga yuzma-yuz

o'tirib, boshini orgasiga tashlab, ko'zlarini qisib olgandi. Keyin yoniga burilib, qip-qizil ding quloqlari uzra tikaygan bir tutam sochini menga namoyish qilayotgandek bir alfozda stoli ustidagi uyum-uyum qog'ozlar orasini tiktilab, anchagina uringan bir daftarni topib, qo'lga oldi.

— Men sizga Janubiy Amerika to'g'risida ba'zi bir narsalarni gapirib bermoqchiman, — so'zini boshladi u. — Fikr-u mulohazalaringiz o'zingizda turaversin. Avval marhamat qilib eshitib oling: hozir siz eshitadigan narsalarni biyor bir shaklda oshkor qilishingizni toki bunga mendan tegishli ruxsat olmaganingizcha man etaman. Aslida, bunaga ruxsat berilmasa kerak ham. Tushunarlimi?

— Bunchalik haddan tashqari qat'iylikning boisi nima? — so'radim. — Menimcha, xolisona bayon qilib berish...

U daftarchasini stol ustiga qo'ydi.

— Unday bo'lsa, siz bilan gaplashadigan narsa qolmadi.

Xayr, yaxshi boring.

— Yo'q, yo'q, men har qanday shartga ham roziman! — qichqirdim. — Axir tanlab olish imkoniyatiga ega emasman-ku.

— Tanlab olish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas, — tasdiqladi u.

— Unday bo'lsa, churq etmaslikka so'z beraman.

— Chin so'zingizmi?

— Chin so'zim.

Uning surbetlarcha, ishonchsizlik bilan boqgan nigohi menga qadaldi.

— Gaplaringizning chin-nochinligini men qayogdan bilaman?

— Judayam haddingizdan oshyapsiz shekilli, ser, — dedim jahl bilan. — Men haligacha bunaga haqoratlarini eshitmagandim!

Mening jahlim chiqqani professorsorning g'azabini qaynatib yuborish o'rninga unda qiziqsinish hissi uyg'oldi.

– Kaltabosh tipi, – g‘o‘ldiradi u. – Braxitssefal¹, kulrang ko‘z, qora soch, negrisonlarning ba‘zi belgilari... Kelt² bo‘lsangiz kerak, a?

– Men irlandman, ser.

– Asl irlandmisiz?

– Ha, ser.

– Unda hammasi tushunari. Demak, sizga ma‘lum qiladigan ma‘lumotlarni sir saqlashga so‘z berdingiz. Bu ma‘lumotlar, albatta, juda oz. Lekin ba‘zi bir qiziqarli ma‘lumotlarni siz bilan baham ko‘raman. Sizga ma‘lum bo‘lsa kerakki, men ikki yil muqaddam Janubiy Amerikaga sayohat qilgandim – bu sayohat jahon fanining oltin fondiga kiradi. Sayohatdan maqsad – Uolles³ bilan Beyts⁴ ning ba‘zi xulosalarini tekshirib ko‘rish edi, bu ishni ular o‘z kuzatishlarini olib borgan joyining o‘zida tekshirib ko‘rish kerak edi. Mening sayohatim natijalari ana shu bilangina chegaralangan bo‘lgandayam, baribir munosib diqqat-e’tiborga sazovor bo‘lishi aniq edi, biroq qo‘qqisdan tadqiqotlarimni butunlay boshqa yo‘ldan olib borishimga meni majbur qilgan bir holat yuz berib qoldi.

Ehtimol, sizga ma‘lumdir, yana kim biladi deysiz: bizning nodonlik asrimizda hech nimaga ham ajablanmay qo‘yarlari to‘la tadqiq qilinmagan, unga quyiladigan joylarning, ba‘zi yerlari to‘la tadqiq qilinmagan, unga quyiladigan joylarning ko‘pi xariyaga tushirilmagan. Mana shuning uchun ham men o‘z oldimga ana shu kam o‘rganilgan joylarga sayohat qilish, u yerlarning faunasini – hayvonot olamini o‘rganish vazifasini qo‘ydim, bu esa menga shunchalik ko‘p material berdiki, men butun umrimni baxshida qilgan zoologiyadan juda

¹ *Braxitssefal* – kaltabosh yoki yumaloqbosh.

² *Keltlar* – eramizning minginchii yilidan so‘ng Yevropada istiqomat qilgan va keyinchalik hozirgi Fransiya, Belgiya, Britaniya va Irlandiyaning birinchi kitob qabilar guruhasi.

³ Uolles Alfred Ressel (1823–1913) – ingliz tabiatshunosi.

⁴ Beyts Genri Uolter (1825–1892) ingliz sayyohi va tabiatshunosi.

katta, monumental asar yozishimga yetib-ortadi. Ekspeditiviyani tugallab, uyga kelayotganimda, yo‘l-yo‘lakay Amazonkaga quyiladigan irmoqlardan biri bo‘yidagi Amerika hindularining qishloqchasida tunashimga to‘g‘ri keldi. Bu irmoqning nominiyam, geografik o‘rniyan aytmayman. Qishloqchada hindularning ko‘kama degan qabilasi yasharkan – mo‘min-qobil xalq, ammo nasli ayniy boshlagan, aql-zakovat saviyasining darajasi o‘rtamiyona, londonliknikidan salgina balandroq bo‘lsa bordir. Men birinchi marta borib, daryo bo‘ylab yuqoriga yurganimda, o‘sha yerlik bir nechta kishini davolagan, umuman hindularda katta taassurot qoldirgan edim-da, shuning uchun ham meni orziqib kutishayotganiga shubhalanmasa ham bo‘lardi. Ular darhol imo-ishoralar bilan qishloqda mening yordamimga muhtoj kishi borligini tushuntirishdi va men qabila yo‘lboshchisi ortidan bir hujraga kirib bordim. Kulbaga kirishim bilan oq mening muolajamga muhtoj bo‘lib yotgan bemorning hozirgina joni uzilganini payqadim. Uning hindu emas, balki oq odamligini ko‘rib hayrda qoldim. Oq bo‘lganda ham qanaga deng, hamma yog‘i oppoq, ta‘bir joiz bo‘lsa, oqlarning oqi edi. Sochlari mallarang, o‘zida albinosning¹ hamma belgilari mujassam. Uning kiyim-boshidan juldur-juldur parchalarigina qolibdi, uzoq vaqt keraklicha suv, ovqat iste‘mol qilmagani uchun ozib, cho‘p bo‘lib ketibdi. Hindularning o‘zlarini tutishlaridan, ular bu odamni ilgari hecham ko‘rmaganlar, degan xulosaga keldim. Bu odam qishloqqa o‘rmonzordan bir o‘zi, hamrohsiz kelgan, darmonsizligidan oyog‘ida zo‘rg‘a turardi. Notanish kishining xalasi yonida yotardi, uni ochib, ichidagi narsalarni ko‘zdan kechirdim.

Xaltaning ich tomoniga kichkinagina yorliqcha tikilgan bo‘lib, unda egasining ismi va adresi yozilgan ekan: „Mepl-

¹ *Albinizm* – hayvonning terisida rangning bo‘lmastligi (qizil ko‘zi, hamma yog‘i oppoq quyovlar va sichqonlar). To‘la albinizm odamlarda ham uchraydi.

Uayt, Leyk-avenyu, Detroyt, Michigan shtati". Bu odamga men har doim qulluq qilishga tayyorman. Men ochgan kashfiyotning muhimligi hammaning e'tiborini qozongach, uning ismi mening nomim bilan yonma-yon turadi, desam, mubolag'a bo'lmaydi.

Xaltdagi narsalar Mepl-Uaytning rassom va shoir-ligidan, bu yerlarga yangi, yorqin taassurotlar izlab ke-lib qolganidan dalolat beradi. Unda shoir she'rlarining qoralamasi saqlanardi. Bundan tashqari, men xaltdan daryo manzaralarining anchayin o'rta yonma yon chizilgan rasmlari-ni, bir quticha bo'yloqlarni, pastali qalamlar va mo'yqalam-lar solingan dovdonni, siyohdonda yotgan manavi egik suyakni, Beksterning „Parvonalar va ignachilar“ kitobini, juda arzon turadigan to'pponcha bilan unga mos talaygina o'qni oldim. Shaxsiy zarurat buyumlarini sarson-sargar-donlikda yurganlarida yo'qotib qo'ygan bo'lsa kerak, balki bunaga narsalari umuman bo'lmagandir. Amerikalik qash-shoq ziyolilarning bu g'alati vakili bisotida boshqa hech vago yo'q edi.

Endi ketaman deb tursam, yirtiq kamzulining cho'n-tagida bir narsaning uchi chiqib turganiga ko'zim tushib qoldi. Bu etyudlar chizadigan albom edi – mana, bu oldi-ngizda turibdi, o'sha paytdagidek titilib ketgan. Gapimga ishonavering, ana shu obida qo'limga tushganidan beri uni, bannisoli Shekspiring birinchi ardqli nashridek e'zozlab yuraman. Endi bu albomni sizning qo'lingizga topshira-man va iltimos qilamanki, sahifama-sahifa ko'rib chiqing, rasmlarning mazmuniga e'tibor qilib, mag'zini chaqing.

U sigarani tortib, stulning suyanichig'iga yaslanib ol-di-da, qahrli, shu bilan birga sinovchan nigohini yuzimga tikib, bu rasmlarning menga qanday ta'sir qilayotganini ku-zata boshladi.

Men albomni ochib, allaqanday kashfiyotlarni izlay boshladim – qanaga kashfiyotlar izlaganimni o'zim ham bli-

mayman. Biroq birinchi sahifa hafsalamni pir qildi, chunki unda dengizchilar kurtkasini kiygan davangirdek bir yigit-ni surat chizilgan bo'lib, tagiga „Jimmi Kolver pochta kemasida“ deb yozilgandi. Keyin hindular turmushidan olib chizilgan bir necha kichik-kichik lavha. Yana bir rasmda diniy xizmat unvonidagi xushabiat semiz kishi aks ettiril-gan, boshida soyaboni keng shlapa, juda oriqli yevropalik bilan gaplashib o'tiribdi. Tagiga „Rosariolik fra' Kristofe-ro huzurida nonushta“ so'zlari bitilgan. Shundan keyingi sahifalar ayollar va bolalarning boshlari bilan to'ldirilgan, undan so'ng esa hayvonlarning tasvirlari turkumi berilgan. Ularning tagiga „Lamantin“² sayoz qumloqda“, „Tosh-buqa va toshbuqa tuxumlari“, „Qora aguti“³ palma tagida“ qabildagi jumalalar yozilgandi. Aguti degani cho'chqaning xuddi o'zi ekan. Nihoyat, keyingi ikki sahifa allaqanday xu-nuk, burni uzun kalakesaklarning qoralama tasvirlari bilan to'lgan edi. Men bu rasmlar haqida qanday fikr yuritishni bilmay garang edim, shuning uchun, tushuntirib bersangiz, degan ma'noda professorga murojaat qildim.

- Manavilar timsolhar bo'lsa kerak, a?
- Alligatorlar! Alligatorlar! Haqiqiy timsolhar Janubiy Amerikada yashamaydi. U va bu tur orasidagi tafovut...
- Men faqat shuni aytmoqchiman, bu yerda sizning so'zlaringizni tasdiqlovchi hech nimani ko'rmayapman.
- U beozor tabassum bilan javob berdi:

– Yana bir sahifa oching.

Lekin keyingi sahifa ham meni hech narsaga ishon-tira olmadi. Bu – akvarel bilan naridan beri tus berilgan

¹ Fra – og'a, katolik dini mansabdori ismidan oldin ketuvchi hurmani bildiruvchi so'z.

² Lamantin – o'x'o'r kiltar to'dasiga mansub sutemizuvchilar oilasiga kiradigan, bo'yi ikki yarim-uch metrlik dengiz hayvoni.

³ Aguti – Janubiy va Markaziy Amerika o'rmonlarida yashaydigan ke-miruvchilar.

manzara – rassom mavzuni chuqur yoritish uchun tayyorlab qo'yadigan tugallanmagan etyudlarning biri edi. Etyudning oldingi qismini oqimtir-ko'kish tustagi pat-simon o'simliklar egallagan bo'lib, ular bazalt qatlaml-riga o'xshagan qoyaning to'q qizil rangdagi yonbag'rini qoplay, ko'kka bo'y cho'zgandilar. Keyingi planda esa bu qoyalar sidirg'a devordek salobati ko'rinadi. O'ngroqda piramida shaklidagi qoya yuksalgan bo'lib, u asosiy tog'tizmasidan chuqur jar bilan ajralgan; uning cho'qqisida – ulkan daraxt. Ana shu narsalarning hammasi uzra tropik lojuvard osmon fayz sochib turibdi. Torgina yam-yashil hoshiya qizil qoyalarga jiyakdek yarashgandi. Keyingi sahifada yana bitta akvarelda chizilgan rasmining xo-makisini ko'rdim, bu ham o'sha manzaraga o'xshaydi-ku, lekin yaqin joydan olingani uchun tafsilotlari yaqqolroq ko'rinadi.

– X-xo'sh, galay? – dedi professor.

– Bu formatsiya haqiqatan ham maroqli ekan, – javob berdim men, – lekin men unga baho bera olmayman, axir men geolog emasman-ku.

– Maroqli formatsiya? – takroran so'radi u. – Axir, bu o'xshashi yo'q yagona xushmanzara – geografik man-zara-ku! U g'ayritabiyy tuyuladi! Bunaqasini tushda ham ko'rmasan! Yangi sahifani oching-chi.

Men sahifaning orqasini o'g'irgan edim, hayratimni yashira olmay qichqirib yubordim. Albomning bu sahi-fasidan menga allaqanday bir maxluq qarab turardi. Bun-day dahshatli maxluq yo bangining xayolxonasida, yoxud bezgak tutgan kishining alahsirashida namoyon bo'lishi mumkin. Uning boshi qushniki, tanasi haddan tashqari shishirib yuborilgan timsohniki, yerda sudralib yuruvchi dumli o'tkir ignalar bilan qoplangan, yapasqi beliga esa yirik tikanlar qadab qo'yilgandek bo'lib, xo'rozning toji-

ga o'xshaydi. Bu maxluq yonida pakanagina, miti odam turibdi.

– X-xo'sh, bunisiga nima deysiz? – xitob qildi professor g'olibona qiyofada qo'llarini artar ekan.

– Bu allaqanday bahaybat maxluq, qandaydir mubo-lag'aga o'xshaydi.

– Bunday maxluqni tasvirlashga rassomni nima majbur qilganikin?

– Mayni ko'p ichib qo'yganida chizgandir-da.

– Durustroq tushuntirib bera olmasizmi?

– Yaxshi, ser, lekin o'zingiz qanday izohlaysiz?

– Juda oddiy: shunday hayvon mavjud. Ayonki, rassom uni o'z ko'z-lari bilan ko'rib turib chizgan.

Men bo'ya ikkalamiz koptokdek koridorda dumalashib ketganimizni eslab, kulib yuborishdan o'zimni tiyib qoldim.

– Shubhasiz, shubhasiz, – dedim men ovsarlar bilan suhbatlashilganda ishlatiladigan xushomadgo'ilik bilan. – Biroq mana shu miti odamchanning qaddi-gomati meni ajablantiradi. Bu yerga hinduning rasmi solingan bo'lgan-da, Amerikada pakana odamlarning allaqanday qabilasi bor ekan, deb o'ylash mumkin edi, ammo bu – yevropalik, uning boshida po'kakdan yasalgan shlem bor.

Professor bamisoli quturgan qo'tosdek pishqirdi.

– Siz mulohazalaringiz bilan meni boyitapsiz, – qich-qirdi u. – Inson nodonligining chegarasi men o'ylagandan ham keng ekan! Sizning fikrlash iqtidoringiz turg'un bo'lib qolibdi. Ajabo!

Professorning bu xurruji juda ham ahmogona bo'lgani uchun men xafa ham bo'lmadim. Ha, arzimagan narsa-largayam asabni buzishning nima keragi bor? Bu odam-dan xafa bo'lish kerak bo'lsa, uning har bir so'ziga, har daqiqada jahling chiqishi lozim. Horg'in bir jilmayish bilan kifoyalandim.

— Bu miti odamning kichikligi meni hayratda qoldirdi, — dedim men.

— Mundaq qarasangiz-chi axiri! — qichqirdi professor egilib, hasipdek semiz, jundor barnog'ini albomga nuqib. — Hayvonning orqasidagi manavi o'simlikni ko'ryapsizmi? Siz uni qoqio't yoki Bryussel karami deb o'ylagan bo'lsangiz kerak hoynahoy. Shundoq, a? Yo'q, afandim, bu „fil suyagi“ deb ataladigan janubiy amerika palmasi, uning bo'yi ellik-oltmish futdan oshadi. Nahotki, inson bo'y-basti bu yerda bekorga solimmaganini fahmlamagan bo'lsangiz? Rassom shunday maxluqqa ro'baro' kelganida rasm chizish u yoqda tursin, o'zi tirik qolmasdi. U o'simlikning va maxluqning kattaligini ko'rsatish uchun o'zining suratini chizgan. Uning bo'yi, aytaylik, besh futdan salgina oshadi. Daraxt esa o'n marta baland desak bo'ladi.

— E Xudo! — qichqirib yubordim. — Demak, sizningcha, bu jonivor... Unga in qidiradigan bo'lsak, Charing-Kross vokzali ham kichiklik qilari!

— Bunda, albatta, mubolag'a bor, lekin jonivor nusxasi haqiqatan ham yirik, — mag'rurona dedi professor.

— Axir, mumkin emas-ku, — xitob qildim men, — bitta rasmga qarab butun insoniyatning tajribasini bir chekkaga surib qo'yish mumkin emas-ku axiri! — Men boshqa sahifalarni ham varaqlagan edim, boshqa hech narsa chizilmaganiga ishonch hosil qildim. — Allaganday sayoq rassomning nasha chekib turib, kayfida chizgan yakka-yu yagona surati dalil bo'larmidi? Biz fan kishisi sifatida shunday fikrni quvvatlay olmaymiz.

Professor javob o'rtinga javondan allaganday bir kitobni sug'urib oldi.

— Mana, talantli do'stim Rey Lankasterning ajoyib monografiyasi, — dedi u. — Bu yerda bita rasm bor, u sizni qiziqitmasligi mumkin emasdir. Ha, mana! Mana.

Tagidagi yozuvni o'qing, a: „Yura davri“ning dimozavri — stegozavr²ning taxminiy tashqi ko'rinishi. Keyingi oyoqlarining har biri ikki odam bo'yi keladi“. Xo'sh, endi nima deysiz bunga?

U menga ochiq kitobni uzatdi. Men rasmga nigoh tashlab titrab ketdim. Noma'lum rassom xayolan chizgan xomaki surat bilan allagachon yo'q bo'lib ketgan odamning bu vakili o'rtasida, shubhasiz, katta o'xshashlik bor edi.

— Haqiqatan ham hayratomuz! — dedim men.

— Haliyam qaysarlik qilishda davom etasizmi?

— Ehtimol, bu oddiy bir o'xshashlik bo'lsa-chi, yoxud o'sha amerikalik kishingiz bir vaqtlar bu suratni ko'rgan-u, keyin kayfida esiga kelib qolib chizgandir.

— Juda soz, — sabr-toqat bilan dedi professor, — mayli, shunday bo'la qolsin. Endi marhamat qilib manavi narsani ko'ring. Professor menga, uning so'zlariga qaraganda, vafot etgan kishining xaltasidan topilgan suyakni uzatdi. Suyakning uzunligi olti duym, yo'g'onligi bosh barnog'imdek keladi, uning bir uchida esa qurib-qaqshab ketgan tog'ay qoldig'i.

— Bu suyak biz bilgan qaysi hayvonniki bo'lishi mumkin? — so'radi professor.

Men hali miyandan chiqib ketishga ulgurmagand bor bilimimni to'plab, suyakni diqqat bilan kuzata boshladim.

— Bu juda ham baland odamning o'mrov suyagi bo'lsa kerak, — dedim.

Subhatdoshim jirkanib, qo'lini silab qo'ydi:

— Odamning o'mrovi egilganroq bo'ladi, bu suyak esa to'ppa-to'g'ri-ku. Uning sirtida chuqurcha bor, bu chuqur-

¹ Yura davri — mezozoy (o'tta hayot erasi)ning o'tta davri, geologiya hisoblariga ko'ra, bundan 730 million yil avvalgi davrni o'z ichiga oladi.

² Stegozavr — (yura va bo'r davrlarida quruqlikda yashagan dimozavrlar (dabshahli kaltakesaklar)ning katta guruhiga mansub bo'lib, o'sha davrda qirilib ketgan maxluqning bir turi.

cha undan yo'g'on tomir o'tiganidan dalolat beradi. O'mrov-da bunga o'xshash narsa bo'lmaydi.

– Unda sizga javob berishga qiyinalaman.

– O'zingizning nodonligingizni oshkor qilib qo'yishdan qo'rqmang. O'ylashimcha, Janubiy Kensington¹ zoologlari orasida bu suyakni aniqlab bera oladigan bitta ham olim topilmasa kerak, – u doriidan bo'shagan qutichani oldi-da, uning ichidan xuddi loviyadek keladigan kichkinagina suyakchani oldi. – Fikri o'jizimcha, mana shu suyakcha siz qo'lingizda ushlab turgan o'sha odam skeleti tarkibidagi suyaklar sirasidan joy oladi. O'sha jonivorning naqadar katta ekanligini endi tasavvur qilgandirsiz?

Anavi tog'ay qoldig'ini ham unutmang – ular mazkur jonivor qazilmada topilgani emas, balki yangi nusxa ekanligidan dalolat beradi. Xo'sh, endi nima deysiz?

– Balki, filmkidir...

U xuddi bir yeriga sanchiq turgandek allanechuk bo'lib ketdi.

– Bo'ldi! Bas qiling! Janubiy Amerikada fil nima qiladi! Bu haqda og'iz ham ocha ko'rmang! Hatto hozirgi boshlang'ich maktablarimizda ham...

– Xo'p, mayli, – uning so'zini bo'ldim. – Fil bo'lmasa, boshqa biror Janubiy Amerika jonivori, masalan tapiridir².

– Hoy yigitcha, shunga amin bo'lingki, fanning bu sohasida eng oddiy tushunchalardan xabarim bor. Bu suyak tapirniki yoki zoologlarga ma'lum bo'lgan biror jonivorlarinikidir, degan fikrni xayolga ham keltirish mumkin emas. Bu juda kuchli, juda yirtqich hayvonmiki bo'lib, hozir ham yer yuzida yashaydi, ammo haligacha fanga ma'lum emas. Siz hali ham shubhalanyapsizmi?

¹ *Janubiy Kensington* – London yaqinidagi joy, Britaniya muzeyining tabiiy-tarixiy bo'limi shu yerda.

² *Tapir* – qisqa xartumli sutemizuvchi hayvon.

– Har qalay, juda maroqli ekan, qiziqib qoldim.

– Demak, sizdan ham umidni uzmasa bo'larkan-da. Sezishimcha, miyangizda allaqanday uchqunlar yalt-yult qilyapti, shekilli, keling, shu cho'g'ni sabot bilan puflaylik. Endi marhum amerikalikni tinch qo'yib, mening hikoyamga qaytaylik. Siz, albatta, mening bu sirni bilmaganimcha Amazonkani tark etmaganimni fahmlagandirsiz. Bu rassom qayerdan kelib qolganligi haqidagi ba'zi bir ma'lumotlar menda bor edi. Sirasini aytganda, men hindularning ayrim afsonalaridan foydalanishim ham mumkin edi, chunki no-ma'lum mamlakat to'g'risidagi motiv daryo sohillarida yashovchi qabilalarning hamma rivojatlari naql qilinadi. Siz, albatta, Kurupuri haqida eshitgan bo'lsangiz kerak, a?

– Yo'q, eshitgan emasman.

– Kurupuri – o'rmon opalasi, qahri qattiq, dahshatli ro'yo bo'lib, u bilan uchrashganing ajali yetmay qolmaydi. Hech kim Kurupurining qiyofasini tasvirlab bera olmaydi, lekin uning nomini eshitgan hinduni dahshat bosadi. Biroq Amazonka sohillarida yashovchi hamma qabilalar birdek Kurupurining qayerda yashashini aniq aytadilar. Amerika-lik ham o'sha yerlardan kelgan. U yerda allaqanday, aql bo-var qilmaydigan dahshatli bir narsa borgan o'xshaydi. Men ana shu sirning tagiga yetishga qaror qildim.

– Xo'sh, nima qildingiz?

Mening yengiltakligimdan, haftafahmligimdan asar ham qolmadi. Bu alpona odam diqqat-e'tibor va hurmat qozonish yo'lini bilardi.

– Men hindularning qarshiligini, shu mavzuda gap ochilganda ko'rsatishadigan ashaddiy qarshiliklarini ham bartaraf qilishga muvaffaq bo'ldim. Turli-tuman pand-u nasihatlar, sovg'a-salomlar bilan, hatto iqrar bo'lishim kerakki, do'q-po'pisalar ishlatib, ikki yo'l ko'rsatuvchini hamroh qilib oldim. Juda ko'p sarguzashtlardan so'ng – ularni tasvirlab o'tirishning hojati yo'q, – ancha kunlik

yo'lni bosib — qayerlardan yurganim, qancha yo'l bosganim haqida lom-mim demaslikni ma'qul ko'rganam, — biz, nihoyat, hanuzgacha hech kim tomonidan tasvirlanmagan, mening omadsiz o'tmishdoshimni hisobga olmasak, hech kim bo'lmagan joylarga yetib bordik. Endi marhamat qilib manavi narsani ko'ring.

U menga kichikroq fotosuratni uzatdi.

— Uning yomon holatida bo'lishiga sabab shuki, biz daryo bo'ylab pastga suzib borarkamiz, qayig'imiz to'ntarilib ketganida, ishlov berilmagan negatirlar solingan g'lof sinib qolgan edi. Bu falokatning natijasini ko'rib turibsiz. Hamma negatirlar xiralashdi — bu yo'qotishning o'rmini aslo to'latib bo'lmaydi. Manavi suratga qarang — omon qolgan fotolarning sal durustrog'i shu. Uning yaxshi chiqmagani shu izohim bilan qanoatlanasiz-da endi. Fotolari soxta degan mish-mishlar yuritpti, lekin unagalar bilan bahslashib o'tirishga hozir maylim yo'q.

Fotosurat haqiqatan ham xira edi. G'arazgo'y tanqidchi undog' ekan, bundog' ekan deya aybsitishi mumkin. Men xira tasvirdagi vohaga, uning tafsilotlariga diqqat bilan tikillar ekanman, ulkan sharharani eslatuvchi juda baland qoyalari qatorini ko'rdim, oldingi tomonda esa daraxtlar bilan qoplangan qiya tekislik ko'zga tashlanadi.

— Agar yanglishmasam, bu manzara albomda ham bor edi shekilli, — dedim.

— Mutlaqo to'g'ri, — javob berdi professor. — Men u yerda manzilgoh izlarini ko'rdim. Endi yana bitta fotosuratni ko'ring.

Bu ham o'sha voha bo'lib, faqat ancha yirik planda olingan edi. Surat judayam xira edi. Shunga qaramay, men undagi cho'qqisida daraxt ko'kka yuksalgan yolg'izgina qoyani ko'rdim; u tog' tizmasini daradan ajratib turardi.

— Endi menda hech qanday shak-shubha qolmadi, — tan oldim men.

— Demak, urinishlarimiz zo'ye ketmayapti, — dedi professor. — Katta muvaffaqiyat bu! Endi, marhamat qilib bu qoyaning cho'qqisiga boqing. Unda biror narsani ko'ryapsizmi?

— Ulkan daraxtni.

— Daraxt ustida-chi?

— Kattakon qushni.

U menga lupani uzardi.

— Ha, — dedim lupadan qarar ekanman, — daraxtga kattakon bir qush qo'ngan. Tumshug'i judayam katta-ya, balki bu soqaqushdir?

— Ko'zingizning mazasi yo'q ekan-ku, — dedi professor. — Bu soqaqush emas, unuman, qush emas. Sizga ma'lum bo'lg'aykim, men ana shu maxluqni otib tushirishga muvaffaq bo'ldim. Bu — men o'sha yerlardan olib kelgan yakka-yu yagona rad etib bo'lmaydigan dalil vazifasini bajarardi.

— U shu yerdami, yoningizdami?

Nihoyat, men bu hikoyalarning ashyoviy dalilini ko'radigan bo'ldim!

— U menda edi. Baxtga qarshi, daryodagi falokat negatirlarimgina emas, ana shu o'ljani ham nes-nobud etgandi. U girdobga tushib qoldi, har qancha urinsam ham, qo'limga bir qanotining yarmidan boshqa narsa ilimadi. Men hushimdan ayрилиbman, o'zimga kelib qarasam, suv qirg'oqqa chiqarib tashlabdi, haytovur, ajoyib nusxaning mana shu jindekkina qoldig'ini bag'rimga bosib olgan ekanman. Mana u, oldingizda.

— Judayam katta ko'rshapalakmi? — o'z taxminimni izhor etdim.

— Aslo unday emas! — darhol og'zimga urdi professor. — Men oliy ma'rifat va fan olamida yashab, zoologiyaning asosiy prinsiplari jamiyatning keng doiralari orasida bunchalik noma'lum bo'lishini o'ylamagandim. Nahotki siz qiyosiy anatomiyaning qush qanoti, aslini olganda, ko'rshapalak qanoti bir-biriga parda bilan birtikkan uchta uzun-uzun

barmogdan iborat bilak suyagidan tarkib topgan, degan oddiy qoidasini bilmasangiz. Mazkur holatda bu suyak bilak suyagiga aslo o'xshamaydi, mana, o'zingiz ham parda bittaligini ko'rib, ishonch hosil qilishingiz mumkin. Bino-barin, ko'rshapalakni eslamasa ham bo'ladi. Xo'sh, bu qush ham, ko'rshapalak ham bo'lmasa, u nima o'zi? Nima bo'lishi mumkin axir?

Mening kamtarin bilimlarim adoyi tamom bo'lgandi.

– Ochig'ini aytсам, bir narsa deya olmayman, – dedim. Professor avval ham esga olgan monografiyasini ochdi.

– Mana, – dedi u gapida davom etib, qanotli allagan-day dahshatli maxluqni ko'rsatar ekan, – mana, dimorfodon yoki pterodaktil¹ning – yura davrida yashagan qanotli kalakesakning ajoyib tasviri, keyingi sahifada esa qanotning mexanizmi chizilgan. Endi uni qo'lingizdagi surat bilan taqqoslang.

Sxemaga nazar tashlashim bilan oq badanim jimirlashib ketdi. Bu narsa meni tamomila ishontirdi. Bahslashishga hojat qolmadi. Ma'lumotlarning jamuljamligi o'z ishini qildi. Rassomning chizmalari, fotosuratlari, professorning hikoyasi, mana endi ashyoviy dalil! Yana nima talab qilish kerak? Professorga ham shunday dedim – kuch-qudratim boricha jiddiylik bilan dedim, chunki men bu odamga adolatsizlik qilib kelishayotganini mana endi bilgan edim. U stulning suyanchig'iga o'zini tashladi-da, ko'zlarini qisib, mayin tabassum qildi; u shu tobda igror quyoshi sochayotgan mo'l-ko'l nurlarda cho'milayotgandek ko'rinardi.

– Bu jahondagi eng buyuk kashfiyot-kul – xitob qildim men, garchi a'zoyi badanimda tabiatshunos emas, balki jurnalist ehtirosi jo'sh urayotgan bo'lsa ham. – Bu juda

¹ *Pterodaktil* – yura va bo'r davrlarida yashab, qitilib ketgan uchuvchi kalakesaklar – pterozavrlarning vakili.

zo'r-kul! Siz fan Kolumbisizi! Siz yo'qolib ketgan olamni kashf etdingiz! Sizning gaplaringizga shakkoklik qilib kelganidan ming afsus qilaman. Bularning hammasi mumkin bo'lmagan narsadek tuyulgandi menga. Lekin ochiq-oydin faktlarni tan olmasligim mumkin emas, ularning hammasi barchaga barobar ishonchi bo'lishi zarur. Professor huzur qilganidan ko'zlarini suzdi.

– Xo'sh, siz keyin nima qildingiz, ser?

– Yog'in-sochin mavsumi boshlandi, mister Meloun, g'amlagan oziq-ovqatlarim tugadi. Men bu ulkan tog'yonbag'irlarining bir qismini tadqiq qildim, ammo uning tepasiga chiqqa olmadim. Chiqish mumkin bo'lgan piramidasi mon qoyadan turib pterodaktilni bir o'q bilan urib tushirdim.

O'zinning alpinistligimni eslab, bu qoyatoshning yarmigacha chiqib bordim. U yerdan esa yassitog' do'mpayib turgan butun sahnini kuzatish mumkin edi. Bu haqiqatan ham poyonsiz tog'yonbag'irlari edi! Qayoqqa qarama – g'arbami, sharqami – yashillikka burkangan qoyalarining cheki ko'rinnasdi. Yassitog' etaklarida botqoqliklar, ilon-chayonlar g'uj'on o'ynab yotgan, o'tib bo'lmay chakalakzorlar yastanib yotipti. Bu botqoqliklar isitma-bezgakning uyasi. Mazkur to'siqlar bu mamlakatni muhoftaza qiluvchi tabiiy vosita bo'lib xizmat etishi o'z-o'zidan ravshan.

– Siz u yerda yana boshqa qandaydir hayot asarini ko'rmingizmi?

– Yo'q, ser, ko'rmadim, lekin biz o'sha qoyalar etaklarida o'tkazgan bir hafta ichida yuqoridan kelayotgan allaqanday g'alati tovushlarni eshitib turdik.

– Amerikalik rasmini chizgan qanaga hayvon edi? U maxluq bilan qanday qilib yuzma-yuz keldi ekan?

– Men, u qandaydir yo'l bilan cho'qqiga chiqishga muvaffaq bo'lgan va hayvonni o'sha yerda uchratgan, deb faqat

taxmin qila olishim mumkin. Binobarin o'sha yoqqa biror yo'l bo'lsa kerak-da. Yo'l, shubhasiz, og'ir bo'lishi kerak, bo'lmasa bu qo'rqinchli maxluqlar pastga tushib, hamma yoqni tutib ketishardi. Boshqasiga ishonmayman-u, lekin bunga shubha bo'lishi mumkin emas!

— U yerga qanday kelib qolishipti ular?

— Menimcha, buning jumboqlik yeri yo'q, — dedi professor. — O'z-o'zidan tushunarli. Sizga ma'lum bo'lsa kerakim, Janubiy Amerika marmar toshlardan iborat qit'a. Qadim-qadim zamonlarda bu joylarda vulqonlar otilishi tufayli qatlamlarning nogahoniy o'zgarishlari yuz bergan bo'lsa kerak, Esingizdan chiqarmangkim, bu qoyalar bazalt jinslaridan tarkib topgan bo'lib, vulqon otilishidan hosil bo'lgan. Taxminan, bizning Sassex grafitimiz muzofotidek keladigan butun bir diyor aholisi bilan birga osmoni-falakka ko'tariladi-yu, manzili qit'aning qolgan qismidan har qanday shamollarda ham sovurilmaydigan metin jinsli tik qoyalar bilan paqos to'silib qoladi. Nima bo'ldi deng? Tabiat qonunlari bu yerda o'z kuchini yo'qotib qo'ydi. Qolgan olamdagi yashash uchun kurashning sharti bo'lmish barcha har xil to'siqlar yo'qolib ketdi, yoki tubdan o'zgardi. Oddiy sharoitlarda qirilib ketadigan jonivorlar ko'payaverdi. Ma'lumigizki, pterodaktil ham, stegozavr ham yura davriga oid bo'lib, ikkovi Yer tarixidagi eng qadimgi hayvonlar sirasiga kiradi, ular mutlaqo g'ayritabiyy, tasodifan vujudga kelgan muhit va sharoitlar tufayli tirik qolishgan.

— Lekin siz topgan dalillar shak-shubhaga o'rin qoldirmaydi-ku! Siz ularni tegishli odamlarga taqdim qilsangiz kifoya-da.

— O'zim ham soddadillik bilan shunaga deb o'ylovdim, — afsus bilan javob berdi professor. — Sizga bir narsani aytsim mumkin: haqiqatda butunlay boshqacha bo'lib chiqdi — men har qadamda ishonchsizlikka duch keldim, buning zamiri-

da insonlardagi nodonlik va hasadgo'ylik yotadi. Birovlar oldida bukilib, sudralib qulluq qilish, so'zlarimga shubha qiluvchilarga haq ekanligimni isbot qilish mening odatim emas-ku, ser. Darhol ixtiyorimda bo'lgan ashyo-yu dallilarni mana deb ro'kach qilish menga yarashmaydi, degan qarorga keldim. Shu mavzuning o'zi menga yomon ko'rinnadigan bo'lib qoldi, shuning uchun ham unga til tegizishni ham istamasdim. Sizga o'xshagan kishilar, — ermaktalab bekorchilarning ta'biga xush yoquvchi narsalar izlab yuruvchi kishilar oromimni buzib, surbetlik bilan kelishganda, men izzat-nafsimga putur yetmaydigan holatimni buzmay, ularning ta'zirini berishdan o'jiz edim. Tan olishim kerakki, men qiziqqon odamman, jahlimni chiqarishganda yomon ishlar qilib qo'yaman. Afsuski, siz ham buni totib ko'rdingiz.

Men shilpiq ko'zimni silab qo'ydim-u, ammo churq etmadim.

— Chellenjer xonim shu qilig'im uchun doim men bilan urishgani-urishgan, lekin o'z izzatini bilgan har qanday odam ham mening o'rnimda shunday qilgan bo'lur edi.

Ammo-lekin bugun men sabr-toqat namunasini namoyish qilib, irodaning ehtiros ustidan g'alabasini ko'rsatib qo'ymogchiman.

U stolidan taklifnomani oldi-da, menga uzatdi.

— Ko'rib turibsizki, bugun kech soat sakkiz-u o'ttizda Zoologiya institutida ancha mashhur tabiatshunos, mister Persival Uoldronning „Asrlar lavhalari“ mavzuidagi ma'ruzasi bo'ladi. Kaminani prezidiumga maxsus taklif qilishgan, zalda hozir bo'lganlarning barchasi nomidan lektoraga tashakkur izhor qilishim kerak ekan. Shunday qilaman. Lekin, albatta, zo'r ehtiyotkorlik va odob bilan! Shu yerda jamoatni qiziqitiradigan va ba'zi birovlarda men ko'targan masala bilan kengroq tanishish istagini uyg'otadigan bir necha fikrni qistirib o'tishimga monelik bo'lmay deyman. Albatta, munozarali masalalarga tegilmaydi,

shunga qaramay, so'zlarim zamirida qanday chuqur muammolar yotganini hamma payqab oladi. O'zimni bosiq tutishga so'z beraman. Kim bilsin, balki, mening bosiqsigim yaxshi natijalarga olib kelar.

— Men ham borsam bo'ladimi o'sha yerga? — shoshib-pishib so'radim.

— Albatta... albatta mumkin, — sevinch bilan javob berdi professor.

Bu odamning lutfi karami ham uning qo'polligidaqa antiqa va hayratomuz edi. Uning xush tabassumi naqadar o'ksamligini aytmasizmi! Ko'zlari ko'rinnay ketdi, yonog'lari shishib, qop-qora soqol osilib turgan ikki dona qip-qizil olmadek shaklga kirdi.

— Albatta keling. Zalda, garchi fan masalalarida o'jiz va o'ta uquvsiz bo'lsa ham, bir ittifoqdoshim borligini his qilishning o'zi men uchun maroqli. Odam juda ko'p kelisa kerak, chunki Uoldron o'taketgan tovlamachi bo'lsa ham, katta shuhrat qozongan kishidir. Mana shunaga, mister Meloun, sizga mo'ljalimdan ham ko'p vaqt ajratdim. Butun insoniyatning merosini ayrim shaxs o'zlashtirib ola olmaydi. Keechqurun sizni leksiyada uchratish sharaftidan xursand bo'lurman. Hozircha shuni ta'kidlab qo'yishimga ijozat beringkim, sizga tanishtirilgan material mutlaqo oshkor qilimasligi lozim.

— Lekin mister Mak-Ardl... bizning muharririmiz mendan siz bilan qilgan suhbatim haqida hisobot talab qiladi-da.

— U kishiga kallangizga kelgan narsani aytavering. Ha, aytmogchi, unga mening oldimga yana biror kishini yuborgudek bo'lsangiz, huzuringizga professorsorning o'zlar yaxshigina qamchin bilan qurollangan holda tashrif buyurar ekanlar, deb qo'yarsiz. Qolgan masalalarda sizga butunlay ishonaman; ma'buotda bir og'iz ham so'z bo'lmasligi kerak!

— Xo'p, juda soz! Demak, sakkiz-u o'tizda — Zoologiya institutida uchrashguncha xayt.

U men bilan xayrlashib, qo'lini silkib qoldi. Men qip-qizil yonog'larga, qop-qora to'liqsimon soqoliga, yonib turgan ko'zlariga so'nggi bor tikildim-da, uyidan chiqdim.

BESHINCHI BOB

Bu hali fakt emas

Professor Chellenjernikiga qilgan birinchi tashrifimda olgan jismoniy zarba ta'sir qildimi, ikkinchi tashrifimda uchragan ma'naviy iztirob sababidami, ishqilib, ko'chaga yana chiqishim bilanog reportyor sifatida o'zimni o'jiz-u notavon sezdim. Miyam og'riq zo'ridan otilib ketay deydi, lekin bu odam to'g'ri gapiryapti, fikrlarining ahamiyati nihoyatda bebahodir, u aylagan faktlardan maqolamda foydalansam, gazetamiz katta shov-shuvga sabab bo'ladigan materialga ega bo'ladi-da, degan o'ylar ongimni tinimsiz parmalardi. Muyulishda izvoshni ko'rishim bilanog unga yugurib chiqib oldim-da, redaksiyaga ravona bo'ldim. Mak-Ardl har qachongidek o'z postida edi.

— Xo'sh, galay? — qichqirdi u sabrsizlik bilan. — Ayta qoling, sizga necha satr kerak? Yigitecha, turqingizdan xuddi jang to'ppa-to'g'ri maydonidan kelayotgan kishiga o'xshaysiz, a. Nahotki mushlashuvsiz ish bitmagan bo'lsa?

— Ha, avvaliga biroz cho'qishib oldik.

— Xo'b odam-da! Xo'sh, keyin-chi?

— Keyin aql-u hushini yig'ishtirib oldi, tinchgina suhbatlashdik. Biroq men undan hatto kichkinagina maqolachaga yetadigan ma'lumot ham ola olmadim.

— Nega unday deysiz? Ko'zingizni chiqargani maqolaga material bo'lmaydimi axir? Qutqu solib, bizlarga istibdod o'tkazib kelayotgani yetar endi, mister Meloun! Uning adabini berib qo'yamiz. Ertagavog gazetaga shunday achchiq

maqola qo'yamanki, uni o'qib yonib ketsin. Menga materialni bersangiz bas, u yog'ini o'zim boplayman, bu nusxani umrbod esidan chiqmaydigan la'natlarga giriftor qilay. „Professor Myunxgauzen“ – qalay, bu sarlavhaga nima deysiz? „Tirilgan Kalistro!“¹ Tarix bilgan jamiki qalloblar-u tovlamachilarni eslab o'tamiz. U o'zining hamma mutahamgarchiliklari uchun mendan oladiganini oladi!

– Men bunday qilishingizni maslahat bermasdim, ser.

– Nima uchun?

– Chunki Chellenjer mutlaqo muttaham emas.

– Qanaqasiga! – bo'kirdi Mak-Ardl. – Iye, siz ham uning mamontlar, mastodontlar, dengiz ajdahlari haqidagi yolg'on-yashiq hikoyalarga chippa-chin ishonadingizmi deyman?

– Be, qayoqda? Bular haqida gap ham bo'lgani yo'q.

Lekin endi menga shu narsa mutlaqo ayonki, Chellenjer fanga biror narsa qo'sha oladi.

– Unday bo'lsa, nimani o'ylab o'tiribsiz? O'tiring-u, maqolani yozing.

– Men-ku jon deb yozgan bo'lardim, lekin bor-da, professor menga sir saqlash majburiyatini yuklagan, shu shart bilan suhbatlashishga rozi bo'ldi. – Men olim bilan bo'lgan suhbat mazmunini ikki-uch og'iz so'z bilan izhor qildim. – Mana, ko'rdingizmi, ahvol qanaqa?

Mak-Ardlning qiyofasi uning gapimga aslo ishonmayotganini ifodalardi.

– Unda, mister Meloun, o'sha majlis bilan shug'ullanamiz, – dedi u nihoyat. – Axir, bunda hech qanday sir-asror yo'qdir. Boshqa gazetalarda bunga qiziqmasa kerak, chunki ular Uoldron ma'ruzalari haqida yuz martalab yozishgan,

¹ *Kalistro* – XVIII asrning „Sehrgari va ko'zbo'g'lovchisi“, jin va ro'yolarni xaloyiq huzuriga chaqirib hammani mahliyo qilgan.

unda Chellenjering nutq so'zlashi to'g'risida esa hech kim hech nimani bilmaydi. Omadimiz kelsa, kata shov-shuva sazo'vor bo'ladigan materialga ega bo'lamiz. Nima bo'lsa ham institutga boring-da, menga batafsil hisobot yozib keling. Soat o'n ikkigacha siz uchun butun bir ustumni saqlab turaman.

Bugun ishim ko'p bo'lgani uchun klubda barvaqt tushlik qilib olishga qaror qildim, stolchamga Tarp Genirini taklif qilib, unga sarguzashtlarimni qisqacha so'zlab berishga ahd qildim. Uning o'zg'in chehrasidan ishonchsizlikni anglatuvchi tabassum arimadi, professor o'zining haqligiga meni ishonrganiga iqror bo'lganida, Tarp o'zini tuta olmay baralla xaxolab yubordi.

– Aziz do'stim, bunaqa mo'jizalar tabiatda bo'lmaydi! Bu qanaqasi, odamlar tasodifan buyuk kashfiyotlarga duch kelishsin-da, keyin hamma ashyoyi-dalillarni yo'qotib qo'yishsin? Bunaqa yolg'on-yashiqarni to'qishni roman yozuvchilarga qo'yib beravering. Sizing professoringiz hiyla-yu nayrangda ustasi farang, zoologiya bog'idagi hamma maymunlarni yo'lda qoldirib ketadi. Axir, bularning hammasi borib turgan bema'nilik-ku!

– Amerikalik rassom-chi?

– Ichidan to'qib chiqargan.

– Uning albomini o'z ko'zim bilan ko'rdim-ku!

– Bu Chellenjering albomi-da.

– Demak, sizningcha, rasmini ham o'zi chizgan ekan-da!

– Albatta-da! Kimniki bo'lishi mumkin yana?

– Fotosuratlar-chi?

– Ularda hech nima ko'rilmaydi-ku. O'zingiz ham aytdingiz, faqat bir qushnigina zo'rg'a payqab oldim deb.

– Perodaktil qushini.

– Ha, agar uning so'zlariga ishonilisa. Siz salobatiga mahliyo bo'lib, chippa-chin ishongansiz-da.

– Suyaklar-chi?

– U birinchisini qassob tashlagan suyaklar ichidan olgan, ikkinchisini esa boplab o'zi yasagan. Buning uchun chapdastlik hamda soxtalashirib do'ndirmoqchi bo'lgan narsang ga oid bilimga ega bo'lsang yetarli: suyak ham, fotsurat ham o'xshaydi-qoladi.

Men o'zimni qo'yarga joy topolmay qoldim. Chindanam meni laqqa tushirgan bo'lsa-ya? Qo'qisidan miyamga baxtli bir fikr kelib qoldi.

– Siz shu leksiya borasizmi? – so'radim undan.

Tarp Geni birmimutcha o'ylanib qoldi.

– Sizing daho professoringiz Chellenjer uncha obro'shuhuratga ega emas, – dedi u. – Ko'p olimlar undan o'chlarini olish payida yurishadi. Butun Londonda jirkanihissini qo'zg'atadigan boshqa birov topilmaydi, desam xato bo'lmas. Agar leksiya medik-studentlar darsdan qochib kelib qolishsa bormi, ko'rasiz mashmashani. Yo'q, meni bu jinixonaga borigim kelmay turipti.

– Har qalay, unga tan bering-da, nutqini bir tinglab ko'ring.

– Xayr, mayli, adolat ham shuni talab qiladi. Yaxshi, bugungi oqshom majlisida sizniyam hamrohingiz bo'la qolay. Biz Zoologiya institutiga yetib kelganimizda, leksiya yig'ilgan odam kutilganidan ham ko'pligini ko'rib hayratda qoldim. Elektr aravalar institut darvozasi oldiga ketma-ket kelishib, oq sochli professorlarni tushirib ketyapti, kamtar xaloyiq vakillari esa ravoqsimon eshiklardan tiqilib kirishayotgandi; bu hol zalda faqat olimlar emas, keng xalq ommasi vakillari ham qatnashuvidan dalolat berardi. Haqiqatan ham, biz joyimizga o'tirishimiz bilanog galereyadagilar va oxirgi qatordagilarning o'zlarini ancha erkin tutayotganliklarini sezdik. Organga qaragan edim, ko'zim student yoshlarga tushdi. Atfidan, hamma yirik kasalxonalar o'zlariga kelgan praktikanlarni yuborishganga o'xshaydi. Yig'ilgan xaloyiq xushvaqt ko'rinadi, ammo uning

zamiyda allaqanday shumlik yashiringandek edi. Hamma jo'r bo'lib, mashhur qo'shiqlardan parchalarni ehtiros bilan jo'shib aytardi, ilmiy leksiyaning bu g'alati debochasi ajib bir shukuh baxsh etardi zalga! Izdihomning beparda hazil-mutoyibaga moyilligi yaqqol sezilib turardi. Bu hol keyinchalik mazkur hazillar bevosita qaratilgan kishilardan boshqa shaxslarga qanchadan qancha ermak, ko'ngilochar kayfiyat bag'ishlardi.

Masalan, sahnada o'zining mashhur soyaboni – egik silindr qalpog' kiygan doktor Meldram paydo bo'lishi bilanog har tomondan „Zo'r chelak ekan-da!“, „Uni gayerdan topdingiz?“ kabi qichqiriqlar yangradi. Chol shu zahotyoq silindrini boshidan olib, odamlarga bildirmay kursi tagiga yashirdi. Podagra kasalligiga muhtalo professor Uedli o'z joyiga qiytanglab borayotganida, hazil-kashlar uni rosayam izza qilib, jo'r bo'lishib: „Professorning oyog'idagi jimjillog'i og'rimayapimikin?“ – deb so'rashdi. Lekin mening yangi tanishim bo'lmish professor Chellenjerni hammadan ham zo'r kutib olishdi-da. U o'zining joyiga – birinchi qatorning oxirgi kreslosiga – yetib olishi uchun butun sahnani aylanib o'tishi kerak edi. Eshikdan uning qora soqoli ko'rinishi bilanog zal ahli shunday gulduros qichqiriqlar bilan kutib oldiki, men Tarp Genining gumoni tasdiqlanadi, deb o'yladim: xaloyiq bu yerga leksiyaning o'zi uchungina emas, balki taniqli professorni ko'rib qolish imkoniyatidan bahramand bo'lish uchun ham tashrif buyurgandi; Chellenjerning nutq so'zlashi haqidagi mish-mishlar har yoqqa tarqalgan ko'rinadi.

U paydo bo'lishi bilanog yaxshi kiyingan zotlar o'tirgan oldingi qatorlardan istehzoli kulgilar eshittildi – bu safar parterda o'tirganlar studentlarning bebooshliklariga xayrixohlik qildi. Xaloyiq professor Chellenjerni bamisoli zoologiya bog'idagi yirtqich hayvonlar ovqat beruvchi xizmatchining qadamini uzogdan eshitib, qat'aslarini bosh-

lariga ko'tarib pishqirgandek, quloqlarni qomaga ketilruvchi qiy-chuv bilan kutib oldi. Bu qiy-chuvlar orasida hurmatsizlantiruvchi sadolar ham eshitilib turardi, lekin professor sha'niga ko'tarilgan shovqin-suron yoqtirmaslik yoki jirkanish hissidan ko'ra ko'proq unga bo'lgan qiziqishni bildirardi. Chellenjer akillab-akillab quvayotgan itvachehalar xurujiga duch kelgan muloyim kishidek xush tabassum bilan horg'in jilmayganicha sekingina kursisiga o'tirdi, yag'tinlarini rosladi, hafsala bilan sogolini silab-silab qo'ydi-da, ko'z qirini tashlab, vigortli nigohini liq to'la zalga tikdi. Sahnaga rais, professor Ronald Marrey va lektor mister Uoldron chiqishganda qiy-chuv hamon tinmagan edi. Majlis boshlandi.

Ko'pchilik inglizlarga tekkan kasal – nutq no'noqligi nuqsoni professor Marreyda ham bor, desam u kishi xafa bo'lmalar degan umiddaman. Menimcha, bu nuqson asrimizning jumboqlaridan biri bo'lib turibdi. Nima uchun ichida gapi ko'p odamlar dona-dona qilib gapirishni o'rganmog'ni xohlamaydilar? Bu shu qadar bema'nilikki, aytaylik, qimmatbaho suyuqlikni qiy'nalmay quyish mumkin bo'lgani holda aylanma kranli naydan silqitib olishdek gap. Odamni xit qilib yuboradi.

Professor Marrey o'zining oppoq galstugini vigor bilan tuzatdi, suv solingan grafmni ko'rinarli joyga surdi, so'ng o'ng qo'li tomonda turgan katta shamchiroqqa hazilomuz ko'z qisib qo'ydi-da, taniqli lektor mister Uoldronga o'mini bo'shatib, o'zi kursisiga cho'kdi. Zal notiqni qarsaklar bilan kutib oldi. Mister Uoldroning turqi sovuq, tovushi keskin, qiliqlari takabburona ko'rinsa ham, u birovlarining fikrlarini yaxshi o'zlashtirib olib, omilarga ham tushunarli va hatto maroqli tarzda bayon qilishga usta edi; eng nobop mavzularga oid dokladlarini ham ko'plab hazil gaplar bilan boyitib o'qirdiki, uning talqinidagi kecha-kunduz baravarli-

gi jarayoni¹ yoki umurtqalilar evolutsiyasi haqidagi fikrlar ham kulg'ili tarzda bayon qilinardi.

Lektor ko'z oldimizda, ilmiy terminlar ko'p bo'lishiga qaramay, sodda va ko'pincha maroqli tasviri tarzda xuddi qush parvozi nuqtasidan ko'rinarlyotgandek qilib, olarning paydo bo'lishi lavhalarini ko'rsatib berdi. U yer kurrasi haqida – samo doirasida yallig'lanib harakat qilayotgan bu ulkan nurafshon gazdan iborat massa haqida gapirdi. So'ng u mazkur massaning soviy boshlaganini, qanday qilib yer qatlamlari paydo bo'lganligi, bug'ning suvga aylangani to'g'risida hikoya qildi. Bularning hammasi keyinchalik sayyoramizda yuz beradigan g'aroyib tomoshalar uchun sahnani tayyorlashdek bir gap edi. Mister Uoldron Yerdahayotning paydo bo'lishi masalasiga o'tarkan, bir necha noaniq, ta'sirsiz gaplar bilan cheklandi. Qariyb ishonch bilan aytish mumkinki, hayot kurtaklari Yer kurrasining dastlabki haroratiga dosh bera olmaydi. Binobarin, ular keyinroq paydo bo'lgan. Qayerdan? Sovib qotgan noorganik elementlardammi? Bo'lishi mumkin. Balki, hayot kurtaklari Yerga chetdan, allaqanday meteoridan keltirilgandir? Undaymasdir. Qisqasi, bu masalada donolarning donosi ham aniq bir narsa ayta olmaydi. Hozircha laboratoriyalarimizda organik moddadan noorganik modda yaratishga muvaffaq bo'lganimizcha yo'q. Bizning ximiya fanimiz jonli va jon-siz moddalarni bir-biridan ajratib turuvchi jar ustiga ko'priko'rmanagan emas. Lekin ko'p asrlardan beri katta kuch ustidan hukmronlik qilib kelayotgan tabiatning o'zi buyuk kimyogar bo'lib, balki biz qila olmagan ishlarni amalga oshirish unga nasib bo'lar. Bu masalaga oid boshqa gap aytishga ho-jat yo'q.

¹ *Kecha-kunduz baravarligi jarayoni* – astronomiya hodisasi bo'lib, bahorgi va kuzgi kecha-kunduz tengligi nuqtasi katta osmon doirasida. Quyosh harakatiga qarama-qarshi yo'nalishda yiliga taxminan 50°2" da harakat qiladi.

Shundan keyin lektor hayvonlar hayotining buyuk shajarasiga to'xtalib, uni bosqichma-bosqich – molluskalardan dengizdagi umurtqasiz darrandalardan tortib, sudralib yuruvchilardan baliqlargacha gapirib, nihoyat, tirik bola tug'uvchi kenguruga – barcha sutemizuvchilarning, ya'ni mazkur zalda o'tirganlarning bevosita ota-bobosiga yetib keldi. („Mayli, faraz qila qolaylik!“ – zalda skeptiklardan birining tovushi chiqdi.) „Mayli, faraz qila qolaylik!“ deb baqirgan qizil galstukli oilta yigitcha, men ham tuxumni yoritib chiqqanman, deb o'ylashga biror asosi bor-nga o'xshaydi, mayli, u agar majlisdan so'ng qolib, shakarguflorlik qilishga izn bersa, lektor bunday lutf-u karamli zot bilan tanishganidan xursand bo'lur edi. (Kulgi.) Buni qarang-a, tabiatda asrlar davomida yuz berib kelgan jaryonlar qizil galstukli oilta yigitchani yaratish bilan yakunlansa-ya! Lekin shunday jaryonlar ro'y berganmi o'zi? Bu jentimni evolutsiyaning pirovard hosilasi – ya'ni masalan, ijodning gultoji deysiz mumkinmi? Lektor qizil galstukli yigitchaning eng nozik hislarini haqorat qilish niyatida emas, lekin shunday bo'lsa ham, uning nazarida, koinotda bo'layotgan ulkan jaryonlar pirovard natijada ana shunday nusxaning yaratilishiga erishmaganda, o'zlarini oqlamagan bo'lur edi. Evolutsiyani barqaror qilgan kuchlar tugagani yo'q, ular harakatda davom etmoqda, biz uchun yangi-yangi mo'jizalar tayyorlamogda.

Mister Uoldron o'z muxolifini kulgi nayzasiga sanchib, mazax qilgach, o'tmish lavhalariga to'xtaldi, sayoz qumloqlarni yalang'ochlagan dengizlarning qanday quriganligini, ana shu sayozliklarda yashagan liqildog, ramaqijon holatidagi ilk jonzorlar to'g'risida hikoya qildi, dengiz tubining mavhumoti va ayniqsa yemishlarning mo'l-ko'lligi haydab kelirib, urchib ko'payishiga sabab bo'lgan turli dengiz darrandalari g'ujg'on o'ynagan qo'ltiqlar haqida so'zlashdi.

– Mana, muhtaram xonimlar va janoblar, bizga hamon dahshat soladigan kaltakesaklar o'shandan qolgan. Biz velldi yoki zolengofen¹ slanelarlari qatlamlarida ularning dahshatli skeletlarini ko'rganimizda qo'ruvga tushamiz. Baxtimizga, ular sayyoramizda birinchi odam paydo bo'lgunicha qirilib bitganlar.

– Bu hali fakt emas! – g'o'ng'illadi sahnada o'tirganlardan biri.

Mister Uoldron og'ir odam, buning ustiga tili o'tkir bo'lgani uchun uning gapini bo'lish xavf-xardan xoli emasdi, buni ayniqsa qizil galstukli jentimen yaxshi bilib oldi. Lekin keyingi luqma professorga judayam ahmoqona tuyulgan bo'lsa kerakki, u hatto gangib qoldi. Professor bannisoli ashaddiy bekonchidan² daki eshitgan shekspirshunos yoki Yer yassidir deb da'vo qiladigan johilga duch kelib qolgan astronom holatiga tushib, dovdirab qoldi. Mister Uoldron bir daqiqacha jim turgach, es-hushini yig'ishtirib, baland ovoz bilan dona-dona qilib, so'ngi gaplarini takrorladi:

– Baxtimizga, ular sayyoramizda birinchi odam paydo bo'lgunicha qirilib bitganlar.

– Bu hali fakt emas! – yana po'ng'illadi haligi tovush. Uoldron o'zidan keyingi qatorda o'tirgan Chellenjerga qarab qo'ydi. U bo'lsa kursiga yastanib olib, xuddi tush ko'rayotgandek ko'zlarini yumib, jilmayib o'tirardi.

– A, tushunarli! – Uoldron yelkalarini qisdi. – Bu mening do'stim professor Chellenjer-ku. – Uoldron ortiqcha izohning hojati yo'q, degandek zalni kuldirib qo'yib, bo'lingan leksiyasini o'qishda davom etdi.

¹ *Velldi va zolengofen slanelarlari* – dengiz qirg'oqlarida paydo bo'lgan, tarkibida juda ko'p o'tmish yodgorliklari saqlanib qolgan donador qattiq jismlar, ularda kaltakesak skeletlari koldiqlari ham uchraydi.

² *Bekonchilar* – Shekspirning hamma asarlarini ingliz filsofi Frensis Bekon yozgan degan fikr tarafdorlari.

Lekin ish shu bilan tugamadi. Dokladchi o'rimishning jinko'chalarida qanchalik adashib yo'l izlamasin, baribir almisoz davrlarda yashab yo'q bo'lib ketgan jonivorlar ustidan chiqaverdi, bunga javoban professor Chellenjering ko'krigidan boyagi sovuqon na'rasi otlaverdi. Zich bo'lib o'tirgan studentlar bu yog'ini bo'shashtirmasdi: Chellenjering qora soqoli silkinishi bilanog u og'zini ochishga ulgurmasidan baravariga: „Bu hali fakt emas!“ — deya qichqirishar, oldingi qatorida o'tirganlar esa: „Jim, betavfiqlar!“ — degan norozilik xitoblari ayitishardi.

Bunaga janglarda toblangan Uoldrondek tajribali lektor ham rosa gangidi. U jim turdi-turdi-da, keyin har so'zida tutilib-tutilib, allanimalarni valdiradi, avval aytgan gaplarini qaytarishga tushdi, uzun bir jumlani kelishtirilmay xunob bo'ldi va pirovardida hamma tartibsizliklar gunohkoriga xuruj qila ketdi.

— Juda ham haddan oshib ketdingiz-ku! — g'azab bilan o'shqirdi u ko'zlarini ola-kula qilib. — Professor Chellenjer, bunaga qabihona va ahmoqona qichqirishlarni bas qiling!

Zal jim bo'lib qoldi. Studentlar hayratdan qotib qolishdi — oliy zotlarning o'zlari ko'z oldilarida janjal boshlasha-yotgandi-da! Chellenjer shoshmaygina vazmin gavdasini kursi og'ushidan bo'shatib, o'rniidan turdi.

— Men esam, mister Uoldron, o'z navbatida, sizdan ilmfan dalillariga zid keladigan fikrlarni tasdiqlashni bas qilishingizni so'rayman, — dedi u.

Bu so'zlar chinakam bo'ronga sabab bo'ldi. Shovqin-suron, askiya-kulgi orasida „Bema'nlik!“, „Mayli, gapirsini!“, „Uni bu yerdan haydash kerak!“, „Sahadan yo'qolsini!“, „Bu adolatdan emas — gapini aytib bo'lsini!“ kabi g'azabli xitoblar yangrardi. Ana shunday to's-to'polon, qiy-chuv g'ovuri orasida „professor Chellenjer... marhamat qilib... fikrlaringizni izhor etarsiz... keyin...“ kabi uzug-yuluq

iboralar qulogga chalindi. Tartibbuzar raisga ta'zim qildi-da, iljayib, soqolini silagancha yana kursisiga o'tirdi. Bu dahanaki jangda jig'ibiyroni chiqqan Uoldron yana jangga xezlanib, leksiyasini davom ettirdi. U bir qoidani bayon qilib bo'lgach, muxolifga yeb qo'ygudek bo'lib qarar, u esa kursiga yastanib olgancha jilmayib, huzur qilib mudrayotganga o'xshardi.

Mana, leksiya ham tugadi — nazarimda, ancha vaqtliroq tugatdi shekilli, chunki uning oxirini yunalog-yostiq qilib qo'ya qoldi, bosh qismi bilan bog'lanmadi. Qo'pol shovsin-suron lektorning fikrlarini ostin-ustun qilib yubordi. Izdihom qonigmadi — mashmashaning davomini kutar, vogealar rivojini istardi.

Uoldron joyiga o'tirdi, rais allanima deb ming'irlagan edi, professor Chellenjer o'rniidan turib, sahnaning chetiga keldi. Gazetamizning manfaatini ko'zda tutib, uning nutqini qariyb so'zma-so'z yozib oldim.

— Xonimlar va janoblar, — dedi u oxirgi qatordagilarining shovqinini bosib. — Meni kechirgaysizlar, xonimlar, janoblar va bolalar. O'zim istamagan holda tinglovchilarning kattagina qismini esdan chiqarib qo'yibman. (Zalda shovqin. Professor shovqin tinishini kutarkan, katta-kon boshini tasalli berayotgandek liqillatib, bir qo'lini baland ko'tarib turardi, go'yo xaloyiqni muruvvatidan bahramand qilayotgandek ko'rinaradi.) Menga siz bilan bitga hozirgina eshitgan bag'oyat xushtasvir va maroqli ma'ruza uchun mister Uoldronga tashakkur ayitish taklif etildi. Bu ma'ruzaning ayrim tezislariga men qo'shilmayman, bu haqda fursatni o'tkazmasdan o'z fikrimni yo'l-yo'lakay bayon qilib bordim. Shunga qaramay tan olish kerakki, mister Uoldron sayyoramiz tarixini, aniqrog'i, sayyoramiz tarixi deganda nimani tushunishini hammabop va maroqli bayon etib berishdek vazifani uddaladi. Hammabop ma'ruzalar yengil singadi, lekin... (Chellenjer

shu yerda saxovatli jilmayib, lektorlarga qarab qo'ydi), albatta, bunday ma'ruzalar bayon qilinishi jihatidan hamma vaqt yuzaki va ilm-fan nuqtayi nazaridan sifatsiz bo'ladi, binobarin, lektor hamma qilib bo'lsa ham nodon tinglovchilarga moslashishi kerakdir, desam mister Uoldron meni kechirar, albatta. (Joylardan kinoyaviy xitoblari eshitiladi.) Ilmi ommalashtiruvchi lektorlar, sirasini aytganda, haromtomqlardir. (Jahli chiqqan Uoldron qo'lini silkiib noroziligini bildiradi). Ular boylik oltirish yoki o'zlarini reklama qilish maqsadida nomi chiqmagan, muhtojlikda zabun bo'lgan hamkorlarining asarlaridan foydalanadilar. Laboratoriyada bunyod etilgan eng arzimas bir yangilik ham fan qasrini tiklash uchun qo'yilgan g'ishtlardan biridir, ana shu narsani u tarozidan olib, bu taroziga solib, birovlarining ishlarini ko'pirtirib maqayveradi. Bu gaplar biror soatcha ermak bo'lsa ham, aslida, hech qanday durustroq natija bermaydi. Hammaga ma'lum bo'lgan bu haqiqatni aytishdan maqsadim, aslo mister Uoldronning xizmatlarini kamitish emas, illo sizlar mezonni yo'qotib, bu malayni fanning oliy dar'asi deb yurmanglar tag'in, deb ogohlantirib qo'ymogchiman, xolos. (Shu on Mister Uoldron raisning qulog'iga allanima deb shivirlagan edi, u o'rindan turib oldidagi grafiinga qarab bir nechta achchiq-chuchuk so'z qotdi.) Xo'p, bu haqda yetar. (Tasdiqlovchi gulduros sadolar.) Endi menga ijozat bergaysizlar, ahamiyati ko'pchilikning e'tiboriga sazovor masalaga o'tsam. Men mustaqil, kamtarin bir tadqiqotchi sifatida, lektorimizning ma'ruzasidagi qaysi joylarga e'tiroz bildirishga majbur bo'ldim? Men Yer yuzidan ba'zi jonzo'rlarning yo'q bo'lib ketayotgani haqida so'z borgan xususida to'xtalmogchiman. Men dietant emasman, shuning uchun bu yerda ommalashtiruvchi sifatida gapiraryoganim yo'q, balki ilm-fan kishisi bo'lganim uchun, halol vijdonim faktlarga qat'iy amal qilishimni taqozo etadi. Shuning

uchun ham qat'iy ravishda ta'kidlaymanki, mister Uoldron tariximizgacha bo'lgan ba'zi jonivorlar deb atalgan maxluqlar Yer yuzidan g'oyib bo'lgan, deb aytganida, qat'iq yangilishganini pisanda qilib qo'ydim. Uoldron ularni ko'rmagan, lekin bu hali hech narsani anglatmaydi. Ular haqiqatan ham, lektor aytganidek, bizning ota-bobolarimiz, lekin ular ota-bobolarimizgina emas, balki, ayni vaqtda, qo'shib qo'yayki, ular turfa jirkanch ko'rinishlarga ega bo'lgan zamondoshlarimiz hamdir. Ular istiqomat qiladigan joylarga boradigan kishidan sabr-qanoat, chidam-matonat talab qilinadi. Biz yura davriga mansub deb atagan jonivorlar, biz sutemizuvchilar sirasiga kiritadigan juda katta yirtqich hayvonlarni ham tilka-pora qilib, yutib yubora oladigan dahshatli maxluqlar hozir ham mavjud... („Bo'lmagan gap! Isbot qiling! Siz qayerdan bilasiz? Bu hali fakt emas!“ kabi qichqiriqlar eishtiladi.) Sizlar mendan so'rayapsizlarni, men buni qayoqdan bilalar ekanman? Men buni shuning uchun ham bilamanki, o'sha jonivorlar yashaydigan joylarda o'zim bo'lganman. Bilaman, chunki o'sha maxluqlarni ko'rganman-da... (Qarsaklar, quloqni qomatga keltiradigan shovqin-suron ko'tariladi, allakim: „Yolg'onchi!“ — deb qichqiradi). Memmi yolg'onchi? (Hamma yakdillik bilan „Ha, ha!“ — deydi.) Meni yolg'onchi degandek bo'lishdimi? Shundoq degan odam o'rindan tursin-chi, qani, men uni bir ko'rib qo'yay. (Zaldan sado: „Mana u, ser!“ — Shu on ko'rinibildan beozorgina, ko'zoynak taqan mittigina odam o'zini ko'rsatganlarni kuchining boricha do'pposlagancha studentlarning boshlari uzra uchib o'tidi.) Meni yolg'onchi deyishga jur'at etgan sizmi? (Mitti odam: „Yo'q, ser!“ — dedi-yu, masxaraboz qo'g'irchoqdek lip etib olomon ichiga sho'ng'ib ketdi.) Bu yerda hozir bo'lganlarning birotasi mening haqligimiga shubhalanayotgan bo'lsa, mahramat, majlisdan keyin u bilan jon deb subtalasha-

man. („Yolg'onchi!") Kim aytdi bu gapni? (Yana haligi beozor qurbon zulmkorlarini bor kuchi bilan do'pposlagancha tikka ko'tariladi.) Mana men hozir sahnadan tushaman-da, keyin... (Hamma bir ovozdin: „Marhamat, do'stim, marhamat!" – deya qichqirib majlisi bir necha daqiqacha bo'lib qo'yadi. Rais dik etib o'rnidan turib, xuddi diriyorlardak qo'llarini o'ynatadi. Professor fig'oni falakka chiqib, soqolini burab turipti, yuzi qip-qizarib, burnining kataklari kerilib borardi.) Hamma buyuk novatorlar johil olomonning hech narsani tan olmasligini bilardilar. Ishonchsizlik – ahmoqlar peshonasiga urilgan tang'a! Oyoqlaringiz ostiga buyuk kashfiyotlarni tashlashganda, ular haqida mulohaza yuritish uchun sizlarda his qilish qobiliyati ham, tafakkur muhofazasi ham yetishmaydi. Fanning yangi-yangi jabhalarini zabt etish uchun jonini tikib fidoyilik qilganlarni balchiqqa qorish bo'lsa sizlarga! Sizlar payg'ambarlarni ham ayamaysizlar! Gallei, Darvin va men... (Zalni davomli qichqiriqlar bosib ketadi, qiy-chuv, tartibsizlik avjga chiqadi.)

Bu gaplarni men voqea sodir bo'lgan joyning o'zida shosha-pisha qayd qilib qo'ygan daftarchandan topib oldim, lekin ular o'sha paytda zalda yuz bergan to's-to'pilon haqida to'la tasavvur bera olmaydi. Shovqin-suroning kuchligidan ayrim xonimlar juftakni urib qolishdi. Shovqin-suroning zo'ridan studentlarga emas, tup-pa-tuzuk odamlar ham sarosimaga tushishdi. Hatto mo'ysafid chollarning joylaridan sapchib turib, xuddi qarmoqqa ilingan baliqdek tipirchilayotgan professorga mushklarini do'laytirishayotganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Juda ko'p odamni ichiga olgan olomon qaynab turgan qozondagi suvdek biqirlar edi. Professor bir qadam oldinga chiqdi-da, qo'llarini ko'tardi. Bu odamning kuchi va matonati shu qadar zo'r ediki, uning buyruqomuz shiddatli harakatlari va hukmbardorlarча chimirtilishi baqiroqlarni sekin-asta rom

qilib, bosib oldi. Zal suv quygandek jimib qoldi-da, notiqni tinglashga shaylandi.

– Vaqingizni ko'p olmayman, – davom etdi Chellenjer. – Bekorga vaqtini ketkazish shartmi? Haqiqat haqiqatigicha qolaveradi, uni ahmoq yoshlarning va afsus bilan qo'shimcha qilib aytamanki, ba'zi kap-katta jentlmenlarning ahmogona beboshliklari toptay olmaydi. Yana ta'kidlaymanki, men ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun yangi maydon ochdim. Sizlar buni shubha ostiga olyapsizlar. (Hamma qichqiradi.) Kelinglar, bir tajriba qilib ko'raylik. So'zlarimning rostligini tekshirish uchun oralaringizdan bir kishini yoki bir necha vakilni saylanglar, shunga rozimisizlar?

O'iyosiy anatomiya professori mister Sammerli, badjahl, basharasining sovuqligi uni ruhoniylarga o'xshatib qo'ygan maynov chol o'rnidan qo'zg'aldi. Chol: „Professor Chellenjening bayonotini uning ikki yil muqaddam Amazonka daryosining yuqori oqimiga qilgan safari natijalari deb qarash joizmi, shuni bilmogchiydim?" – dedi. Professor Chellenjer tasdiq ishorasi qilib boshini liqillatdi.

Keyin mister Sammerli professor Chellenjening Uolles, Beyts kabi chinakam shuhrat qozongan boshqa olimlar tadqiq qilgan joylarda yangi kashfiyot qilishga qanday muayassar bo'lganligini bilmogchi bo'ldi.

Professor Chellenjer bu gapga javob berib, mister Sammerli, atfidan, Amazonkani Temza bilan almashitirayotgan bo'lsa kerak, dedi. Amazonka daryosi Temzadan judayam katta, mister Sammerliga ma'lum bo'lg'aykim, Amazonka unga bog'langan Orinoko irmog'i bilan ja'mi ellik ming kvadrant mil maydonni tashkil etadi. Shuning uchun ham bunday katta maydonda bir tadqiqotchi o'zidan ilgari tekshirish olib borganlarni sezmay qolishiga ajablanmasa ham bo'ladi.

Mister Sammerli nordon narsa chaynagandek basharasini bujmaytirib jilmayib, Temza bilan Amazonka o'rtasidagi firq menga ravshan, birinchisi haqidagi har qanday fikrni

osongina tekshirish mumkin, ikkinchisi haqida esa bunday deb bo'lmaydi, degan ma'noda e'tiroz bildiradi. U mabodo professor Chellenjer tariximizdan avvalgi zamonalarning maxluqlari uchraydigan joy nechanchi kenglik va uzunlikda yotganligini ko'rsatib bersa, undan benhoya minnador bo'lajagini izhor etdi.

Professor Chellenjer unga javoban bunday ma'lumotlarni ma'lum qilishdan shu chog'gacha tiyilib keldim, bunda jiddiy asoslarim bor, lekin hozir, albatta, ba'zi shartlar bilan – majlis ahli saylagan vakillar komissiyasiga aytishga tayyorman, dedi. Balki, mister Sammerlning o'zi shu komissiya hay'atiga kirib, professor Chellenjerning fikrlari to'g'riligini shaxsan tekshirib ko'rarmikin?

Mister Sammerli. Ha, roziman. (Gulduros qarsaklar.)

Professor Chellenjer. Unday bo'lsa, men sizlarga o'sha yerlarga yetib olishda yordam beradigan zarur materiallarning hammasini berish majburiyatini zimmaniga olaman. Biroq mister Sammerli meni tekshirib ko'rishni ixtiyor qilgan ekan, uni ham kimdir tekshirib ko'rsa adolatdan bo'lur edi deb hisoblayman. Sizlardan yashirib o'tirmayman, sayohat juda qiyin, xavfli va og'ir bo'ladi. Mister Sammerliga yoshroq hamroh zarur. Balki, mana shu zalda xohlovchilar topilib qolar?

Kishining hayotidagi burilish mana shunaga kutilmaganda yuz beradi-qo'yadi! Mana shu zalga qadam qo'yar ekanman, eng g'aroyib, yetti uxlab tushimga ham kirmagan sarguzashtlar arafasida turganimni bilibmanni! O, Gledis! Bu qiz shular haqida gapirmabmide? Gledis bunday jaso-ratga jazm etishimga oq yo'l tilagan bo'lur edi-ya. Men dik etib o'rmin dan turdim. So'zlar o'z-o'zidan tilimdan chiqib ketaverdi. Yonimda o'tirgan Tarp Genri hadab etagimdan tortib, shivirlardi:

– O'tiring, Meloun! Sofdil xaloyiq oldida ahmoqlik qila ko'rmanj!

O'sha daqiqaning o'zidayoq oldingi qatorlarning birlidan baland bo'yli, mallarang bir kishining o'rnidan turganini ko'rib qoldim. U ko'zlarini chaqchaytirib menga olaqarash qildi, ammo men taslim bo'lmadim.

– Rais janoblari, men borishni xohlayman, – deya takrorladim.

– Ismini aytisin! Ismini! – talab qilardi xaloyiq.

– Mening ismi-sharifim Eduard Dan Meloun. „Deyli gazeti“ning reportyoriman. Xolis guvoh bo'lishga so'z beraman.

– Sizning ismingiz-chi, ser? – murojaat qildi rais mening muxolifimga qarab.

– Lord Jon Rokston. Men Amazonkada bo'lganman, u joylarni yaxshi bilaman, binobarin, o'z nomzodimni taklif qilish uchun hamma asoslarim bor.

– Lord Jon Rokston jahonga mashhur sayyoh va ovchi sifatida tanilgan, – dedi rais. – Lekin bu ekspeditsiyada matbuot vakili ham qatnasha durust bo'lardi.

– Shunday ekan, – dedi professor Chellenjer, – men taklif qilamanki, mazkur yig'ilishimiz mening so'zlarim to'g'riligini tekshirish maqsadida safarga chiqadigan professor Sammerliga hamrohlik qilish vakolatini shu ikki jentlmenga bersin.

Bütün zal qiyqirig va qarsaklar bilan bizning taqdirimizni hal qildi va men bundan buyon qismatim nima bo'lishini bilmaganim holda o'zini eshikka urgan olomonga qorishib keldim. Ko'chaga chiqqach, xuddi tush ko'rayotgandek xaxolab yo'laklarni to'ldirib borayotgan xaloyiqqa ko'zim tushdi, o'rada esa og'ir soyabon tutib olgan, hamon studentlar boshi uzra yurgan allakimning issiqgina qo'lga duch keldim. So'ng sho'x yigitlarning quvnoq qichqiriqlari va aziyat chekkanlarning fig'oni kuzatib qolgan professor Chellenjerning elektr aravasiga nazarim tushdi, shundan keyin Gledis to'g'risida, kelajakda meni nimalar kutayotgani

haqidagi xayollarga g'arq bo'lgan Rident-stridan olg'a ravona bo'ldim.

Birdan allakim tirsagimdan ushladi. Unga yuzlangan zahotim ro'paramda boyagi naynov, ozg'in kimsa — men bilan g'aroyib ekspeditsiyaga birga borishga otilib chiqqan kishining menga istehzoli va amirona tikilib turgan nigohiga duch keldim.

— Agar yanglishmasam, mister Melounsiz? — dedi u. — Bugundan boshlab biz siz bilan o'rtog' bo'lamiz. Men bu yerdan ikki qadam narida, Olbenida turaman. Balki, yarim soat vaqtigingizni mendan darig' tutmassiz? Men ba'zi nasalar haqida siz bilan gaplashib olmoqchiman.

OLTINCHI BOB

Meni Xudoning g'azabi deydi

Lord Jon Rokston Vigo-stritga burildi-da, biz birin-ketin bir necha devorlari bir holatda bo'lib yotgan darvozaxonani ortda qoldirib, aristokratlarning bu mashhur ini — Olbeni ichkarisiga kirib bordik. Uzun qop-qorong'i koridorning oxiriga yetganda, yangi tanishim eshikni itarib ochdi-da, chiroqni yoqdi. Yorqin soyabonlar ostidagi lampalar katta-kon xonani qirmizi nurga to'ldirdilar. Ostonadan u yoq-bu yoqqa qararkanman, xonadon sohibining didi nafisligiga, jihozlarning shinamligiga, ayni chog'da bu yerda mardona kayfiyat hukmronligiga amin bo'ldim. Bunday vaziyat badavlat xona sohibining o'tkir, nafs didi bilan bo'ydoqlik tartibsizligi o'rtasida tinimsiz kurash borayotganligidan dalolat berardi. Polga, altidan, allaqanday sharq bozorlaridan olib kelingan, kamalakning hamma ranglarida tovlanib turadigan, mo'ylari o'siq terlar-u gilamlar to'shalgan. Devorlarga osib qo'yilgan suratlar va gravyuralarning qimmatbaholigi hatto bu masalalarda omi bo'lgan menga ham

ravshan edi. Bokschi, raqqoslar va poygachi otlarning fotolari o'tkir hissiyotli Fragonarning polotmolari, Jirardening jang lavhalari va xayolparast Ternening¹ rasmlari bilan yonna-yon, bagamti turardi. Lekin bu serhasham jihozlarning orasida lord Jon Rokstonning zamonamizdagi mashhur ovchi va sportchilardan biri ekanligidan shahodat beruvchi boshqa narsalar ham bor edi. Kamini pechka ustiga aygash-tirib qo'yilgan to'q-zangori va qizil ikki eshak uning Oxford universitetida eshakda suzish sporti bilan shug'ullanganidan dalolat bersa, ularga yonna-yon osib qo'yilgan qilichlar va boks qo'lqopchalari ularning sohiblari bu sohalarda ham sovrindor bo'lganligi dalolat edi. Butun xonani esa xuddi arxitektura hoshiyasidek qilib o'tragan, dunyoning turli chekkalaridan keltirilgan yirik hayvon boshlarining tartibli gatori bezab turardi, bu ajoyib kolleksiyaning gultoji — lablari do'rdog' dimog'dor noyob oq karkidonning boshi edi.

Xona o'rtasidagi mo'ydor qip-qizil cho'g'dek g'illam ustida Lyudovik XV davrida ishlangan oltin hal bilan bezatilgan antiqa qora stol turardi. Bu noyob osori atiq kufrovii bir tarzda qadahlarning izlari, chekilgan sigaralarning cho'g'lari bilan ko'rimsiz holga keltirilgandi. Stol ustida chekish ashyolari qo'yilgan kumush patnis, yargillama shisha qo'yadigan taglik turibdi. Miq etmas sohib uzun-uzun ikki qadahga may quyib, ustiga sifondan sodali suv quydi. Qo'li bilan kursi tomon ishora qilib, qadahlarni stolcha ustiga qo'ydi-da, menga uzun, usit yaltiroq sigarani uzadi. Keyin ro'paramga o'tirib olib, xuddi tog' ko'lidek jimirlayotgan g'alati ko'm-ko'k ko'zlarining nayzasini menga qadadi.

Sigara tutunining yupqa pardasi aro ko'pina fotosuratlardan menga tanish chehrasiga tikildim — o'sha qirg'iy-

¹ Fragonar (1732-1806), Jirard — fransuz rassomlari, Ternier (1775-1851) — yirik ingliz tasviriy san'at ustasi.

burun, ichiga botgan chakak yonoqlar, manglayida siyraklasha boshlagan sap-sariq soch, piliqdek burama mo'ylov, kichkinagina, sho'xchang cho'qqisogol. Uning qiyofasida Napoleon III dan ham, Don Kixotdan ham, sportni, it va otni yaxshi ko'radigan tipik ingliz jentlmenidan ham allagan-day belgilar bor edi. Quyosh bilan shamollar uning terisini chiniqitirib qip-qizil qilib yuborgandi. Sermo'y, pastga osilib tushgan qoshlari usiz ham farishtasiz ko'zlarini yanada g'azabnok qilib yuborgandi, peshonasini tutib ketgan ajinlar esa uning nigohini yana-da badihl qilib ko'rsatardi. Qomati oriqdan kelgan bo'lsa-da, chayir, baquvvat. Tinib-tinchimaslikda, jismoniy baquvvatlikda Angliyada uning oldiga tushadigan odam topilmasligi bir necha bor isbotlangan. Olti fut kelishiga qaramasdan, ko'rinishidan o'rta bo'yli odamga o'xshardi, bunga uning biroz bukiriligi sabab edi.

Taniqli lord Jon Rokston ana shunday kishi edi. U hozir menga diqqat bilan tikilgancha sigara chekib, bahuzur, qimir eimay o'tirar, oramizdagi cho'zilib ketgan noqulay jimgi churq etib buzishga botinmasdi.

— X-xo'sh, — dedi u nihoyat, — endi bizga chekinish mumkin emas, aziz navqiron do'stim. Ha, biz siz bilan haddan tashqari baland dorga osildik. Axir, siz zalga kirganingizda miyangizda bunaqa fikrning urug'i ham yo'q edi-ku, a?

— Bunaqa narsa xayolimning ko'chasiga ham kelmagandi. — Xuddi shunday. Mening ham xayolimga kelmagandi. Endi biz siz bilan bu botqoqqa qulog'imizdan botdik. E Xudo-yey, Ugandadan qaytib kelganimga bor-yo'g'i uch hafta bo'luvdi-ya, Shotlandiyada kottejni ijaraga o'ldim, shartnoma tuzdim, shunga o'xshagan mayda-chuyda ishlarni qilishga ulgurdim, xolos. Endi bu dardisar ishning chiqib turganini qarang! Sizning ham rejalarangiz barbod bo'lgandir?

— Yo'q, mening kasbim o'zi shunaqa; axir, men jurnalistman-ku, „Deyli — gazet“da ishlayman.

— Ha-ya, albatta, aytuvdingiz buni. Men sizga aytсам, bir ish bor... Yordam berishdan bosh tortmasangiz kerak?

— Jonim bilan.

— Lekin qaltisroq ish... Rozilik berishdan oldin o'ylab ko'ring.

— Nimasi qaltis?

— Men sizni Billinger huzuriga olib boraman, shuni qaltis-da. Siz bu odam haqida eshitganmisiz?

— Yo'q.

— Aftv etgaysiz, yigitcha, qaysi go'laxda tug'ilgansiz o'zingiz? Ser Jon Billinger — eng yaxshi chavandozimiz-ku. Tekis yo'l bo'lsa, u bilan bemalol bellasha olaman, ammo to'siqli poygada u meni goldirib ketadi. Lekin shuni ham borki, Billinger mashqlar tugashi bilan mukkasidan ichkilikka beriladi. Buni uning tilida „yo'lni to'g'rilab olish“ deyiladi. Seshanba kuni jazavasi jumbishga kelib, kasali tutib qolguncha ichdi. Uning xonasi naq mening tepanda. Vrachlar boyaqishni zo'rlab bo'lsa ham ovqatlanitirmasa, o'lib qolishi turgan gap, deyishadi. Uning xizmatkorlari ishtashlash e'lon qilishipti, chunki karavotida to'punchasini o'qlab yotganmish, oldimga birinchi bo'lib kirganga olti ta o'qni qoqaman, deb qo'rtqilarmish. To'g'risini aytganda, umuman Jon gapga kirmaydigan gaysar odam, buning ustiga bexato otadi, lekin Katta milliy sovrinni olgan chavandozning xor-u zor bo'lib o'lib ketishiga yo'l qo'yish mumkin emas-da! Siz bunga nima deysiz?

— O'zingiz nima qilmogchisiz?

— Eng yaxshisi ikkovimiz kirib, tappa bosamiz. Hoyna-boy, u hozir uxlab yotgan bo'lsa kerak. Juda yomon bo'lganida bittamiz yarador bo'larmiz, ikkinchimiz uni bosib olamiz-ku. Uni divanning jildi bilan bog'lab o'lsak bas, darrov telefon qilib, oshqozon dorisi beradigan dok-

torni chagiramiz, muolajadan keyin, biznikida, tozayam miriqib ovqatlanardi-da.

Inson boshiga birdaniga, he yo'q-be yo'q, shunday savdo – og'ir vazifa tushsa, dovditrab, xursandchilikni ham unutilib qo'yarkan. Men o'zinni botir deb hisoblamayman. Hamma yangi, ko'rilmagan narsalar tafakkurimda haqiqatdagsidan tamomila o'zgacha tarzda namoyon bo'lardi. Sof irlandiyaliklarga xos jo'shqin tasavvurning holi shunda. Ikkinchi tomondan, qo'rqoq degan sharmandali ayb-nomani menga taqashmasa deb qo'rqib yurardim, chunki yoshligimdan qo'rqoqlikdan ham dahshatli narsa yo'q deb uqtirishgandi menga. Kimki mening jasurligimga shubha qilgudek bo'lsa, o'zinni jordan tashlashga ham tayyor-man, deysizga jur'at etaman, lekin meni dadillikka undagan narsa, botiriligim emas, balki mag'rurligim va qo'rqoq nomini olib qolishdan qo'rqishidir. Shuning uchun ham yuqoridagi xonada itdek ichib aqlidan ozib yotgan maxluqni xayolan ko'z oldimga keltirarkanman, o'z layoqatimga ko'ra, qo'rslik bilan roziligimni izhor qilishga botina oldim. Lord Rokston oldimizda turgan vazifaning xavfli jihatlari tasvirlashga kirishgan edi, bu gaplar toqatimni battar toq qilib yubordi.

– Gap bilan ahvolni yengillashtirib bo'lmaydi, – dedim. – Qani yuring-chi!

Men o'rminan turdim, u ham ortimdan qo'zg'aldi. So'ng xixilab qo'ydi-da, ko'kragimga mushini nuqib, joyimga qaytarib o'tiqzdi.

– Xo'p dedik, yigitcha... ishga yaraydi desa ham bo'ladi. Men hayrarda angrayib unga tikilib qoldim.

– Bugun ertalab Jon Billigerning oldiga o'zim kirgan edim. U otgan o'q choponimni teshib o'tdi, xolos, – Xudoga shukr, qo'llari qaltirayotgan ekan! Lekin biz, har qalay, uni jilovlab ololdik, bir necha haftadan keyin qariya yana otdak bo'lib ketadi. Siz mendan xafa emasiz, qo'zichog'im?

Gap o'rtamizda qolsin-u, Janubiy Amerikaga qiladigan bu ekspeditsiyamiz juda jiddiy ish, shuning uchun hamrohim tog'dek metin, unga suyanish mumkin bo'lishi kerak. Shu sababi men sizni yengilgina sinab ko'rdim-da, ayitishim kerakki, siz undan juda yaxshi o'tidingiz. Hamma og'irlik ikkimizning ustimizga tushadi, chunki bu cholg'a Sammerli-ga birinchi qadamlardanog enaga kerak bo'lib qoladi. Aytguncha, siz anavi regbi bo'yicha birinchilikda o'ynaydigan Irlandiya komandasining a'zosi emasizmi?

– Ha, lekin aniqrog'i zahiradagi o'yinchiman.

– E, shunaga deng, sizni gayerdadir ko'rgandek bo'luvdim-a. Sizlarning richmonliklar bilan uchrashuvlaringiz – butun mavsumning eng yaxshi o'yini bo'lgandi! Men regbi musobaqalarining bitasini ham qoldirmay ko'rishga harakat qilaman, chunki bu – sportning eng mardona turi. Biroq men sizni regbi to'g'risida suhbatlashish uchun taklif etganim yo'q, aslo. Mana bu yerda, „Tayms“ning birinchi betida kemalar qatnovi reyklarining ro'yxati bor. Paraga! boradigan kema chorshanba kuni jo'naydi, mabodo professor bilan oltanib olishga ulgursalaring, shu kema bilan jo'naymiz, Xo'sh, rozimisiz? Yaxshi, u bilan o'zim ham-ma narsa to'g'risida kelishib olaman. Asbob-anjomlaringiz taxtmi?

– Bu haqda mening gazetam qayg'uradi.

– Otishni bilasizmi?

– Taxminan, mamlakatimiz qo'shinlarining o'rtaacha bir o'qchisichalik ota olaman.

– Faqat shuning o'zimi? E Xudo! Otishni bilish siz yoshlarning eng oddiy ishingiz-ku. Sizlar hammalaring naysasiz bolarisizlar. Bunaqalar o'z inlarini qo'riqlay olmaydi! Mening gapimni esingizda tuting: sizlarning inla-

¹ Para – Shimoliy Irlandiyadagi port-shahar.

ringizdan bol olgani birov kelgudek bo'lsa, angrayib o'ti-raverasizlar-da! Janubiy Amerikada qurolni mohirlik bilan ishlata bilish kerak bo'ladi, chunki do'stimiz professor yolg'onchi va ovsar bo'lmasa, uning gaplariga qaraganda, uyloqlarda bizni g'aroyib narsalar kutadi. Qanaqa miltig'i-ningiz bor?

Lord Rokston eman shkaf oldiga keldi-da, eshigini och-di, men shu on bannisoli organning naylari kabi qator qilib terib qo'yilgan miltiqlarning yaltirab turgan metallarini ko'rdim.

– Hozir ko'ramiz, o'z aslahaxonandagi qaysi miltiqni sizga tortiq qilsam ekan? – dedi lord Rokston.

U ketma-ket biri biridan yaxshi miltiqlarni ola boshladi, zatvorlarini shaqirlatib ko'rar, mehribon ona o'z bolalarini silab-siypagandek ehtiyotlik bilan changlarini artar va ohis-ta joyiga qo'yardi.

– Mana „blend“. Shu miltiqdan otib anavi ulkan max-luqni qulatganman, – u oq karkidonning boshiga ishora qildi.

– O'n qadamcha yaqinroq bo'lganida bu hayvon o'z kolleksiyasini men bilan boyitgan bo'lardi.

O'q – umidim erur hamesha

O'q zaifga yordamchi – peshva.

Gordonni yaxshi tanirsiz deyman? Bu shoir otni, miltiqni hamda shu ikki narsani yaxshi biladigan kishilarni madh etadi. Mana, yana bir ajoyib narsa – teleskopli mo'ljallash apparati – ikkiyoqlama ejektor, nishonni aniq mo'ljalga oladi. Uch yil burun men mana shu miltiq bilan Peru qul-furushlariga qarshi kurashgan edim. O'sha yoqlarda meni Xudoning g'azabi deyshardi, garchi nomini birorta Ko'k kitobdan topolmasangiz ham, u yoqlarda mashhur edik. Qo'zichog'im, o'z izzat-nafsimizni yerga urmaslik uchun,

har birimiz inson huquqlarini, adolatni himoya qilishga majbur bo'ladigan vaqlarimiz keladi. Shuning uchun men o'sha yerlarda o'limni, xavf-xatarni pisand qilmay, jang olib borgandek yurdim. Urushni o'zim e'lon qilardim, o'zim urushardim, o'zim oxiriga yetkazardim. Mana bunda-gi har bir chiziq – men o'ldirgan bittadan muradni bildiradi. Qarang – uzun narvon bo'lib tushgan bu chiziqlar! Undagi eng katta chiziqni Putumayo daryosi girdoblaridan birida eng katta qulfurush Pedro Lopesni otganimdan keyin o'yib yozganman... Manavini ham sizga ma'qul bo'lsa kerak.

U shkafdan kumush bezakli ajoyib miltiqni oldi.

– Mo'ljalni nihoyatda aniq oladi, magazinida beshta o'q. Unga bema'lol o'z hayotingizni ishonavering.

Lord Rokston miltiqni menga uzatib, shkafni yopdi.

– Ha, aytganday, – dedi u yana kursiga o'tirarkan, – shu professor Chellenjer haqida nimalarni bilasiz?

– Men uni birinchi marta shu bugun ko'rib turishim.

– Men ham. Rostini aytganda, siz bilan biz mutlaqo no-tanish odamning so'zi bo'yicha sayohatga jo'nashimiz juda g'alatir-ya? U borib turgan surbetga o'xshaydi, ilm-fan ahli, hamkasabalari orasida ham obro'si bo'lmasa kerak. Nega siz u bilan qiziqib qoldingiz?

Men bugun ertalab ro'y bergan voqealarni qisqacha so'zlab berdim. Lord Rokston gaplarimni diqqat bilan ting-ladi, keyin Janubiy Amerika xaritasini olib kelib, stol ustiga yozdi.

– Chellenjer to'g'ri aytayapti, rost gapiryapti, – dedi u jiddiy ravishda. – Sezgan bo'lsangiz kerak, men tavakkal-liga buni tasdiqlayman. Janubiy Amerika – men sevgan mamlakat va aytaylikki, Daren qo'ltig'idan to Olovli Yer-gacha tikka borilsa, Yerimizda undan ulug'vorroq, un-dan go'zlarroq manzilni topish qiyin. Bu mamlakatni kam bilishadi, uni qanday kelajak kutayotgani hech kimning xayoliga ham kelmaydi. Men Janubiy Amerikani bo'yiga

ham, eniga ham ikki marta kezib chiqdim, qurg'oqchilik yillari ikki marta bo'lganida, qulfurushlar bilan urush olib borgandim, bu haqda boya sizga gapirib berdim. Haqiqatan ham professor aytganga o'xshash rivoyatlarni eshitgandim. Bular, albatta, hindularning afsonalari bo'lsa ham, lekin ular zamirida nimadir bor. Janubiy Amerikani qanchalik yaqindan bilsangiz, do'stim, bu mamlakatda hamma narsa, ha, hamma narsa yuz berishi mumkinligiga ishonch hosil qilasiz. Odamlar tor-tor daryochalardan yurishadi, ular qayoqqa olib borishini Xudoning o'zi biladi. Manavi joyda, Matu Grossu yassitog'i bag'irlarida, — u sigara bilan xaritaga ishora qilib, o'sha joyni ko'rsatdi, — yoki manavi uch davlat chegarasi tutashadigan burchakda hech kim meni hayratga sola olmadi. Bugun Chellenjer, Amazonka daryosi tropik o'rmonlar bilan qoplangan elliptik ming kvadrat mil yerni, ya'ni qariyb butun Yevropaga teng keladigan maydonni sug'oradi, dedi. Lekin biz siz bilan Braziliya changalzorlaridan chiqmagan holda Shotlandiya bilan Konstantinopol orasidagi masofada turgan bo'lishimiz mumkin. Yog'ingarchilik davrlarida nimalar bo'lishini bilsangiz edi?! Amazonka suvi kamida qirq fut ko'tarilib, hamma yoqni o'tib bo'lmaydigan botqoqqa aylantirib yuboradi. Mana shunday mamlakatdagina har qanday mo'jiza va sirlarga duch kelish mumkin. Nima uchun bu jumboqlarni biz yechmas ekamiz? Bular kabi ko'pgina sir-sinoatlardan tashqari, — lord Rokstonning g'alati chehrasi xushtabassum bilan yorishdi, — u yerda har qadamda hayoting xavf osida bo'ladi, menga sportchi bo'lganim uchun bundan boshqa narsa kerak emas-da. Men bamisoli golf to'piman — sirtimdagi qizil rang allaqachon o'chib bo'lgan, endi meni hayot xohlagan tomoniga otaversa ham bo'laveradi, hech yerim tirmalaymay-diyam. Tavakkal qilish, aziz do'stim, borliq hayotimizga allaqanday joziba, jo'shqinlik baxsh etadi. Shuning uchun

ham yashash maroqli. Bizlar judayam erka bo'lib ketdik, zanglab qoldik, farog'arda yashashga o'rganib qolganmiz. Yo'q, menga miltiq bering, bepoyon kenglik, hadsiz ufqni ravo ko'ring-da, izlab topish lozim bo'lgan narsani qidirib ketishimni tomosha qiling. Umrmda nimalar qilmadim deng: urushdim ham, stachkalarda qatnashdim ham, aeroplanda ham uchdim, lekin og'ir ovqat yeb qo'yib uxlagandagina tushga kiradigan dahshatli maxluqlarni ovlash nashidasi — men uchun mutlaqo yangi hissiyotdir. — U oldinda nimalar kutayotganini o'ylab qahqah urib kulib yubordi.

Balki, men yangi tanishimni tavsiflashga ortiqcha urtib ketgandirman, lekin axir biz u bilan ko'p kunlar birga bo'lishimiz kerak, shuning uchun ham bu odam haqidagi ilk taassurotimni batafsil, xarakteri, nutqi, fikrlari va boshqa jihatlarini ipidan ignasigacha aytib berishni istayman. Redaksiyaga hisobotni tezroq eltib berish zarurati bo'lmaganida lord Rokston bilan shirin suhbatimizni aslo buzmasdim-a. Rokstonning uyidan chiqib ketayotganida u lampaning qirmizi yog'dusiga cho'milganча kursida o'tirib olib, sevimli miltig'ining zatvorini tozalarkan, taqdir boshimizga solajak sarguzashtlar haqida mulohaza yuritib, miyig'ida kulimsirar edi. Bizni xavf-xatar kutayotgan ekan, butun Angliyada lord Rokstondan bo'lak sovuqqon va jasur hamrohni topa olmasam kerak, degan qat'iy fikrni miyamga tugib, redaksiyaga jo'nadim.

Shu kunning ajoyib hodisalari tinkamni rosa quritgan bo'lishiga qaramay, „So'ngi xabarlar“ bo'limining muharriri Mak-Ardl bilan uzoq o'tirib qoldim. Unga bo'lajak safarimizning hamma shart-sharoitlarini tushuntirdim, u bo'lsa mazkur ma'lumotlarni boshlig'imiz ser Jorj Bomonga etragayotgan yetkazish lozim deb hisobladi. Biz shunga kelishdik: men sarguzashtlarimiz haqida batafsil yozib turadigan, ular esa Mak-Ardlga xatlar shaklida olib

nishi bilan oq yoki keyinroq – Chellenjer ijizat berganidan so'ng bosiladigan bo'ldi, chunki bu noma'lum mamlakatga qiladigan sayohatimiz uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qanday shartlar evaziga berishini bilmasdik-da. Telefon qilib, undan shu haqda so'rasak, professoridan matbuotni bo'ralab so'kishdan boshqa narsa eshitmadik, biroq keyin, har qalay, bizning jo'navdigan kunimiz va soatimiz xabar qilinsa, u lozim deb topgan ko'rsatmalar-ni kema-ga yetkazib beraman, deb aytdi. Bizning ikkinchi so'rovimiz mutlaqo javobsiz qoldi, unga javoban missis Chellenjening erini ortiqcha bezovta qilavermanglar, o'zi shundoq ham haddan tashqari qahr-u g'azabga to'lib turibdi, deya zorlanib shipshiganini eshidik, xolos. O'sha kuni qilingan uchinchi urinish quloqni qomatga keltiruvchi tarq-turuv bilan bo'lindi, tez orada markaziy telefon stansiyasi professor Chellenjening apparati singanini ma'lum qildi. Shundan keyin biz u bilan gaplashishga harakat qilmay qo'ya qoldik.

Endi, bardoshi kitobxonlarim, siz bilan suhbatimni to'xtataman. Bundan buyon (bu hikoyaning davomi biror-tangizga qachonlardir yetkazishga muvassar bo'lin-sa), siz-lar mening keyingi sarguzashtlarimni faqat gazeta orqali bilasizlar. Men jahon bo'ylab eng ajoyib ekspeditsiyalar-ning biriga sabab bo'lgan voqealar haqidagi hisobotlarni muharririga topshiraman va mabodo Angliya-ga qaytib ke-lish menga nasib qilmasa, nimalar bo'lganini o'zlaringiz tushunarsiz.

Men o'z hisobotimni „Fransisk“ kemasining salonida yozib tugatmoqdaman. Lotsman uni olib qo'yadi-da, saqlab qo'yish uchun mister Mak-Ardlga topshiradi. Pirovardida shuni aytayki, hali yozuv daftrimini yopishimga ulgurmay turib, yana bir manzarani – vatanim haqidagi so'nggi xotiralar qalbimda qolganidan dalolat beruvchi manzarani ba-yon qilishga ijizat bergaysizlar.

Kechikkan bahor, rutubati tumanli tong, muzdek, mayda yomg'ir shivalab turibdi. Yaltiroq makintosh kiy-gan uch kishi sohil bo'ylab yuribdi. Ular zangori bayrog'i ko'tarilgan ulkan kema-ga chiqiladigan zina tomon ravona bo'lishdi. Ularning oldilarida ham-mol chamadonlar, safar anjomlari o'ralgan bo'g'chalar, jildga solingan miltiq-lar yuklangan aravasini itarib bormoqda. Naynov, xo'mray-gan professor Sammerli xuddi qilib qo'ygan ishidan qatitq pushaymon kishidek boshini xam qilib, g'amgin ravish-da oyog'ini zo'rg'a sudrab bosyapti. Ovchilar shapkasini kiygan, sharf o'ragan lord Jon Rokston tetik qadam tash-lab boradi, uning jo'shqin, nafs chehrasidan baxtiyorlik nurlari sochilayotgandek. O'zimga kelganda shuni aytish kerakki, turish-turmushim quvonchimni izhor qilayotga-niga aslo shubha qilmayman, chunki jo'nash arafasidagi ovoragarchiliklar, xayrlashuvdagi mungli holatlar ortda qolgandi-da.

Biz kema-ga juda yaqin qolganimizda birdan allakim-ning tovushini eshitib, orqaga qaradik. Bu – bizni kuzatib qo'yishga va'da bergan professor Chellenjer edi. Qip-qizarib ketgan, o'lgudek jahli chiqqan professor pishillab orgamizdan chopib ketardi.

– Yo'q, sizlarga tashakkur aytaman, – deydi profes-sor. – Kema-ga chiqishga tariqcha ham istagim yo'q. Siz-larga bir necha so'z aytmoqchiman, bu ishi shu yerda qil-sa ham bo'ladi. Biz safarimiz bilan professor-ga katta in'om ato qildik deb xomtama bo'lmay qo'ya qolinglar, aslo. Bu-ning menga mutlaqo aloqasi yo'q, men o'zimni sizlarga burchimdan deb hisoblamayman ham. Haqiqat haqiqatig'i-cha qolaveradi, sizlar olib bormoqchi bo'lgan tekshiruv-lar bunga zig'ircha ham ta'sir qila olmaydi, nodonlarning ehtirolariga o't qo'yishi mumkin, xolos. Sizlarga kerakli ma'lumotlar va mening yo'l-yo'riqlarim manavi muhran-

gan konvertida. Sizlar uni Amazonka bo'yidagi Manaos shahriga yetganlaringizdagina ochasizlar, lekin konvertida ko'rsatilganidan bir kun ham, bir soat ham oldin ochmanglar. Gaplarimni tushundiringmi? Sizlarning halolliklaringga aminman, sizlar mening hamma shartlarimga aniq qilasizlar degan umiddaman. Mister Meloun, men sizning maqolalaringizni taqiqlash niyatida emasman, chunki sizlarning sayohatlaringiz ishning faktik tomonini aniqlashni maqsad qilib olgan. Faqat birgina narsani talab qilaman; gayerga borayotganingizni aniq ko'rsatmang, keyin ekspeditiya haqidagi hisobotni qaytib kelgunlaringcha e'lon qilishga ruxsat bermang. Xayr, ser! Afsuski, o'zingiz ham mansub bo'lgan la'nati kasb egalariга nisbatan qahrinni biroz yumshatishga muvaffaq bo'ldingiz. Xayr, lord Jon! Menga ma'lum bo'lishicha, fan siz uchun osondagi butga intilishdek gap. Lekin u joylarda ov qilib rohatlanasiz. Shubhasiz, vaqti kelib, „Ovchi“ jurnalida dimorfodoni¹ qanday olganingizni hikoya qiluvchi maqolangiz bosilib chiqar. Sizga ham xayr, professor Sammerli. O'z bilimlaringizni boyitish ustida ishlashdan tolmagan bo'lsangiz, ochig'ini aytсам, men bunga shubha qilaman, siz Londonga ancha aqlli bo'lib qaytasiz.

U ters burilib ketdi, bir daqiqadan so'ng kema palubasi-dan uning yerga qapishgan, odamlar orasini yoritib, poyezd tomon ketayotgan qomatini ko'rib qoldim.

Mana, La-Manshga ham chiqib oldik. Xatlarni topshirish vaqti bo'lganidan xabar beruvchi so'nggi qo'ng'iroq ham chalindi, Hozir biz lotsman bilan xayrlashamiz.

Endi: „Qani, chu kemam, olg'a suz!“ Hammamizni – qirg'ogda qolganlarni ham, uylariga eson-omon qaytib kelish umidida yurganlarni ham Xudo o'z panohida asrasin.

YETTINCHI BOB

Ertaga biz notanish mamlakatga jo'naymiz

Bu hikoyam yetib borgach, o'quvchilarni okeanda suzadigan komfortabel kemedagi sayohatimiz tafsilotlari, Para shahrida o'tkazgan bir haftamiz („Pereyrada – Pinta“ shirkatiga asbob-anjomlar sotib olishimiz uchun shunday qulay sharoitlar yaratib bergani uchun tashakkur aytishni joiz deb bilaman) haqida batafsil gapirib qiyab o'tirmayman, faqat keng, bo'tana, yalqovlanib oqadigan Amazonka daryosining yuqorisiga qilgan sayohatimiz to'g'risida, kichkinagina qayiqda Atlantika okeanini kesib o'tgan, ulkan kemada yurilgan masofadan qolishmaydigan uzoq yo'lni bosib qo'yganimizni qisqacha aytib o'taman, xolos.

Ko'p kunlik yo'l yurishlardan so'ng guruhimiz Obiduss darasidan o'tib, Manaos shahriga tushdi.

Biz unda Britaniya savdo shirkati agenti mister Shortmenning lutf-u karami bilan mahalliy mehmonxonaning juda shubhali mehmondo'stligidan bebahra qolishga muvaffaq bo'ldik. Biz Shortmenning mehmonshavanda gaisendasida¹ professor Chellenjer tutqizgan konvertida ko'rsatilgan muddat yetguncha turdik. Shu kunning kutilmagan voqealarini bayon qilishdan avval o'troqlarimni va ekspeditiya yumushlarini bajarish uchun Janubiy Amerikada biz yollagan kishilarni batafsilroq tavsiflamogchiman. Chunki, Mister Mak-Ardl, sizning andishali kishi ekanligingizga ishongan holda hamma narsani yashirmay-netmay ro'yi-rost yozayotirman, negaki bu material e'lon qilinguncha sizning qo'lingizdan o'tadi.

Professor Sammerlining ilmiy xizmatlari hammaga yaxshi ma'lum bo'lgani uchun ular haqida gapirib o'tirish-

¹ *Dimorfodon* – (dvuformozub) – uchuvchi kaltakesak.

¹ *Gaisienda* – yer-mulk, qo'rg'on.

ning hojati yo'q. Bunday og'ir ekspeditsiyaga u birinchi qarashda kutilganidan ham ko'proq moslashgan edi. Uning oriqlari, chayir g'avdasi charchash nimaligini bilmaydi, quruq, iste'zoli va ko'pincha betakalluf qiliqlari har qanday sharoitlarda ham o'zgarmay qoladi. Oltin besh yoshga to'lgan bo'lishiga qaramay, u har qadamda uchraydigan qiyinchiliklardan biror marta ham noilmadi. Avvaliga men professor Sammerli bizga og'ir yuk, dardisar bo'ladi-da, deb qo'rqgan edim, ammo keyinchalik ma'lum bo'ldiki, uning chidamliligi, sabr-qanoati menikidan aslo qolishmas ekan. Sammerli – qo'rs, hamma narsaga ishonchsizlik bilan qarovchi odam. U o'z fikrini, ya'ni Chellenjer – g'irt tovlamachi, bizning Janubiy Amerikaga qilgan bu ahmogona, xavfli safarimiz Janubiy Amerikada ko'ngilsizlikdan, Angliyada esa kulgidan boshqa narsaga arzimaydi, degan qat'iy aqidasi yashirishni lozim topmaydi. Professor Sammerli bu narsani Sautempton dan to Manaosgacha bo'lgan butun yo'l davomida basharasini xunuk bujmaytirib, siyrak echki soqolini selkillata-selkillata tinmay gapirib keldi.

Biz qirg'oqqa tushganimizda Janubiy Amerika parrandalar va darrandalar olamining ajoyibligi hamda boyligi unga biroz taskin berdi, chunki u tani-joni, butun vujudi bilan ilm-fanga berilgan edi. Endi professor Sammerli ovmilting'i va kapalak tutadigan matrapchasi bilan erta tongdan o'rmon kezadi, kechqurumlari esa tutgan nusxalarini dori-lab, yozib-chizib qo'yadi. Uning o'ziga xos g'alati qiliqlaridan ba'zilarining aytib o'tay: qachon qarasang soch-soqoli taralmagan, tashqi qiyofasiga qaramagan, parishonxotir bo'lib yuradi, g'alvirak toshdan yasalgan kalta trubkaga ruju qo'ygan, uni og'zidan qo'ymaydi. Professor yoshligida bir necha ilmiy ekspeditsiyada qatnashgan (masalan, Robertson bilan Avstraliyaga borgan), shuning uchun ham ko'chmanchilar hayoti unga yangilik emas.

Lord Jon Rokstonda professor Sammerlining ba'zi xislatlari bor, ammo, aslini olganda ular mutlaqo bir-birlarining aksidir. Lord Jon yigirma yosh kichik bo'lsa-da, uning ham badani professormikiga o'xshagan qovurib olingandek toblangan, qoqsuyakdan iborat. Men Londonda qoldirib kelgan qissamda uning tashqi qiyofasini batafsil tavsiflaganim esimda. U ozoda, o'ziga oro berib yuradi, odatda, oq kiyimda bo'ladi, oyog'ida baland poshnali ip taqiladigan jigarrang boshmoq, har kuni kamida uch marta soqolini qiradi. Lord Jon ishdan charchamaydigan har qanday odam kabi kangap, ko'pincha o'z o'ylariga g'arq bo'lib yuradi, ammo unga savol bilan murojaat qilsangiz, darrov javob bera qoladi, jon-dili bilan subhatga berilib ketadi, gaplar-ingizni hazil-mutoyiba lug'malari bilan bo'lib-bo'lib, totli qilib xushlab turadi. U turli mamakatlarga, ayniqsa, Janubiy Amerikaga oid bilimlari kengligi bilan kishini hayratda qoldiradi, bizning ekspeditsiyaga kelganda esa, u professor Sammerlining mazaxlariga parvo ham qilmadan, bu ishning maqsadga muvofiq ekanligiga butun qalbi bilan ishonadi. Lord Rokstonning ovozi mayin, xulq-atvori, qiliqlari yoqimli, lekin uning mo'tillab turuvchi ko'k ko'zlari ularning sohibi birdan quturib, shafqatsiz qaror chiqarishga qodirligidan shahodat berib turadi, uning odatdagi bosiqligi bu odam jabli chiqqanda naqadar xavfli bo'lishini ta'kidlaydi. U o'zining Braziliya, Peruga qilgan safarlari to'g'risida ko'p gapirishni yoqitmaydi, shuning uchun ham uning bu yerlarda paydo bo'lishi Amazonka qirg'oqlarida istiqomat qiluvchilarni shunchalik hayajonga solishini xayolimga ham keltirmabman. Bu odamlar lord Rokstonni o'zlarining ishonchli homiylari va huquqlarining himoyachisi deb biladilar. Mallasoch Dohiy to'g'risida (uni bu yerlarda shunday deb atashadi) afsonalar to'qilgan, lekin bu gaplarning chinligiga qadam-baqadam uchragan faktlar meni ishonitirib bordi, bu faktlar haqiqatan ham hayratomuz edi.

Masalan, ma'lum bo'ladi, bir necha yil burun lord Jon Braziliya, Peru va Kolumbiya o'rtasidagi chegara noaniqligi tufayligina mavjud bo'lgan „egasiz yerga“ kelib qoladi. Bu katta poyonsiz maydonda Kongodagidek mahalliy aholi boshiga tushgan kulfatlarga, ispanlar hukmronligi davridagi Daren kumush konlaridagi qullarning og'ir mehnatidan ham ziyod jabr-u jafolarga sabab bo'lgan kauchuk daraxti juda ko'p o'sardi. Bir guruh metislar muttahamlik qilib, bu katta viloyatni egallab olib, o'zlarini himoya qilishga rozi bo'lgan hindularni qurollantirdilar, qolganlarni esa odam bolasi chidamaydigan qiynoq-azoblar bilan qulga aylantirib, kauchuk daraxtlarini kesishga va daryo orqali Para shahriga jo'natib turishga majbur edildilar.

Lord Rokston baxtiqarolarga yordam bermogchi bo'luvdi, do'q-po'pisa, tahqir-haqoratlardan boshqa narsaga ega bo'lmadi, shunda u qulfurushlarning boshlig'i Pedro Lopes degan g'addorga qarshi urush e'lon qildi, qochoq qullarni yig'di, ularni qurollantirib, harbiy harakatlarni boshlab yubordi, buning natijasida zolim metis Pedro Lopes uning o'qidan o'ldi, bu g'addorning qullik sistemasi esa yo'qotildi.

Mayin ovozli, harakatlari yuqinmi bu mallasoch kishi Janubiy Amerikadagi buyuk daryo qirg'oqlarida istiqomat qiluvchilarning e'tiborini qozongandi. Aslini olganda, u qo'zg'agan hissiyotlar, kutilganidek turti-tuman edi, chun-ki mahalliy aholi unga mehr-muhabbat bilan qarasa, ularga zulm qilgan sobiq bosqinchilarning nafрати cheksiz edi. Braziliyada o'tkazilgan bir necha oy lord Rokston uchun befoyda bo'lmadi: u mahalliy lahjalarni yaxshi o'rganib oldi (bu lahjalarning uchdan biri portugalsa, uchdan ikkisi hindu so'zlaridan iborat edi).

Men ilgari lord Jon Rokstoing Janubiy Amerika haqida vaysashdan timmasligini eslatib o'tgan edim. Jon bu o'lka haqida gapirganida, shu qadar jazavaga tushib, beri-

lib so'zlardiki, hatto mendek bir nodonda ham mazkur mamakatga qiziqish uyg'onardi. Uning hikoyalari naqadar maroqli ekanligini tavsiflashdan o'ziman: gaplaridagi har bir narsaning aniq tasviri fusunkor fantaziya bilan omuxta bo'lib ketardiki, hatto professor Sammerli ham diqqat bilan tinglaganida uzunchoq aftidagi ishonchsizlik alomatlari sekin-asta so'nib borardi!

Lord Jon bizga ulug'vor daryo – Amazonkaning tarixini so'zlab berdi. Daryo, garchand uning qit'adagi bir uchidan oxirigacha suzib borgan dastlabki fothlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lsa-da, baribir qirg'oqlaridagi tor, doimo o'zgarib turadigan o'zani qo'ynidagi sir-u asrorlarini hamon yashirib kelayotir.

– U yoqda, narigi qirg'oqda nima bor? – xitob qildi lord Jon shimol tomonni ko'rsatib. – Botqoqliklar, o'tib bo'lmay changalzorlar. Ular qo'ynida qanday sir-sinoatlar borligini kim biladi? Huv u yoqda-chi, janubroqda? Odam bolasi oyoq bostmagan botqoqlik, to'qaylar. Atrofimizni noma'lum joylar qurshab olgan. Mana shu sohil yoqalab o'tgan torgina yo'lining naryog'ida bizni nima kutayotganini kim biladi deysiz? Qariya Chellenjer yanglishmadi deb kafil bo'lish mumkinmikin?

Professor Sammerli bunday gaplarni ro'yi-rost haqorat deb biladi: uning basharasida bezdek jilmayish paydo bo'ldi, boshini kinoyaviy tarzda sarak-sarak qildi, trubkasini so'rib pag'a-pag'a tutun chiqardi, betakalluf sukutini bir og'iz ham so'z bilan buzmasdi.

Ikki yaqin hamrohim haqida shu gaplarim yetar: ularning fe'l-atvorlari va kamchiliklari o'zimmikidek keyinchalik zohir bo'lar deyman. Yaxshisi keyingi voqealarda muhim rol o'ynashlari mumkin bo'lgan kishilar haqida so'zlab bera qolay.

Sambo degan devqomat negrdan boshlayman. Bu qora gerkules otdak ishlaydi, mehnatsevar, fahm-farosatda ham

oldek. Biz uni kemachilik shirkati tavsiyasiga ko'ra, Para shahrida ishga yolladik. U shirkatning kemalarida yura- verib, fikrlarini inglizchasiga bir amallab tushuntirishni o'rganib olgandi.

O'sha yerda, Parada Amazonkaning yugorisida qizil yog'ochlarni shaharga haydab kelish bilan shug'ullanadigan ikki nafar metisni ishga oldik. Ularning nomlari Gomes va Manuel. Ikkalasi ham qorachadan kelgan, soqol qo'ygan, ko'rinishidan badjahl, epehillikda, kuchlilikda ular oldida qoplon ham ip esha olmaydi. Gomes bilan Manuel butun umrlarini Amazonka havzasining biz tadqiq qilmogchi bo'lgan yugori qismida o'tkazishgan, shu tufayli lord Rokston ularni ishga olishga undagan. Metislardan biri, Gomesning yana bir fazilati bor: u ingliz tilida yaxshi so'zlashadi. Bu kishilar bizga xizmat qilishga rozi bo'lishdi: oyiga to'lanadigan o'n besh dollar evaziga ovqat pishirish, eshkak eshish kabi hamma yumushlarimizni bajarib berishadi. Ulardan tashqari biz yana boliviya hindulari ichida mohir baliqchi va eshkakchi sifatida shuhrat qozongan moyo qabilasidan uch kishini yolladik. Ularning kattasini biz shundayligicha Moyo deb atadik, qolgan ikkoviga Xose va Ferdinand degan nomlarni berdik. Shunday qilib, bizning kichkinagina ekspeditsiyamiz uch oq tanli, ikki metis, bir negr va uch nafar hindudan tashkil topdi. Ekspeditsiyamiz Manaosda o'z zimmasiga yuklangan shunday favqulodda vazifani bajarish uchun yo'lini davom ettirish borasidagi yangi yo'l-yo'riqlarni olishi kerak edi.

Nihoyat, yurakni siqadigan bir hafta ham o'tib, orziqib kutilgan kun va soat keldi. Manaos shahridan ikki milya masofadagi Sant-Ignasio gatsiyendasining nimqorong'i mehmonxonasini ko'z oldingizga keltiring-a. Tushirib qo'yilgan darpardalar aro sizib o'tayotgan quyoshning ko'zni oluvchi nurlari mis rangida tovlanadi, xurmolarining soyalari quyosh

yog'dusida shu daraxtlarning o'zlaridek aniq ko'rinadi. Qilt etgan Shamol yo'q havoda hasharotlarning nag'masi tinmaydi, ana shu tropik jonivorlarining ko'p ovozi xoriga asalarilarning g'o'ng'illashi, chivirlarning g'ing'illashi jo'r bo'lardi. Ayvonning u yog'idan kaktus nihollari bilan ihotlangan bog'da gullab yotgan o'to'lanlar uzra katta-katta zangori kapalaklar va mitti-mitti rangdor qushchalar g'uj'g'on o'ynaydi.

Qamishdan to'qilgan stol tegrasida o'tiribmiz, stol ustida esa muhrlangan konvert. Konvert ustiga professor Chellenjerning qo'li bilan aji-buji qilib quyidagi so'zlar yozilgan:

„Lord Jon Rokston va uning hamrohlariga.

Manaos shahrida 15-iyul kuni, soat rosa 12 da ochilsin“.

Lord Jon soatini stol ustiga, mening yonimga qo'ydi.

— Yana yetti daqiqaga bor, — dedi u. — Chol judayam aniq-likni yaxshi ko'radi.

Professor Sammerli tirjayib, oriqlar qo'lini konvertga uzatdi.

— Menimcha, farqi yo'q, hozir ochdik nima-yu, yetti daqiqadan keyin ochdik nima, — dedi u. — Bu ham o'sha, baxtiga qarshi, xat muallifga xos mashhur tovlamachilik va nozlanishning bir ko'rinishida.

— Yo'q, bunaqa o'yinni hamma qoidalariga amal qilgan holda o'ynagan ma'qul, — e'tiroz bildirdi lord Jon. — Bu ishga boshchilik qiladigan kishi — o'sha qariya.

Chellenjer, hammamiz bu yerlarga o'shanning iltifotiga muvofiq kelganimiz. Uning yo'l-yo'riqlarini aniq bajaramsak, yaxshi ish qilmagan bo'lamiz.

— E, Xudo urgul! — jahl bilan dedi professor. — Bu narsa meni Londonda ham xunob qilgan edi. Borgan sari juda haddan oshyapti! Bu konvert ichida nima borigini bilmayman, lekin safarimiz aniq belgilab berilmagan bo'lsa, o'sha zahotiyoc „Boliviya“ga o'tiraman-u, Paraga jo'nab

qolaman. Axir, bir vosvosning alahsirashini fosh qilishdan muhimroq ishlarim ham to'lib yotibdi. Qani, Rokston, vaqt bo'ldi endi.

– Ha, vaqt bo'ldi, – dedi lord Jon. – Signal berishingiz mumkin.

U galantarosh bilan konvertni ochib, undan ikki buklangan bir varaq qog'ozni olib, avaylab tekisladi-da, stol ustiga qo'ydi. Qog'oz bo'm-bo'sh edi. Lord Jon orqasini o'g'irib ko'rdi, bu yog'i ham top-toza edi. Biz hayron bo'lib bir-birimizga qaradik, jim bo'lib qoldik, lekin sukunatni professor Sammerlning istehzoi qalqahasi buzdi.

– Bu samimiy iqtomoma-ku! – xitob qildi u. – Yana nima kerak sizlarga? Bu odam muttahanligini o'zi tasdiqlab turibdi-ku. Endi biz uyga qaytib borishimiz, uning olchoq aldoqchiligini baralla aytishimiz kerak. U aslida ham aldoqchi edi.

– Siyohi zo'r ekan! – og'zimdand shu so'zlar chiqib ketdi.
– Unaqaga o'xshamaydi, – javob berdi lord Rokston qog'ozni yorug'ga tutarkan. – Yo'o'q, muhtaram yigitcha, o'zingizni aldashinging hojati yo'o'q. Kafimanki, bu qog'ozga hech nima yozilmagan.

– Kiritishga ruxsat eting? – ayvon tomondan allakimning do'rillagan ovozi eshitildi.

Birdan ochiq eshikdan tushgan to'rtburchak yorug'da bamisoli yerga qapishgan bir qomat ko'rindi. Ovozni ayt-maysizmi! Behad keng yag'riniarni-chi! Ro'paramizda bolarnikiga o'xshagan ola-bula lentali poxol qalpog, har qadam tashlaganda tumshug'i har yoqqa tarvaqaylab ketadigan parusina boshmoq kiygan Chellenjerning qomati lop etib ko'ringanda hammamiz o'rminizdan dik etib turing ketdik. U yorug' tushib turgan joyda to'xtab, qo'llarini kurkasining cho'ntaklariga suqqancha basavlat soqolini selkillatib, yarim yumuq qovoqlari ostidagi chag'ir ko'zlarini bizga tikdi.

– Qancha urinsam ham bir necha daqiqaga kechikdim, – dedi u cho'ntagidan soatini olarkan. Bu konvertni sizlarga berarkanman, ochig'ini aytсам, uni ochishga ulgurmasingizdan, muddatdan ilgari o'zim yetib kelishni niyat qilib qo'ygandim. Bu kechikishimning boisi lotsmanlarning o'ta-kegan landavurligi bo'ldi; aksiga olib, oldimizdan sayoz joy chiqib, kemamiz ushlanib qoldi. Hamkasabam professor Sammerliga so'kishi uchun beixiyor ajoyib imkoniyat tug'dirib bermadimmi deb qo'rqaman, xolos.

– Sizga ser, shuni aytib qo'yishni lozim topamanki, – dedi lord Jon jahl bilan, – sizning kelishingiz noxush ahvolni biroz yengillashtiradi, chunki biz hammamiz ekspeditsiyamiz muddatidan avval tugadi deb turgandik. Lekin shunga qaramay, shunday g'alati hazil qilishga sizni nima majbur etganiga tushuna olmay garangman.

Professor Chellenjer javob berish o'rninga stol yoniga keldi-da, qo'lini berib men bilan, lord Jon bilan ko'rishdi, professor Sammerliga bo'lsa, haqoratomuz ta'zim qilib qo'ygach, to'qima kursiga o'tirgandi, uning og'irligidan stol g'ijirlab, tebranib ketdi.

– Yo'lga tushishimiz uchun hamma narsalaring tayyormi? – so'radi u.

– Ertagayoq jo'nashimiz mumkin.

– Xuddi shunday qilamiz. Endi sizlarga hech qanday xaritaning ham, yo'l-yo'riqlarning ham keragi yo'o'q – yo'l-boshlovchilaringiz o'zim bo'laman, buning qadriga yeting-lar! Avvalboshdanok ekspeditsiyani o'zim boshqarmoqchi bo'luvdim, hatto eng batafsil xarita ham mening tajribam, mening rahbarligim o'rmini bosa olmasligiga o'zingiz ham amin bo'lasizlar hali. Konvert bilan bog'liq bu beozor hiylaning boisi shulkim, mabodo rejalarimning hammasini sizlarga oldindan oshkor qilib qo'yganimda bormi, ham-malaringizning bu yoqqa birga kelishim haqidagi talab va iltimoslaringni rad etguncha o'lib bo'lardim-da.

– Lekin mendan unday iltimosni kutmasdingiz, ser! – jo'shib xitob qildi Sammerli. – Butun boshli Atlantika okanida bundan boshqa kema qurib ketidimmi!

Chellenjer unga javoban jundor ulkan qo'lni silkitib qo'ya qoldi.

– Aql-idrokigingiz mening to'g'ri mulohazalarga amal qilib ish yuritayotganini tasdiqlab turibdi. Bu yerda zarur daqiqadagina paydo bo'lishim uchun erkin harakat qilish huquqimni saqlab qolishim kerak edi. Ana shunday daqiqa keldi. Endi sizlarning taqdiraringiz ishonchi qo'llarda. Sizlar manzilga yetib borasizlar. Bugundan boshlab ekspeditisiyaga o'zim rahbarlik qilaman. Sizlardan iltimos qilamanki, ertaga barvaqt yo'lga tushishimiz uchun bugunqo hamma narsani tayyorlab qo'yinglar. Mening vaqtim juda qimmatli, garchi menikidek bo'lmasa-da, sizlarning ham vaqtlaringiz qadrlil. Shuning uchun ham butun yo'lni tez fursatda bosib o'tishimiz kerak, marraga yetganimizda esa nima uchun bu yerlarga kelganimizni sizlarga ko'rsataman.

Lord Jon Rokston bir necha kun avval bizni Amazonkaning yuqorisiga olib borishi kerak bo'lgan „Esmeralda“ degan katta bug' katerini ijaraga olgan edi. Ekspeditisiyamizning jo'nashi uchun faslning hech qanday ahamiyati yo'q edi, chunki bu yerlarda qishin-yozin harorat yigirma besh o'ttiz daraja atrofida issiq bo'ladi. Yog'ingarchilik paytlari boshqa gap; bu davr dekabrdan boshlanib, maygacha davom etadi, daryo suvi sekin-asta odatdagidan qirg'ut yuqoriga ko'tariladi. Amazonka qirg'oqlaridan chiqib, ulkan maydonga toshadi, juda katta hudud botqoqlikka aylanadi; piyoda yursang botib qolasan, sayoz bo'lgani uchun qayiqda o'ta olmayсан. Iyunga borib suv kamaya boshlaydi, oktabr yoki noyabr oyida juda ham kamayib, eng past nuqtaga tushib qoladi. Ekspeditisiyamiz jo'nash payti xuddi mana shu paytga to'g'ri kelgandi, ulug'vor daryo o'zining hamma irmoqlari bilan qirg'oqlardan toshmaydigan palla edi.

Amazonkaning oqimi sekin, chunki o'zining qiyaligi bir milga sakkiz duymdan oshmasdi. Kemalar qatnovi uchun bundan ham qulay daryo bormikin o'zi dunyoda? Bu yerlarda shamol janubi-sharq tomondan ko'proq esadi, shu sababli Peru chegarasigacha parusli kemalar tezroq yetib oladi, qaytishda esa pastga oqim bo'ylab kelishadi. Bizing „Esmeralda“mizga kelganda esa, u mashina qismi soz bo'lgani uchun yalqov daryoga tobe emasdi, biz go'yo Amazonkada emas, turg'un suvda – hovuzda suzayotgandek edik. Dastlabki uch kun katerimiz shimoli-g'arb tomon, oqim bo'ylab yuqoriga yo'l oldi. Garchi Amazonkaning quyilish joyi bu yerlardan bir necha ming mil masofada bo'lsa ham, uning bu yerlari judayam keng bo'lgani uchun xuddi ufq bilan tutashib ketgandek ko'zga elas-elas ko'rinadi. Biz Manaus shahri qirg'og'idan suza boshlaganimizning to'rtinchi kuni Amazonka quyiladigan joyida uning o'zidan qolishmaydigan keng, lekin tez to'rayib boradigan irmog'iga burildik. Yana ikki kun o'tgach, biz allaqanday hindular qishlog'iga yetib keldik. Bu yerda professor bizni kemadan tushishga taklif etdi-da, „Esmeralda“ni orqasiga, Manaosga qaytarib yubordi. Hade-may daryo ostonasi boshlanadi, tushuntirdi u, katerning qiladigan ishi qolmadi. Muhim hufya gap aytgandek, biz noma'lum mamlakat ostonasiga yetib qoldik, binobarin, sirimizdan qanchalik kam odam voqif bo'lsa, shuncha yaxshi deb qo'shib qo'ydi. Shu maqsadda u har birimizdan ekspeditsiya boradigan yerning geografik joylashuvi to'g'risida yozma va og'zaki tarzda gullab qo'ymaslik haqida so'zimizni olgan, hamma xizmatkorlarga esa sirni oshkor qilmaymiz, deb gasam ichtirgandi. Mana shularning hammasi vogelarni bayon qilishimda ma'lum darajada ehtiyot bo'lishimni taqozo etadi va kitobxonlarni oghlantirib qo'yayki, qissamga ilova qilinishi mumkin bo'lgan xarita yoki chizmalarda ayrim shaharlarning koordinatlari emas,

balki ularning o'rtasidagi masofalargina ko'rsatilib bori-lishi maqsadga muvofiq va binobarin bu ma'lumotlardan Noma'lum mamlakatga suqulib kirish uchun foydalanish zinhor tavsiya etilmaydi. Professor Chellenjer o'z sirini bunchalik maxfiy tutishga urinishidan maqsadi nimaligini bilmasak ham, biz unga bo'yusinishga majbur edik, chunki u oldimizga qo'ygan shartning bir harfi ham buzilgudek bo'lsa, ekspeditiviyani barbod qilishi turgan gap edi.

Ikkinchi avgust kuni biz „Esmeralda“ bilan xayrlashdik, bizni madaniy olam bilan bog'lab turgan so'nggi ipni ham uzgandek bo'ldik. O'shandan buyon o'tgan to'rt kun mobaynida professor hindulardan ikkita katta qayiq yolladi. Ular bambuk karkasga hayvonlarning terisidan qoplab qilingani uchun juda yengil, shuning uchun zarurat tug'ilgan hollarda qo'limiz bilan ko'tarib qo'yishimiz mumkin edi. Bu qayiq'larga hamma asbob-anjomlarimizni joyladik, Ipetu va Ataka degan ikki hinduni qo'shimcha eshkakchilar qilib yolladik. Ular professorning avvalgi ekspeditiviyasida hamroh bo'lishgan ko'rinadi. Ikkalovi ham o'sha joy'larga yana jo'nash haqidagi taklifi eshitishgani hamono o'takalari yoritib dahshatga tushishdi, ammo hindularning odatiga ko'ra, qabila boshlig'i patriarxal hokimiyatidan foydalanishi tufayli, kelishuv unga manfaatli bo'lsa, qabila a'zolari hukmini muhokama qilib o'tirmasdi.

Shunday qilib, ertaga noma'lum mamlakatga jo'naymiz. Men birinchi maqolani yo'lda duch kelgan qayiq bilan yuboraman, ehtimolki, taqdirimiz bilan qiziquvchilar uchun bu biz haqimizdagi so'nggi darak bo'lsa ajab emas. Men bu xabarni kelishganimizdek, sizning nomingizga yuboryapman, azizim mister Mak-Ardl. Xatlarimni mayli qisqartiring, tuzating – ishqilib dilingizga ma'guli kelganicha tuzatavering, o'zingizga xos lutf-u nazokatga ishonaman.

Yo'lboshchimizning to'la ishonch bilan yelib-yugurishidan u o'zining haqligini amalda isbotlamog'chiga o'xshaydi va biz professor Sammerlining o'ta ishonchsizligiga qaramay, haqiqiy buyuk va hayratomuz voguealar arafasida turganimizga shubha qilmayman.

SAKKIZINCHI BOB

Yangi olam bo'sag'asida

Vatanimizdagi do'stlarimiz biz bilan birga shod-u xurram bo'lishsin – biz sayohatimizdan ko'zda tutilgan manzilga yetib keldik, endi ishonch bilan ayta olamanki, professorning fikr-u da'volari tekshirib ko'riladigan bo'ldi. To'g'ri, ekspeditiviyamiz hali yassitog' uzra ko'tarilganicha yo'q, lekin u shundog'ina oldimizda, yaqin, uni ko'rib, professor Sammerlining ham biroz popugi pasayib qoldi. U albatta muxolifning haqligi to'g'risidagi fikrni xayoliga ham keltirmaydi-ya, lekin bahslardan qochadi, ko'pincha xavotirlanib, miq etmay yuradi.

Biroq orgaga qaytib, hikoyamni uzilib qolgan joyidan davom ettiramman. Biz qo'lini qattiq shikastlab olgan bir hinduni uyiga qaytaryapmiz va men undan xat berib yuboryapman, lekin u tegishli yerga borib yetadimi-yo'qmi – bilmayman, bunga shubham juda katta.

Mening so'nggi yozuvim „Esmeralda“ kemasi bizni olib kelgan hindular qishlog'idan jo'naydigan kunimiz bitilgan edi. Bu safar gapni ko'ngilsiz hodisani bayon qilishdan boshlashga to'g'ri keladi, chunki o'sha oqshom gurubimizning ikki a'zosi o'rtasida birinchi jiddiy mojaro ehtiqlab, sal bo'lmasa fojiali tugay dedi. Professorlar o'rtasidagi doimiy to'qnashuvlar, albatta, hisobga kirmaydi. Men ingliz tilida so'zlasha oladigan metis Gomes haqida yozgan edim. U yaxshi xizmatkor, jonini jabborga berib

ishini do'ndiradi, biroq ko'pgina kishilarga xos bo'lgan bir illardan xoli emas. Biz qishloqdan ketadigan oxirgi kunimiz, aftidan, Gomes rejalarimiz muhokama qilinayotgan kulbaning bir yerida biqinib olib, gaplarimizni eshitgan bo'lsa kerak-da. Bizga itdek sodiq pahlavon Sambo o'z irqiga mansub hamma odamlar qatori metislarni o'lgudek yomon ko'rgani uchun ham uni sudrab kulbaga olib kirdi. Sambo kuch-quvvati benihoya zo'r bo'lgani uchun hamda qo'llining bir harakati bilan chapdastlik qilib qurolini olib qo'ymaganda, Gomes negri pichoqlab tashlagan bo'lardi. Biz ikkovini urishib-koyib, yarashitirib, qo'l olishishga majbur etdik, ish shu bilan tugashiga umid qilamiz. Bizning ikki olimimiz o'rtasidagi g'animlik esa pasayish o'rni toбора kuchayib, alangalanib bormoqda. Tan olish kerakki, Chellenjer o'zini nihoyatda behayolarcha tutmoqda, Sammerlining zaharli tili esa yarashitirishga aslo yo'l beradigan emas. Masalan, kecha Chellenjer, men Temza sohillarida sayr qilishni yoqirmayman, deb qoldi – buni qaranga, vaqti ke- lib insoniyatning eng so'nggi manzili bo'lib qoladigan bu joylarga qarasa, yuragi ezilib ketarmish. Professor, mening hokim Vestminster abbatligida dafn etilishiga zarracha ham shubham yo'q, devdi. Sammerli bo'lsa nordon narsa yegandek basharasini bujmaytirib dedi:

– Menga ma'lum bo'lishicha, Milbenk turmasini allaqachon buzib tashlashgan-ku.

Chellenjerning shishib ketgan dimog'i bunaga igna san-chishlarni pisand ham qilmaydi, shuning uchun ham soqol-larni selkillatib jilmaydi-da, xuddi kichkina bolaga mo'rojat qilgandek dedi:

– Xo'p, bo'ldi, bo'ldi!

Aql-zakovatda bu ikki odam ilm-fan namoyandalarning birinchi qatorida turishadi-yu, lekin aslini olganda baayni yosh bola deysiz. Biri – oriqgina, doimo nolib yuradigan vaysaqi, ikkinchisi esa – miqtidan kelgan, irodali. Tur-

gan-bitgani aql, idrok, dilkashlik... Hayotni qancha o'rgan-sang, bir narsa ikkinchisiga ko'pincha mos kelmasligini aniqroq bilib boraverar ekansan!

Yuqorida tasvirlangan voqea bo'lib o'tgan kunning er-tasiga biz yo'lga tushdik va ana shu sanani ajoyib ekspe-ditsiyamizning boshlanishi deb hisoblash mumkin. Hamma asbob-anjomimiz ikkala qayiqqa joylandi, o'zimiz esa har birida olti kishidan ikki gruppaga bo'lindik, bunda umumiy osoyishtalik manfaatlarini ko'zda tutib, professorlarni ayi-rib, boshqa-boshqa qayiqqa joyladik. Men Chellenjer bilan bir qayiqqa o'tirdim, u sukunat vasvasasi domida churq etmay borar, turish-turmushi bilan muruvvat ko'rsatish yo'llarini izlayotgandek edi. Lekin men uni boshqacha kay-fiyatda ham ko'rganim uchun har daqiqada tats etib bir nima deb qolmasaydi, deb qo'rqib yurdim. Bu odam bilan birga bo'lsangiz hech qachon xotirjam yurolmaysiz, lekin unga hamsuhbat bo'lgan odam aslo zerikmaydi, illo birdan jaza-vasi tutib qolsa-ya, degan tashvishda yuragingni hovuchlab yurishga majbur qiladi u.

Ikki kungacha keng darvo bo'ylab yuqoriga ko'tarildik. Uning suvi zilioldek tip-tiniq bo'lganidan, daryoning tagini ham ko'rish mumkin – Amazonka irmoqlarining hammasida suv shunaga, boshqa irmoqlardagi suv oq rangda bo'tanasi-mon bo'lib oqadi, chunki bu darvo o'tadigan joyga bog'liq: o'simlik chirindisi bor joydagi darvo suvi tiniq, tuprog'i loyqalangan joydan o'tsa, suvi bo'tana bo'ladi. Qirg'oq os-tonasiga ikki marta duch keldik, ikki safar ham asbob-an-jomlarimizni qo'lga ko'tarib, yarim milcha masofani ayla-nib o'tdik. Ikkala qirg'oq bo'yidagi dov-daraxtlar bir necha asr umr ko'rgan bo'lib, bunday o'rmondan o'tish qalin bu-tazorlardan yurishga qaraganda oson edi, yuk-yapag'imiz ham noqulaylik tug'dirmasdi. Bu joylar qo'ynida saqla-nayotgan sir-asorning tantanavor shukuhini tasvirlashdan oqizman. Bundan olgan zavq-shavqni aslo unutmayman.

Shaharda tug'ilib-o'sgan kishi shox-shabbalari tarvaqaylab o'sib balandga chirmashib ketgan bunday azamat daraxtlarning uchi ko'z ilg'amas alp qomatlariga qarab yoqa ushlaydi, bunday daraxtlar yashil chaylasining qalinligidan tagi soya-salqin bo'ladi, ahyon-ahyonda tushadigan quyoshning olachalpog' yog'dusi bu tantanavor qorong'ilikka zarrin nur sochgandek bo'ladi. O'tgan yilgi yaproqlarning qalin yumshoq gilami qadamlarimiz tovushini yutadi. Shu tabiat husniga mast bo'lib borarkamiz, o'zimizni Westminster abbatiyadagi xo'mraygan ustunlar aro yurgandek his qilamiz, hatto professor Chellenjer ham to'ng'illashini bas qilib, shivirlashga o'tgan edi. Bir o'zim bo'lganida bormi, bu azamat daraxtlarning nomlarini ikki dunyoda ham bilolmasdim, lekin olimlarimiz qadam-baqadam kedr, ulkan terak, o'limliklar bilan ovqatlanadigan ulkan qushlarni, boshqa ko'p daraxt va parrandalarni ko'rsatib, tavsiflab borishardi. Hayvonot dunyosi qashshoq bo'lgan bu qit'ana shu kabi o'simliklar va parrandalarga bo'yiligidan insonga asosiy oshiyon bo'lib qoldi.

Baland daraxtlarning qora tanalarida yorqin arxideylar va rango-rang tovlanayotgan lishayniklar lovullab ko'rinadi, quyosh nuri tasodifan oltin allamanduga, jaksomiyaning qirmini yulduzlariga yoki impopeylarning to'q-zangori boshlariga tushganida, bunday ajib manzara faqat ertaklarda bo'lishi mumkin derdingiz. Bu mudroq bosgan o'rmondagi hamma jonzor yuqoriga, nurga intiladi, chunki zulmat — o'lim. Har bir shox, hatto eng zaif kurtak ham o'zining kuchliroq va bo'ychanroq akalarga, novdalarga chirmashib tobora yuqoriylab boraveradi. Bu yerda sudralib o'suvchi o'simliklar nihoyatda katta bo'ladi, yevropaliklar nazarida, chirmashishga noqobili bo'lgan o'simliklar zulmatni yoritib chiqishlari bilan bu san'atni egallab olib, yuqoriga intiladilar. Masalan, men bu yerda oddiy qichiqon, jasmin va hatto yasitar palmasining ham kedr

daraxtlarining tanasini o'rab, uning uchiga chiqib olganini ko'rdim.

Pastda, ulug'vor yashil soyabonlar ostida shittir etgan tovush ham, chiyillash ovozi ham eshitilmaydi, lekin qayerdadir balandda, boshimiz uzra harakat timmaydi. U yerda quyosh nurlarida ilonlar, maymunlar, qushlar va boshqa yalqov jonivorlarning butun bir olami miriqib isinib yotibdi, chimol, ular bu sirli qorong'ilik saltanatiga allaqayoqdan kelib qolgan insonlarning mitti-mitti gavdalariga hayrat bilan tikilayotgandirlar.

Tong pallasida va quyosh botayotganda o'rmon baqiroq maymunlarning qichqiriqlari, dumlari uzun to'tiqushlarning quloqni qomatga keltiruvchi chug'ur-chug'uri bilan to'ladi, lekin jazirama tush qizig'ida esa dengiz to'liqini guvullashini eslatuvchi hasharotlarning g'o'ng'illashinigina tinglaymiz, boshqa hech nima eshitilmaydi... Boshlari zim-ziyosimon tomon intilgan, boshimiz uzra savlat bilan turgan bu azamat daraxtzorlardagi tantanavor nag'maning ulug'vorligini hech nima buzmasdi. Faqat bir marta daraxtlarning qalin soyasida allaqanday maymoq oyog'li bir hayvon — chumolixo'rmi, ayiqmi, kalovlanib o'tgandek bo'ldi. Bu Amazonka o'rmonlaridagi yerlarda ham hayot asari borigidan dalolat beruvchi yagona belgi edi.

Bundan tashqari boshqa ba'zi belgilar ham mavjud bo'lib, ular bu sirli puchmoqlarda inson ham borigidan shahodat berardi — bizning yaqinimizda inson bor. Uchinchi kuni goh so'nib boruvchi, goh yana tantanavor gumburlab avjga chiquvchi bir maromdagi allaqanday g'alati gurullash eshitildi. Bu tovush ertalab ham tingani yo'q. Bu tovush ilk bor eshitilganda qayqlarimiz bir-biridan ancha olisda, bir necha yard masofada suzardi. Hindular bamisoli

¹ Yard — ingliz o'ltchovi — 0,9144 metrga teng, uch furga barobar.

bronza haykallaridek qotib qolishdi, ularning basharalarida qo'rquv va dahshat aks etardi.

– Nima bu? – so'radim men.

– Do'mbiralalar, – mensimaslik ohangida javob berdi lord Jon. – Jangovar do'mbiralalar. Men ularning tovushini eshitganman.

– Ha, ser, bu jangovar do'mbiralarning tovushi, – tasdiqladi metis Gomes. – Hindular qahriqatliq xalq bo'ladi. Ular bizni kuzatishyapti. Hindular bizni o'ldirishmoqchi.

– Qanaqa qilib bizning izimizga tushishgan ekan? – so'radim men qilt etmay turgan qop-qorong'i o'rmondan ko'zimni uzmay.

Metis yelkasini qisdi.

– Hindular har narsaga qodirlar. Ular bizni kuzatishyapti. Hamisha shunaga bo'ladi. Do'mbiralachilar go'yo o'zaro so'zlashib oladilar. Hindlar bizni o'ldirishmoqchi.

Peshinga borib – yon daftarimda yozilishicha, seshanba kuni sakkizinchi avgust edi – kamida olti-yetti do'mbiraning gumbur-gumburi har tараfdan bizni o'rab oldi. Do'mbira to'vushi dam tezlashar, dam sekinlashar edi. Mana, sharqning allaqayeridan tiniq tak-tak eshitildi... tindi... shimolning allaqayeridan qatitq tarqalash eshitildi. Bu tinimsiz taka-tum xuddi savol-javobdek yangradi. Bu sadolarda dahshati, asablarga favqulodda ta'sir etuvchi allaqanday kuch bor edi. Bu sadolar so'zga aylanib, bizning metisimiz tinimsiz takrorlayotgan: „O'ldiramiz... o'ldiramiz...“ degan ma'noni anglatayotgandek edi. Sadosiz o'rmonda qilt etgan harakat yo'q. Yam-yashil o'rmon bag'ri faqat tabiatga xos orom bilan so'kin va tinch nafas olardi, lekin shu o'rmon ortidan bizga birodar bo'lmish odam bolasi yo'llayotgan yolg'iz o'sha shum xabar to'xtovsiz eshittilib turardi. „O'ldiramiz!“ – deyishardi sharqdagilar. „O'ldiramiz!“ – javob berishardi ularga shimolliklar.

Do'mbiralalar kun bo'yi taka-tumlab, shivirlashdan tinishmadi, ular sadosidagi qutqu hamrohlarimiz orasidagi rangli kishilarning yuzlariga g'ulu solardi. Hatto eng dadil, maqanchiq metis ham qo'rqoqlik qildi chog'i. Ammo-lekin o'sha kuni men bir voqeaning shohidi bo'ldim – Sammerli bilan Chellenjer oliy darajadagi mardlikka – ma'rifatlil aql jasoratiga qodir kishilar ekanliklariga amin bo'ldim. Darvin Argentina gaucholari o'rtasida, Uolles toshbaga ovlovchi malayaliklar orasida ana shunday jasorat namunalarini ko'rsatishgan edi, Muruvvati tabiatning qonuni shunday: inson birdaniga ikki narsa ustida o'ylay olmaydi, ya'ni, ilmiy intilishlar haqida gapirilganda shaxsiy manfaatlariga o'rin qolmaydi.

Professორlarning ikkovi ham uchib o'tgan bitta ham qushni, qirg'oqda uchragan bitta ham giyohni bekor ketkazmasdilar, sirli tam-tumlarining dahshatli sadolariga ham parvo qilmay bahslashishga ashaddiy ravishda berilib ketishardi. Sammerli avvalgidек Chellenjerga ming'irlar, u esa o'z odaticha yo'g'on tovushi bilan to'ng'illardi, lekin u ham, bu ham hindular do'mbiralarning dahshati to'g'risida bir kalima ham so'z aytmasdi, go'yo ular Qirollik jamiyatiga qarashli Sent-Jeyms-stridagi klubining chekish zalida bahslashayotgandек edilar. Ular bir martagina hindularga qiyvo boqib lufflarini namoyish etdilar, xolos.

– Miranx qabilasining odamxo'rlari, balki, amayyuaka qabilasining qonxo'rlaridir, – dedi Chellenjer do'mbiralalar taka-tumi kelayotgan o'rmon tomonga bosh barmog'i bilan ishora qilib.

– Mutlaqo to'g'ri, ser, – javob berdi Sammerli, – bu yerdagi hamma qabilalar kabi ular ham mongol irqiga mansub, tillari esa qurama, ya'ni polisintetik.

– Albatta poli... sintetik, – takabburona ittifoq bilan rozi bo'ldi Chellenjer. – Menga ma'lum bo'lishicha, bu qit'ada bundan boshqa til mavjud emas. Menda yuzdan ortiq lahja-

ning yozuvi bor. Lekin mongol irqi masalasiga kelsak, bu masalada shubham bor.

– Bu nazariyaning to'g'riligini tan olish uchun qiyosiy anatomiyani yuzaki bilishning o'zi ham kifoya edi-ku, at-tang, – dedi Sammerli so'zlariga og'u qo'shib.

Chellenjer jangga xezlangan askarlik iyagini cho'zib qo'ydi. Shu on ko'zimizga ko'ringan narsa uning poxol qalpog'i hoshiyasi bilan soqoli bo'ldi.

– Siz haqsiz, ser, yuzaki tanishuv boshqa hech narsa bera olmaydi. Biroq chuqur bilim boshqacharoq xulosalarga kelishga majbur qiladi.

Ular bir-birlariga qahr bilan tikilib, yeb qo'ygudek qarab qolishdi, shu chog' o'rmon tomondan kelayotgan: „O'ldiramiz, o'ldiramiz... o'ldiramiz...“ degan aks-sado yana elas-elas quloqqa chalindi.

Kechqurun biz qayiq-larni daryoning o'rtasiga olib bordik-da, og'ir toshlardan langar qilib, yuz berishi mumkin bo'lgan hujumga qarshi tayyorlana boshladik. Biroq tun sokin o'ldi. Tong otishi bilan yana olg'a siljiyverdik, do'mbiralarning tovushi endi tingan edi. Kunduzi soat uch-ga yaqin yo'limizni baland bo'lib qolgan sayozliklar to'sdi. Bir yarim milcha masofaga cho'zilgan xuddi mana shu sayozliklar professor Chellenjer-ni birinchi ekspeditsiyasini halokatga uchratgan edi.

Ochig'ini aytсам, bu sayozliklarning ko'rinishi meni tikt-lantirdi – bu garchi zaif bo'lsa ham, Chellenjer hikoyala-ri-ni-ni haqligini tasdiqlovchi birinchi dalil edi.

Xizmatkor hindular qalin butazor oralab avval qayiq-lar-ni olib o'tishdi, biz oq tanli to'rt kishi esa mitliqlarimizni qo'limizga olib izma-iz borarkamiz, hindularni o'rmondan nogahon chiqib qolishi mumkin bo'lgan xatardan ogoh-lantirish uchun baqirib-chaqirib borardik. Kechga borib bizning partiyamiz sayozlikdan eson-omon o'tib oldi, daryo yuqorisiga o'n milcha ko'tarildik-da, tunab qolish uchun

to'xtadik. Mening taxminiy hisob-kitoblaringa qaraganda, bu paytda Amazonka kamida bir necha yuz mil orqamizda qolib ketgandek edi.

Ertasiga tong saharda muhim voqealar ro'y berdi. Al-lanimadan tashvishlangan professor Chellenjer g'ira-shira yoyilmasdan oq ikkala sohliga tikilaverdi. Mana, u nihoyat suvga engashib qolgan bir daraxtni ko'rsatib, quvonch bilan xitob qildi:

– Qani, tortinglar-chi, sizningcha bu nima? – so'radi u.

– Assai palmasi, albatta, – dedi Sammerli.

– To'g'ri. Xuddi mana shu palma menga mo'ljal vazifa-sini bajaradi. Xuddi mana shu sohil bo'ylab yarim mil-cha yuqoriga yursak, daraxtzor panalab turgan shoxobchaga chiqib olamiz. U yerdagi daraxtlar devordek zich bo'lib ketgan, sir o'sha devorning orgasida. Ho'v ana, ko'ryap-sizlarni, yam-yashil butazor och-ko'k qamishzor bilan al-mashindi. O'sha yerdagi baland teraklar orasida Noma'lum mamlakatning eshigi bor. Hozir o'zlaring ham bunga amin bo'lasizlar. Qani, olg'al!

Haqiqatan ham unga qoyil qolishdan o'zga ilojimiz yo'q edi. Och-ko'k qamishlar o'sib yotgan to'qayzor bosh-lanadigan joyga suzib borib, ichkariga kirdik, keyin uzun xodachalar yordamida qayiq-larni qirg'oqdan uzog'lashitirib, yuz yordcha surdik-da, nihoyat, sokin oqadigan sayozroq, suvi tiniq bo'lgani uchun tagi ko'rinish turgan daryochaga chiqib oldik. Daryoning tor qirg'oqlari yam-yashil daraxt va o'simliklarga burkangan edi.

Bu yerda qalin butazor o'miga qamish o'sishini payqa-maydigan odam bu daryoning tortligini bilmasligi mumkin. Shu daryo orgasidan sehlri olam boshlanardi.

Ha, bu haqiqatan ham zo'r, sehlri olam edi. Insonning eng zukko aql-idrokigina mana shunday manzarani chiza oladi. Boshimiz uzra qalin shox-shabbalar chirmashib, ta-biiy yashil gumbaz hosil qilgan, ana shu jonli tunnel aro

tip-tiniq zilol daryo suvi jimirab oqadi. O'zi go'zal bo'lmish bu daryo suvining bir husniga yashillikka bo'yalib tushayotgan quyosh nurlari o'n husn qo'shadi. Billurdek shaffof, ko'zgudek qo'zg'almas, qirg'oqqa yaqin joylari ko'karib boruvchi aysbergdek suv sahni bamisoli naqshin ravoqlarni eslatuvchi barglar gulchambari orasida eshkaklarimiz zarbidan parcha-parcha bo'lib yaltiradi. Bu haqiqatan ham mo'jizalar mamlakatiga olib borsa arziydigan munosib yo'l edi.

Endi hindularning tovushi eshitilmasdi, buning o'rni hayvonlar tez-tez uchray boshladi, ularning bamaylixotir yurishlaridan hali ovchiga duch kelmaganliklarini bilsa bo'lardi, serjun, qora duxobadek mayin, tishlari oppoq, ko'zlari ayyorona o'ynoki maymunlar quloqni qomatga keltiruvchi baqirig'chagiriqlari bilan bizni kuzatib qolishadi. Ba'zan amerika timsohi – kayman qirg'oqdan o'zini suvga shaloplab tashlab qoladi. Bitta semiz tapir – qisqa xartumli sutemizuvchi hayvon – buta orasidan mo'ralab, bir daqiqacha turdi-da, vazmin qadamlar bilan daraxtzorga kirib, g'oyib bo'ldi. Keyin daraxtlar orasida yirik puma – amerika yovvoyi mushugi ko'ringandek bo'ldi; u keta turib, sariq yelkasi osha bizga bir qaragan edi, g'azab to'la ko'k ko'zlari yatillab ketdi. Bu yerda qushlar, ayniqsa, botqoqlik qushlari nihoyatda ko'p. Suv uztra yuksalgan daraxt tepasiga ibislar – amerika laylaklari, qarqaralar – zangori, to'q-qizil, oppoq pati qushlar gala-gala bo'lishib oshiyon qurganlar, shaffofdek tiniq suvda esa kamalakning hamma nurlari bilan tovlanayotgan baliqlar g'ujg'on o'ynaydi.

Biz ana shu zartin-zilol tunnel bo'ylab uch kun suzdik. Uzoqqa tikilib qarasang, zilol suv qayerdan boshlanadi-yu, uning ustiga to'ng'irilgan yashil gumbaz qayerdan boshlanadi – bilib bo'lmaydi. Bu daryoning sokin, tinchligini, shaffofligini hech nima buzmagani – bu yerlarga inson qadami hali yetmagan edi.

– Hindular yo'q. Ular Kuripuridan qo'rqishadi, – deb qo'ydi bir mahal Gomes.

– Kuripuri degani – o'rmon devi, – tushuntirdi lord Jon. – Bu yerdagilar jamiki yomonlikka sabab bo'luvchilarni shu nom bilan atashadi. Boyaqish mahalliy kishilar bu joylarga bosh suqishga ham qo'rqadilar – ularning nazarida, bu yerlarda allaqanday qo'rqinchli maxluqlar bordek.

Uchinchi kuni qayiqlar bilan xayrlashishimiz kerakligi ravshan bo'lib qoldi: daryo tobora sayozlanaverdi, qayiqning tagi qumda sirg'anaverib bezor qildi. Axiyri biz ularni suvdan chiqardik-da, o'zimiz tunash uchun qirg'oqdagi butazorga qo'ndik. Ertalab lord Jon bilan men – ikkimiz daryoga parallel ravishda ikki milcha yurib, daryo borgan sari sayozlashayotganiga ishonch hosil qilib qaytdik. Bu xabarni professor Chellenjerga yetkazib, shu bilan uning taxmini to'g'riligini tasdiqladik va bundan buyon qayiqlarda yurish mumkin emasligini, oxirgi nuqtaga yetganimizni ma'lum qildik. Biz qayiqdagi yuqoriga, qirg'oqqa olib chiqib, shox-shabba tagiga yashirib qo'ydik-da, qaytayotganimizda topish oson bo'lsin uchun yonidagi daraxtga belgi qo'ydik. Keyin asbob-anjomlarni – miltiq, o'q-dori, oziq-ovqat, ko'rpa-yostiq deganday, – mayda-chuydalarni bo'lishib olib, bo'g'cha-bo'g'cha qilib yelkalarimizga ortmoqlab, safarimizning eng og'ir va qiyin bo'lagini bosib o'tish uchun yana yo'lga ravona bo'ldik.

Ertamiz, baxtga qarshi, ikki „xo'roz“imizning olishuvi bilan boshlandi. Ularga qo'shilgan Chellenjer professor Sammerlning ochiq noroziligiga qaramay, ekspeditsiyaga rahbarlikni o'z qo'liga oldi. Chellenjer hamkasbasiga birinchi buyruqni berishi bilan (bor-yo'g'i, aneroid barometrni ko'tarib, degandi, xolos) baloga qoldi.

– So'rashga ruxsat eting, ser, – dedi qo'rqinchli bir xotirjamlik bilan Sammerli, – bizga buyruq qilishga qanday huquqingiz bor?

Chellenjer pov etib yonib, har bir tuki tikkeyib ketdi:

– Ekspeditsiya boshlig'i huquqidan foydalanib, professor Sammerli!

– Men sizni rahbar sifatida tan olmasligimni izhor qilishga majburman, ser.

– E, bundoq deng! – Chellenjer bamisoli fil vigori bilan uni mazax qilgandek ta'zimga egildi. – Unda mening o'rnim oralaringda qayerda bo'lishini siz, muhtaram zot, lutf-u karamingizni darig' tutmay ko'rsatib berarsiz?

– Marhamat, ser. Siz – gaplari shubha ostiga olingan odamsiz, biz bo'lsak – sizni tekshirish uchun tuzilgan komissiya a'zolarimiz. Siz o'z hakamlaringiz bilan yurib-siz, ser!

– E shafqatli Parvardigor! – xitob qildi Chellenjer to'ntarib qo'yilgan qayiq ustiga o'tirarkan. – Unday bo'lsa o'z yo'lingizdan boravering, men esam shoshmasdan orqangizdan ketaveraman. Bu ekspeditsiyaga boshchilik qilmanimdan keyin uning oldida borishimning hojati yo'q.

Xudoning inoyati bilan, xayriyati, ekspeditsiyamizda aqirasol kishilardan ikki inson bor ekan – lord Jon bilan men – bo'lmasa zukko olimlarimizning ahmoqona qiliqlari va dahanaki janglari tufayli Londonga qo'limizni burnimizga tiqib qaytgan bo'lardek. Ularni tinchitguncha o'lib bo'ldik – koyidik, yalindik, tushuntirdik! Nihoyat, Sammerli trubkasini torta-torta jirkangandek tirjayib, olg'a yurdi, Chellenjer bo'lsa vaysay-vaysay uning ortidan birov sudragandek qadam bosdi. Baxtimizga, ikkala donishmandimiz shundan bir necha kun avval edinburghlik doktor Illingvortni bir chaqaga ham olmay kelishayotganini payqab qolgandik, shu narsa jonimizga oro kirdi. Shunday qilib, shotlandiyalik zoologning nomini tilga olishimiz bilan qaynab turgan munozara taqqa to'xtab, ikkala professor muvaqqat ittifoq tuzishib, o'zlarining umumiy muxoliflarini yomonlab ketishdi.

Turnagator bo'lib qirg'oq bo'ylab borarkamiz, tez orada daryoning tobora torayib, anhora aylanib qolganini, anhor esa o'z navbatida bulutsimon giyohlar bosib yotgan, tiz-zamizgacha botib ketadigan botqoqlik bag'riga singib yo'q bo'lib ketayotganini ko'rdik. Bu yerda pashsha va turli-turman chivinlarning galalari quyuk bulutdek g'ujg'on o'ynardi, bundan biroz yengil tortib, qattiq yerga oyog' qo'ydik; o'rmonni aylanib o'tish uchun uzog' yo'l bosib, bu badbaxt botqoqlikni ortda qoldirdik. Undagi darrandalarning g'uvul-lashi uzog' vaqtgacha quloqlarimizdan ketmadi.

Qayqlarni yashirib qo'yganimizning ertasiga bu yerlarning tabiati keskin o'zgardi. Doimo yuqorilab borishimizga to'g'ri keldi, o'rmon borgan sari siyraklashib, o'zining tropik tarovatini yo'qotib fayzsizlanaverdi. Amazonka vodiysining balchiqsimon loyi bilan ozuqlangan azamat daraxtlar o'rmini kokos va xurmo daraxtlari egallab bordi. Ular changalzorlar orasida g'uj-g'uj bo'lib o'sishgandi. Namtoq pastekisliklarda yaproqlari yergacha tegadigan palmalar o'sardi. Biz, asosan, kompasga qarab yurardik, shu fursatda Chellenjer bilan ikki hindu o'rtasida qaysi yo'ldan borish masalasida janjal chiqdi, ikkisida ham biz tanlagan yo'l professorning ra'yiga zid keldi, buni u darg'azab bo'lib: „Hozirgi zamon Yevropa madaniyatining mukammal mahsulidan bebahra qolib, ibtidoiy yovvoyilarning aldamchi instinktlariga ishonib“, – deb baholadi. Uchinchi kuni biz hindularga ishonib to'g'ri ish qilganimiz ma'lum bo'ldi. Chellenjering o'zi birinchi sayohati davridan esida qolgan ba'zi belgilarni tanidi, bir yerda esa kuygan to'rtta toshga duch keldik: bu Chellenjer avval oshiyon qurgan joy izlaridan nishona edi.

Yuqoriga chiqish hamon davom etardi; ulkan-ulkan xarsanglar do'mpayib-do'mpayib yotgan tepalikdan o'tishga ikki kun vaqtimiz ketdi. O't-o'tlanlarning turqi-tarovati yana o'zgardi, avvalgi tropik go'zallikdan endi „fil suyasi“

palmalari-yu, ko'plab ajoyib orxideylargina qoldi. Ular orasida kamyob Nittonia Vaxillaria ajoyib katlen va odonto glossumlarning pushti va qirmizi gullarini ajratishni bilib olgandim. Tepalikdagi yoriqlar aro mayda toshlar tagidan oqayotgan buloqlar bo'yida paprotniklar o'sib yotardi. Oqshomlari, odatda, o'zimizning Angliyadagi kechqurungi shoxona ovqat uchun pishiriladigan xonbaligni eslatadigan beli ko'k-qoramir baliqchalar gala-gala bo'lib g'ujg'on o'ynayotgan biror buloqning bo'yiga qo'nardik.

Yo'l yurishimizning to'qqizinchi kuni, mening hisoblarimga ko'ra, qayqlarimiz yashiringan joydan yuz yigirma mil masofaga uzoqlashganimizda daraxtlar butunlay siyraklashib, butalargina qoldi. Butazorlar ham o'z navbatida bepoyon bambukzorlar bilan almashindi. Bambuklar shu qadar qalin o'sishgandiki, ularni pichoq va hindularning oyboltasi bilan qirgib, o'zimizga yo'l ochib borardik. Bu ishga bir kun – ertalab soat yettidan kech soat sakkizgacha vaqtimiz ketdi, ikki martagina qisqa mudatga dam oldik, xolos. Bundan ham battar charchatadigan, zerikarli biror yumushni topish amri mahol! Hatto bambuklari kesilib yo'l ochgan joyimdan ko'radigan ufq o'n-o'n ikki yarddan oshmasdi; qolgan vaqtning hammasida oq parusina ko'ylak kiygan lord Jonning yelkasini hamda bambuklar devorinigina ko'radim, xolos. Tig' uchidek ingichka quyosh nurlari bambuklar osha yerga tushardi. Besh futcha tepada – boshimiz uzra esa lojuvard osmon qo'ynida bambuk popuklari silkinib turardi. Bu chakalakzorda qanday hayvonlar yashashini bilmayman-u, lekin judayam yaqinimizda allaqanday maxluqning og'ir-og'ir qadam bosib ketayotganini bir necha marta eshitdik. Lord Jon, bu Janubiy Amerika tuyalaridan guanako yoki lama bo'lsa kerak, deb o'yladi. Qosh qoraygandagina bambukzordan chiqib oldik, oxiri tugamaydigandek tuyulgan bu kuni ado qilib, ro'sayam charchab-horib, darhol qo'nalg'a – lager tuzdik.

Ertasiga tong otishi bilan oq yo'lga tushdik. Yana joyning tabiati o'zgara boshladi. Organimizda qolgan bambuklarning sarig' devori ko'zga yaqqol ko'rinish turardi. Oldimizda u yer-bu yerida yakkam-dukkam daraxsimon paprotniklar o'sgan, o'zi esa sag'risi kitning gavdasiga o'xshab ketadigan, tobora yuqorilab boradigan biyday yalanglik yastanib yotardi. Biz bu tepalikdan choshgohga yaqin oshib o'tdik, uning naryog'ida vodiy ko'rindi, uyog'i esa ufq tomon asta-sekin yunalqlashib boradigan nishablik. Bu yerda, tepaliklar silsilasidan birida ajib voqea bo'lib o'tdi, uning ganchalik muhimligi keyingi tafsilotlardan ma'lum bo'ladi.

Ikki hindu bilan birga qadam tashlab borayotgan professor Chellenjer qo'qqisdan to'xtadi-da, o'ng tomondagi allanimaga ishora qilib, hayajon bilan qo'lini silkiy boshladi. Biz o'sha tomonga qarab, taxminan bir mil naridagi ulkan kulrang qushga o'xshagan bir narsaga ko'zimiz tushdi. Qush yer uzra pastlab, qanotlarini bir maromda shoshmay qoqib, daraxtlar orgasida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Ko'rdilaringizmi? – qichqirdi Chellenjer tantanavor tovush bilan. – Sammerli, siz ham ko'rdingiz, a?

Uning hamkasabasi g'alati qush g'oyib bo'lgan tomondan ko'zini uzmay turardi.

– Sizningcha, bu nima o'zi? – so'radi u.

– Nima deganingiz nimasi? Pterodaktil!

Sammerli isteazo bilan xaxolab kuldi.

– Soxtaptero deng! – dedi u. – Bu turna, eng oddiy tur-naning o'zi.

Chellenjer xit bo'lib, tili kalimaga kelmay qoldi. U javob berish o'rningiga yuk-yapag'ini yelkasiga ortdi-da, olg'a yurib ketdi. Lekin men bilan yonna-yon borayotgan lord Jonning qiyofasi odatdagidan jiddiyroq edi. Uning qo'liga – seysovska durbini.

– Men, har qalay, uni yaxshigina ko'rib oldim, – dedi u. – Buning nimaligini bilmayman-u, lekin ovchilik tajri-

barni garovga qo'yib aytamanki, bunaga qushni umrimda ko'rmaganman.

Islahimiz mana shunaga. Haqiqatan ham Noma'lum mamlakatga yetib keldikmi, rahbarimiz og'zidan tushmaydigan yo'qolgan olam osonasida turibmizmi? Mening yozuvlarimni o'qisangiz, o'zim qancha narsa bilsam, siz ham shunchalik bilasiz. Bunaga vogelar ortiq qaytarilmadi, o'sha kuni hayotimizda boshqa hech qanday muhim yangilik ro'y bermadi.

Shunday qilib, aziz kitobxonlarim, sizlarga qachonlardir men bilan hamsuhbat bo'lish nasib etsa, biz sizlar bilan keng daryo bo'ylab yuqoriga ko'tarildik, qamishlar osha o'tib, yashil tunnelga kirdik, palmalar tagidan yurib, qiyalikdan tushib bordik, bambukzordan bir amallab chiqib olib, daraxsimon paprotniklar o'sib yotgan tekislikka tushdik, mana endi sayohatimizdan ko'zi ogan manzilimiz ro'parimida turpti.

Tepaliklarning ikkinchi silsilasidan o'tgach, palma dasturlari bilan qoplangan torgina vodiyni ko'rdik; vodiyoqasidagi qizil goylarning uzun chizig'i albomdagi suratlardan ko'zimga tanishdek tuyuldi. Hozir ko'rganlarimni yozayapman-u, lekin ko'z oldimizdagi bu goylarning o'sha albomdagi tasvir bilan o'xshashligi shubhasiz. Bu goylar bilan qo'nalg'amiz orasidagi eng qisqa masofa yetti mildan oshmaydi, goylar silsilasi ancha narida burtilib, ko'z ilg'amas ufqqa singib ketadi.

Chellenjer jangda g'olib chiqqan xo'rozdek terisiga sig'may lager bo'ylab u yoqdan bu yoqqa yurgani-yurgan; Sammerli churq etmaydi, lekin avvalgidek shubhalanishini qo'ymaydi. Yana bir kun o'tsa bas, hamma shubhalarimiz bartaraf bo'ladi. Hozircha men bu xatni bambukzorda qo'lini kesib olgan va qo'yib yuborishimni talab qilayotgan Xosedan jo'natyapman. Xat, har qalay, egasiga tegishiga ishonaman. Imkoniyat tug'ilishi bilanog yana yozaman.

Xatimda bayon qilgan narsalarimni tushunishlarigda yordam berar degan umidda sayohatimizning taxminiy planini ham maqolamga ilova qildim.

TO'QQIZINCHI BOB

Bu kimning ham tushiga kiribdi deysiz?

Katta falokatga yo'liqdik. Bu kimning ham tushiga kiribdi deysiz? Endi boshimizga falokat ustiga falokat yog'ilavermasa go'rga edi. Balki, mana shu sirli, odam bolarasi oyog bosmagan dasht-u biyobonda bir umr qolib ketarimiz. Yuz bergan voqea meni shu qadar gangitib qo'yidiki, shu choqgacha nimalar bo'layotganiniyam, kelajakda nimalar yuz berishiniyam anglolmay qoldim. Bugunim ozor chekkan miyamga dahshat solsa, ertam zim-ziyo tunde qop-qorong'i edi.

Bunday og'ir ahvolga tushgan boshqa odamni topish umri mahol. Ahvolimiz shu qadar nochor ediki, men sizga bu tog'lar silsilasining aniq koordinatlarini ma'lum qilib, do'stlardan qutqarish guruhi yuboringlar, deb so'rashni lozim deb hisoblayman. Shunday guruhni tuzib yuborishganlarida ham, uning Janubiy Amerikaga yetib kelgunicha-yoq bizning taqdirimiz hal bo'lib qolishi turgan gap edi. Mening uch hamrohim tegirmonga tushsa butun chiqadigan odamlar, har biri kamoli zukko, matonatli va jasur kishilar. Bizning umidimiz shundan, xuddi mana shundan.

Ha, biz xuddi Oyga borib tushgandek har qanday yordam kelishidan umidimizni uzgan edik. Mabodo bu falokattan qutulib keta olsak, faqat o'z kuchimizdan madad olamiz. Hamroharimning sokin chehralariga boqqanimda, umidsizlik zulmati tarqalib ketgandek bo'ladi. O'zim ham shunday sabotilimgim bilan g'ururlanaman, deysishga jur'at

etaman. Aslini olganda esa og'ir shubhalar ichida iztirob chekardim.

Endi keling, bizning boshimizga tushgan falokatning hamma tafsilotlarini birma-bir bayon qilib berishga ijozat eting.

Men keyingi hisobotimda professor Chellenjer aytgan tog'lar silsilasi haqadek o'rab olgan biyday dashtdan yetti mil masofada turganimizni yozgan edim. Guruhimiz bu yassitog' yaqiniga kelganda professor uning balandligini ancha kamaytirib aytgandek tuyuldi menga, uning ba'zi joylari yetti fut kelarkan kamida. Aftidan, bu qoyalar bazalt jinslaridan tashkil topgan bo'lsa-da, ular turli-tuman qatlamlardan iborat ekanligi ham ko'zga tashlanardi. Edinburg yaqinidagi Selisberiy qoyatoshlari ham shunagaligini ko'rish mumkin edi. Tog'lar silsilasining cho'qqisi o't-o'lanlarga burkangan, qoyalarning chetlarida butalar, ularning orqasida esa baland-baland daraxtlar o'sib yotibdi. Tirik jon bu yerda yo'q, albatta.

O'sha kechasi biz tog'lar silsilasining shundoq etagida, bo'm-bo'sh, betayz bir maydonda lager qurdik. Tepamizda yuksalgan qizil qoyalar tippa-tik bo'lib qolmay, chetlari egilibroq turganidan bu tomondan ularga chiqishning iloji yo'q edi. Lagerimiz yaqinida tepasi torayib boradigan qoyatosh tikkayib turibdi. Men bu qoyatosh haqida boya gapirgan edim, shekilli. U cherkovlarning tepasidagi uchi ingichkalashib boradigan mayzaga o'xshardi. Daraxtlar bilan qoplangan cho'qqisining balandligi yassitog'ning balandligiga teng kelib qoladi, ular orasini jarlik ajratib turadi, xolos. Bu qoyatosh bilan unga yaqin tog'lar silsilasining tarmog'i uncha yuksak emas – nazarimda, besh yuz-olti yuz fut kelar, undan balandmas.

– Men otib olgan pterodaktil xuddi mana shu daraxtga qo'nib turgan edi, – dedi professor. – Qoyatoshning yarmiga-

cha tirmashib chiqibman. Menga o'xshagan yaxshi alpinist cho'qqiga ham bemalol chiqar oladi, deb o'ylayman, ammo baribir yassitog'ning cho'qqisiga chiqish mumkin emas.

Chellenjer o'zining pterodaktili haqida gap sotarkan, men professor Sammerlini kuzatardim va uning xulq-atvorida ilk bor allaqanday yangilik sezdim; u muxolifga ro'yirost ishonib, hatto pushaymon alomatlarini ham zohir qila boshlagandi. Uning lablarida noxush zaharxanda g'oyib bo'lgan, rangi quv o'chgancha, hayratini yashirishga urinmasdi ham. Chellenjer ham uning bu holatini sezgan shekilli, g'alaba nashidasini surayotgandi.

– Men pterodaktil haqida gapirganimda professor Sammerli, albatta, oddiy laylakni ko'zda tutyapti, – dedi u qo'pollik bilan kesatib, – lekin bu laylakda pat degan narsa yo'q, badanini g'ayritabiiy teri qoplagan, qanotlari orasida parda bor, tumshug'ida esa qator-qator tish.

Chellenjer u tomon qulluq qilib engashdi, ko'zlarini qisib qo'ydi; hamkasabasi bunga chiday olmay undan uzoqlashdi.

Ertalab oziq-ovqatni tejashimiz zarur bo'lgani uchun qahva va maniok¹ bilan yengilgina nonushta qilib olganimizdan so'ng, harbiy kengash chaqirib, yassitog' ustiga qanday ko'tarilish masalasini muhokama qildik.

Professor Chellenjer misti ko'rilmagan bir tantanavorlik bilan raislik qildi – oliymaqom taxtidan tushsa o'lib qolar.

Mana shunday bir manzarani ko'zingiz oldiga keltiring-a: poxol shlapasini boshiga qo'ndirib olgan bu sersoqol kishi qovoqlarini qisganicha bizga tikilib, hozirgi ahvolumiz va bundan buyong'i rejalarimiz to'g'risida so'zlayapti. Uning oldida biz uchalamiz: toza havoda miriqib, baquvvat bo'lib, qorayib ketgan kamina'i kamtarin qulungiz, avvalgi lahonchsizlik qiyofasini o'zgartirmay vigor bilan trubkasi-

¹ Maniok – sutli o'simliklar oilasiga mansub g'iyoh, ildizi, mevasini pishirib yeyish mumkin.

dagi tamakisini burugʻstayotgan Sammerli va miltigʻiga suyangancha, burgutona nigohini notiqqa tikkan origina lord Jon poygʻakda oʻtiribmiz. Organizmda esa ikki qora metis bilan gʻuj boʻlib olishgan hindular, oldinda boʻlsa – ezgu moʻljalimizga yetish yoʻlida gʻov boʻlib turgan qovurgʻasimon qizgʻish qoyalar yuksalgan.

– Bu yassitogʻga koʻtarilish uchun birinchi kelganimda bor hunarimni ishlatganimni gapirishning hojati bormikin? – gapini boshladi rahbarimiz. – Mendek tajribali alpinistki buni uddalay olmapti, boshqalarga yoʻl boʻlsin. Rostini aytсам, oʻshanda hech qanaga alpinistik anjomlari yoʻq ediku-ya, lekin men bu safar ularni gʻamlab keldim, endi nima boʻlsa ham shular yordamida qoyaning choʻqqisiga albatta chiqaman. Aytganday, togʻning bosh choʻqqisiga bu tomondan koʻtarilish haqida hozircha oʻylamasa ham boʻladi. Oʻtgan safar men shoshilgandim – yogʻinsochin mavsumi boshlangandi, buning ustiga gʻamlab kelgan oziq-ovqatlarim ham tugayozgandi. Ana shu sabablarga koʻra vaqtim ziq boʻlib, togʻ choʻqqisini sharq tomondan olti milcha yurib aylanib oʻtishga ulgurdim, xolos, lekin koʻtarilish uchun qulay biror joyni topa olmaganim. Xoʻsh, endi nima qilamiz?

– Menimcha, sogʻlom aql bizga bitta yoʻlni koʻrsatib turpti, – gapga tushdi professor Sammerli. – Modomiki siz bu togʻni sharq tomondan tekshirgan ekansiz, endi gʻarbga borish kerak, u tomonidan chiqishning iloji bormi-yoʻqmi, qarash lozim.

– Toʻgʻri, – quvvatladi uni lord Jon. – Menimcha, bu togʻ tizmasi uncha katta emas. Biz uni aylanib oʻtamiz-da, yo kerakli narsani qidirib topamiz, yoxud chiqqan joyimizga qaytib kelamiz.

– Men navqiron doʻstimga, – dedi Chellenjer (u menga hamisha oʻn yashar bolaga murojaat qilgandek gapirardi), – tushuntirganim-ku, togʻga osongina chiqib boʻlmaydi

deb, buning sababi juda joʻn: borti-yu shunday boʻlganida yassitogʻ boshqa olandan kesilib qolmagan, unda turlarning yashashi uchun bizga maʼlum boʻlmagan qonunlarga zid keluvchi barcha shart-sharoitlar yaratilmagan boʻlardi. Lekin shunga qaramasdan bu togʻ qiyaliklarida tajribali alpinistlar chiqqan oladigan, ammo ogʻir, besoʻnaqay hayvonlar oʻta olmaydigan joylar bor deb hisoblayman. Ana shunday joylardan kamida bittasi borligiga aminman.

– Bunday ishonch bilan aytishingizga sabab nima, ser? – shartta soʻradi undan Sammerli.

– Bunga sabab oʻtmishdoshim, amerikalik Mepl-Laytning bir amallab bu yassitogʻga chiqishga muvaffaq boʻlganidir. Boʻlmasa albomidagi bahaybat maxluqning rasmini qanday chizgan boʻlardi?

– Bimobarin, siz bularning hammasi tekshirilmagan oldinogʻ yoʻrgʻalab oldinga ketapsiz, – qaysarlik bilan oʻtiroz bildirdi Sammerli. – Men yassitogʻning mavjudligini tan olaman, chunki u koʻz oldimda turpti, lekin unda hayot borligini hali hech kim menga isbot qilib bergani yoʻq.

– Muhtaram ser, siz tan olasizmi, olmaysizmi, buning aslo ahamiyati yoʻq. Lekin nafsilarini aytganda, yassitogʻ borligining oʻzi ongingizga yetib borganidan xursandman, – Chellenjer boshini koʻtardi-da, oʻmidan sapchib turib, Sammerlining yogasidan oldi, iyagini yuqori koʻtardi. – Qani aytib-chi, ser, – qichqirdi boʻgʻilib xirillarkan, – yassitogʻda hayvonlar olami mavjudligiga endi ishonadigizmi?

Men bu togʻlar tizmasining cheti qalin oʻt-oʻlanlar bilan qoplanganini aytib oʻtgandim. Mana endi ana shu oʻt-oʻlanlar orasida allaganday qora, yaltiroq mavjudot koʻrinib qoldi. U sekin-asta jar tomon sudralib yurdi, shunda biz uni yaxshilab koʻrib oldik: u boshi yumaloq belkurakka oʻxshagan kattakon ilon ekan. Ilon xuddi sirlangandek silliq tan-gularini quyosh nurlarida jilvalantirgandek jar yogasida bir

daqiqacha lapanglab turdi-da, keyin orgasiga qaytilib, butalar orasida g'oyib bo'ldi.

Bu manzara Sammerlini shunchalik mahliyo qilib qo'ygan ediki, u hatto Chellenjerining changalidan qutulib ketishga ham harakat qilmadi, lekin ilon g'oyib bo'lgach, u hamkasabasini itarib yubordi-da, yana o'zini g'oz tutdi.

— Professor Chellenjer, — dedi u, — o'z so'zlaringizning rostligiga ishonitirish uchun boshimni osmonga qaratishdan boshqacharoq usul qo'llaganingizda juda xursand bo'lur edim. Hatto jaydari bo'g'ma ilonning paydo bo'lishi ham bu beboshligingizni oqlay olmaydi.

— Har qalay, yassitog'da hayot bor! — tantanavor qich-qirdi uning hamkasabasi. — Mana endi mening tezisim shu qadar aniq dalil bilan tasdiqlangach, uni hatto eng kaltabin qaysarlar ham shubha ostiga ololmaydi, qo'nalg'amizni tark etib, tog'ga chiqsa bo'ladigan joyni topish uchun g'arb tomon yurishni taklif qilaman.

Tog'ning etaklari toshloq, notekis bo'lgani uchun biz sekin, qiyinchilik bilan olg'a siljirdik. Lekin bexosdan oyog'imiz ostidan chiqib qolgan topilma bizni ruhlantirib yubordi: biz allakimlarning burungi qo'nalg'asiga duch kelgan edik. Toshlar orasida chikago go'sht konservolari bankalaridan bir nechasi, ularni ochadigan siniq pichoq, „Konyak“ yozuvi shisha va bunday joylarda bo'ladigan boshqa mayda-chuydalar yotardi. G'ijimlab tashlangan qog'oz „Chikago demokrati“ gazetasi bo'lsa ham uning qachon chiqqanini bila olmadik.

— Meniki emas, — dedi Chellenjer. — Bularni Mepl-Ulayt qoldirgan bo'lishi kerak.

Lord Jon qo'nalg'a soyasiga joylashgan baland daraxt-simon paporotnikning tanasiga sinchkovlik bilan uzog tikildi.

— Buni qaranglar-a, — dedi u. — Menimcha, bu yo'l ko'r-satuvchi ustunga o'xshaydi.

Daraxtga o'tkir uchini g'arbga qaratib, payraxa qoqib qo'yilbdi.

— Mutlago to'g'ri! — dedi Chellenjer qichqirib. — Shunday bo'lishi kerak-dal O'tmishdoshimiz oldindagi yo'li xatarli ekanligini bilib, mabodo meni qidirib qolishsa to'pishsin, deb ana shu belgini qoldirgan. To'xtab turinglar, hali yana boshqa narsalar ham topib olarniz.

U haq bo'lib chiqdi, lekin biz ko'rgan narsa favqulodda kutilmagan va nihoyatda qo'rqinchli bo'lib chiqdi! Tog'ning shundogqina etagida baland o'sgan bambuklar zich saf tortgan edi, bunday bambukzordan, sayohatimizning dastlabki kunlarida, o'tguncha o'lib bo'lgan edik. Bambuk poyalari ba'zan yigirma futdan ham uzun bo'lib, qozig'ning nayzasidek o'tkir, baquvvat uchlari esa ko'kka sanchilgandek dlkayib-dikkayib turardi. Biz ana shu bambuklar qatori yonidan borarkamiz, qo'qqisdan allaqanday oq narsaning yalt etib ketganini payqab qoldik. Men poyalar orasiga boshimni suqgan edim, odanning bosh suyagini ko'rib qoldim. Undan bir necha qadam joyda, chekkaroqda skeletning o'zi ham yer bilan bitta bo'lib yotardi.

Hindular pichoqlarini ishga solib tezlik bilan bu yerni ochiq, tozalashgan edi, bunda yuz bergan fojia butun tafsilotlari bilan ko'z oldimizda namoyon bo'ldi qo'ydi. Halok bo'lgan kishining kiyimlari chirib, uvadalarigina qolipti, qoq suyagi qolgan oyog'idagi boshmog'i hali butun, unga qarab bu poyabzalning sobiq egasi yevropalik deb hukm chiqarish mumkin edi. Suyaklar orasida Nyu-Yorkdagi „Gudzon“ firmasi ishlab chiqargan olin soat, zanjirga mahkamlangan stilografik qalam yotardi. Qopqog'iga „J.K. ga A. E. S. dan“ deb o'yib yozilgan. Kumush portsigar ham shu yerda yotardi. Portsigar hali qorayib ulgurmagan, demak, baxtsiz hodisa yuz berganiga ko'p vaqt bo'lgan emas.

— Bu kim o'zi? — so'radi lord Jon. — Eh bechora, bittayum suyagi butun qolmapti-yal!

— Qobirg'alari orasidan bambuk ham o'sib chiqipti, dedi Sammerli. — Aslida-ku, bambuk juda tez o'sadi-ya, lekin skelet bu yerda yotganidan buyon uning poyasi yigirma fut balandga ko'tarilganiga aql bovar qilmaydi.

— Halok bo'lgan kishining shaxsi masalasiga kelganimizda, dedi Chellenjer, — bu xususda menda hech qanday shubha yo'q. Gatsendda sizlarga qo'shilishdan oldinroq Mepl-Uayt haqida aniq ma'lumotlar olganman. Para shahrida hech kim uni tanimas ekan. Baxtinga, uning albomidagi bitta rasm jonga oro kirib, meni to'g'ri yo'lga solib yubordi. Rosariodagi allagaysi ruhoniy uyidagi nonushta tasvirlangan rasm esingizdami? Men ana shu ruhoniyi qidirib topishga muvaffaq bo'ldim, garchi bu odam ali desang bali deyidigan qaysar, diniy e'tiqodlar hozirgi zamon fanining buzg'unchilik harakatlariга tob berolmasligini isbotlashga urinayotganimda jizzakiilik qilib, jahli chiqqan bo'lsa-da, har qalay, subhatimiz zo'ye ketmadi. Mepl-Uayt Rosarioga to'rt yil burun, ya'ni o'limidan ikki yil avval kelgan ekan. U yolg'iz bo'lmay, amerikalik Jeyms Kolver degan do'sti sayohatda unga hamrohlik qilgan ekan, ammo u qirg'oqqa tushmagan va ruhoniy bilan ko'rishmagan. Shuning uchun ham ro'paramizdagi skelet xuddi ana shu Jeyms Kolverniki ekanligiga shubha qilmasak bo'ladi.

— Uning halokati shart-sharoitlari ham ana shunday shubhaga juda kam o'rin qoldiradi, dedi lord Jon, — U qoyadan yiqilib tushgan, yo bo'lmasa tepadan tashlab yuborilgan-u, bombukka sanchilgan. Bo'lmasa suyaklarning singanini izohlab bo'lmaydi. Buning ustiga bambuk uning badanini bunchalik tez teshib o'sib ketolmasdi.

Biz oldimizda yotgan suyaklarni churq etmay ko'zdan kechirar ekamiz, lord Jon Rokston aytgan gaplarning mag'izini chaqib, mulohaza yuritardik. Qoyaning chiqib turgan joyi bambukzor uzra bamisoli og'ir bolg'adek osilib turardi. Amerikalik o'sha yerdan tushib ketgan. Lekin o'zi

yiqilganmikin? Bu haqiqatan ham baxtsiz hodisamikin? Balki... Bu noma'lum mamlakat ko'zimizga allaqanday mudhish va qo'rqinchli ko'rinish ketdi.

Biz oradagi sukutni buzmay yo'lga tushib, rivoyatlarga ishoniladigan bo'lsa, o'tkach-o'tkach to'liqlari kemalarining machtalari uzra baland ko'tarilib-ko'tarilib turadigan ufqda cho'zilib ketgan bepoyon Arktika muzliklarini eslatadigan tik va silliq tosh devorlar yonidan olg'a boraverdik. Besh mil yo'l yursak-da, bu goyalar sisilasida bitta ham yoriqni, hatto darz ketgan joyni ham uchratmadik. Lekin birdan qarshimizda umid uchquni yalt etib ketdi. Yomg'ir zarralari tusha olmaydigan chuqurchada avvalgidек g'arbga yurishni ko'rsatuvchi o'q bo'ri bilan chizib ko'rsatilgan edi.

— Yana Mepl-Uayt, dedi professor Chellenjer. — U, atfidan, mening izimdan mehribon, g'amxo'r kishilar ke-lishadi-ku, deb o'ylagan bo'lsa kerak-da.

— Demak, uning yonida bo'ri bo'lgan ekan-da?

— Bo'lmasa-chi! Uning yo'l xaltasida pastel qalamlari bilan rosa bir yashik bo'ri bor edi. Oq qalamining goldig'ini ko'rganday bo'lganim esingga tushdi.

— Juda ishonchi dalil, dedi Sammerli. — Xo'sh, qani uning ishoralariga amal qilib, g'arb tomon yuraveraylik-chi.

Biz yana besh mil yo'l yurganimizdan keyin qoyaga chizilgan oq o'qni ko'rdik. Mana shu yerdagi tosh devor-da birinchi torgina yoriq paydo bo'ldi. Yoriqda yana o'q chizilgan bo'lib, u qayogqadir yuqoriga ishora qilib turardi.

O, naqadar so'lim, shukuhli bu diyor! Boshlaridagi ulkan-ulkan goyalar ko'kka bo'y cho'zgan, zangori osmonda pug'a-pug'a bulutlar suzadi, tangadek oftob tushmaydi, ikki qayta o'rab turgan yashillikdan quyosh nuri o'ta olmaydi. Biz bir necha soatdan beri hech narsa yeganimiz yo'q, tosh yo'ldan qiyinalib yurishimiz tozayam tinkamizni quritgan,

shunday joyda to'xtab orom olmay bo'ladimi! Hindularga chodir tikishni buyurdik-da, to'rtovimiz ikki metis ham-rohligida tor daraning ichi tomon yurdik.

Daranning og'zi eniga qirq fudan ziyod bo'lsa-da, keyin tezda torayib-torayib, oxiri qiyalikka tagaladi, u judayam nishab va sirg'anchiq bo'lganidan, bu yerdan yuqoriga chiqish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bizning o'tmishdoshimiz bundan boshqa joyni ko'zda tutgani aniq. Orgamizga qaytdik — daraning chuqurligi bor-yo'g'i chorak milcha kelardi, birdan lord Jonning o'tkir ko'zi bizga kerak bo'lgan narsaga tushib qoldi. Shundoqgina boshimizda, balandda, zim-ziyoy joyda yana-da qop-qora dog' ko'rindi. Bu, shubhasiz, allaqanday g'orning og'zi edi.

Vodiy etagida toshlar uymalashib yotgani uchun tepaga qiyalmay chiqq oldik. Hamma shak-shubhalarimiz barta'raf bo'ldi. Mana o'sha g'orga kiritadigan joy, uning oldida yana bo'r bilan chizilgan o'q! Demak, shu yerdan, xuddi mana shu joyning o'zidan Mepl-Ulayt va uning baxtiqaro hamrohi yassitog' tepasiga ko'tarila boshlagan.

Biz shu qadar hayajonlanib ketdikki, hatto lagerimizga qaytib borishniyam o'ylamay qoldik. Tezlik bilan g'orni tekshirib chiqishni xohlardik. Lord Jon yagona nur man-bayimiz xizmatini o'tashi kerak bo'lgan elektr fonarchasini yelkasiga osib olgan qopchig'idan chiqarib, qoyalarga sariq nurlar tushirib olg'a yurdik. Undan keyinda qolmay borardik.

Devorlarining silliqligiga, uyum-uyum toshlarining yumaloqligiga qaraganda, qoyalarning bu chuqurini suv yuvib ketgan edi. Uning ichiga bitta-bitta bo'lib, judayam engashib zo'rg'a kira oldik. Dastlabki ellik yard masofa davomida g'or qoya ichiga chuqurlashib bordi, keyin esa qirq besh daraja burchak hosil qilib, yuqoriga ko'tarila boshladi. Ko'tarilish so'qmog'i yana-da tiklashdi va biz

mayda, sochiib turgan shag'al ustidan emaklab yurishga majbur bo'ldik. Yana bir necha daqiqa o'tar-o'tmas lord Rokston qichqirib yubordi:

— Bu yog'iga yo'l yo'q!

Uning orqasidan tiqilishib, fonarning sariq yorug'ida uvalanib tushib, g'orning shiftigacha uyulib ketgan bazalt jinslarini ko'rdik.

— O'pirilishi!

Biz bir necha toshni olib tashladik, lekin buning foydasi bo'lmadi, katta-katta toshlar liqillab qoldi, xolos, ular qulab tushib bizni bosib qolishi mumkin edi. Bunday to'siqdan o'tishga kuchimiz yetmasligi aniq. Mepl-Ulayt borgan yo'l endi yo'q.

Bu holdan nihoyatda ezilib, churq etmay orgamizga qaytib, qorong'i darada kalovlanib yurdik. Lekin shu yerda bir hodisa ro'y berib, boshqa hamma voqealardan oshib tushdi.

Biz dara tubida g'uj bo'lib turganimizda qo'qisidan yonginamizdan kattakon tosh uchib o'tdi. Bir o'lindan qoldik. Bu ulkan toshning gayerdan ko'chib tushganini turgan joyimizdan ko'rib bo'lmadi, lekin g'or og'zida qolgan ikki metlsning gapiga qaraganda, tosh ularning ham yonidan g'iz etib o'tgan, binobarin, bu xarsang qoya cho'qqisidan boshqa joydan tushgan emas. Biz tepaga qaradik, lekin goya chelalarini hoshiyadek o'rab olgan o't-o'lanlar orasida qit etgan harakat sezilmasdi. Shunday bo'lsa-da, tosh bizga mo'ljallanganligiga hech birimiz shubhalanmasdik, Demak, yassitog' ustida odamlar bor, ulardan yomon narsalarni kutish mumkin!

Biz bu kutilmagan voqea rejalarimizni buzib yubormasa ko'rga edi degan fikrda shoshilinch ravishda daradan chiqdik. Ahvolimiz busiz ham og'ir edi, tabiatning o'zi qo'ygan g'ov yetmagandek, yomon niyatli kishilarning g'ulusi ham qo'shisa holimiz nima kecharkin? Ikkinchi yoqdan, bor-

yo'g'i yuz futcha narrog'imizdagi ana shu qalin o't-o'lanlar orqasida nima borligini bilmasdan Londonga qaytib borishga kim ham jur'at qila olardi? Bu holni muhokama qilib, yassitog'ni aylanib o'tib, cho'qqiga chiqish mumkin bo'ladigan joyni qidirib topishga qaror qildik. Qoyalar silsilasi endi ancha pasayib, g'arbga emas, shimolga qarab ketgandi, agar bosib o'tgan yo'limizni doiraning bir sektori deb qabul qilsak, demak, doira uncha katta emas ekan. Hech bo'lmaganda bir necha kundan keyin aylanib o'ta boshlagan nuqtamizga qaytib kelamiz-ku axir.

Shu kuni yigirma ikki mil yo'l yurib hech nimaga erisha olmadik. Lekin shuni aytib qo'yayki, aneroïd barometriming ko'rsatishicha, qayiqlarimizni tashlab ketgan joyimizdan sekin-asta dengiz sathiga nisbatan kamida uch mil yuqori ko'tarilibmiz. Harorat va o'simliklarning o'zgarishiga sabab shu ekan-da. Biz tropik o'rmonlarda sayyohlarning jonini egovlaydigan la'nati hasharotlardan qariyb qutulib qolgandik. Palmalarning ba'zi turlari hali uchrab turadi, darraxsimon paprotniklar hamon ko'plab o'sib yotipti, lekin Amazonka havzasida juda serob bo'ladigan baland daraxtlardan nom-nishon qolmabdi. Ammo bularning o'rni shu xo'mraygan qoyalar orasida jonajon o'lkamizni eslatuvchi o'zimizning gullardan pechak, strastotsvet va begoniyalarni uchratish naqadar quvonchli! Stritem ko'chasidagi bir hovlining derazasida xuddi shunday qizil begoniya guli o'sib turganini ko'rgan edim... E, nimalar deyapman, shaxsiy xotiralarga berilib ketdim shekilli!

O'sha oqshom – biz tog' silsilasini aylanib o'tgan o'sha birinchi kunimiz haqida gapiryapman – shunday voqegaga duch keldikki, bundan keyin bizni faqat mo'jizalar kutayotganiga hech kim shubha qilmay qo'ydi.

Azizim mister Mak-Ardli! Siz bu satrlarni o'qir ekan-siz, meni redaksiya ilk daf'a bu yoqqa bekorga yubormaganligini, professorning ruxsati bilan chop etsa bo'ladigan

bu materialning nihoyatda qiziqarli ekanligini his qilasis. So'zlarimning rostligini tasdiqlovchi ashyo-yu dalillar bilan Angliya esa onomon qaytib borsam, o'zimoq uni e'lon qilishga jur'at etaman, bo'lmasa meni ham yangi Myunxgauzen deb yurishmasin tag'in.

Siz ham, balki, bu masalada men bilan hamfikir bo'lsangiz kerak, binobarin, mening maqolalarim muqarrar qo'zg'ashi mumkin bo'lgan tanqid va skeptisizmlar bo'ronidan munosib ravishda muhofazalanishimizga qodir bo'lgunimizcha, mazkur materiallarni e'lon qilmassiz, „Deyli gazeti“ nufuziga putur yetkazmassiz, deb o'ylayman. Shu boisdan bu g'aroyib voqea haqidagi hisobot qariyamiz „Deyli“ga gultojdek shov-shuvga sabab bo'luvchi debocha bo'ladi-da! – stolingizda vaqti-soatini kutib yotaversin.

Vaholanki voqea bir lahzada bo'lib o'tdi, undan milyalarimizda izlargina qoldi.

Voqea shunday yuz bergan edi. Lord Jon cho'chqadek keladigan bir hayvon – agutini o'lgandi. Go'shtining bir mintasini hindularga berib, qolgani o'zimiz uchun gull-xanda kabob qila boshladik. Qorong'i tusha boshlashi bilan bu yer so'vib ketadi, shuning uchun har birimiz mumkin qadar olovning pinjiga yaqinroq suqilib olamiz. Oysiz zim-ziyo tun bo'lsa ham yulduzlar tekislik ustini qoplagan qorong'ilik pardasini yoritmoqchidek bo'lishardi. Qo'qis-dan, ana shu qorong'ilikdan, ana shu zim-ziyo tun qo'ynidan allaqanday bir maxluq aeroplan tovushiga o'xshab hushtak chalib, tepadan gulxanimiz tomon uchib kela boshladi. Pardali qanoatlari xuddi ko'rpadek ustimizga yopildi, shu chog' men uning ilonnikiga o'xshash bo'yini, qip-qizil cho'g'dek yonib turgan qo'rqinchli ko'zlarini, meni hayrat-da lol qoldirgan mayda sadafdek tishlar bilan to'la kattakon uzun tumshug'ini ko'rib qoldim. Bir lahza ham o'lmay bu maxluq... kechki ovqatga tayyorlanayotgan yemishimiz bi-

lan birga g'oyib bo'ldi-qoldi. Eniga yigirma fut keladigan ulkan qora soya osmoni-falakda parvoz qilib, bahaybat, qanotlari yulduzlarni to'sib, tepamizda yuksalgan goyalar ortida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Biz hammamiz bamsoli gapriyalar¹ hujumiga uchragan Virgiliy qahramonlariga o'xshab gulxanimiz atrofida miq etmay o'tirib qoldik. Sukutni birinchi bo'lib Sammerli buzdi:

— Professor Chellenjer, — tantanavor, hayajondan tiroq tovushda dedi u, — sizdan kechirim so'rashim kerak. Men nohaq ekanman, ser, o'tgan ishga salavot, unutarisiz degan umiddaman.

Bu gap o'z vaqtida aytilgandi, ikkala olimimiz birinchi marta qo'l siqib ko'rishishdi. Pterodaktil bilan birinchi bor bevosita uchrashuvimiz bizga ana shunday quvonchli daqiqalarni armug'on etdi! Bu odamlarning yarashishlari uchun ovqatimizdan aytilganimiz ham alam qilmadi.

Lekin yassitog'da tariximizgacha mavjud bo'lgan maxluqlar bo'lsa bordir, biroq ular, affidan, ko'pga o'xshamaydi, chunki keyingi uch kun ichida unga o'xshagan hech nimani uchramadik. Shu kunlar davomida biz biyday, qipiyalang'och, yurakni siqadigan yassitog'ning shimoliy va sharqiy devori yoqalab yuraverdik. Avvaliga toshloq sahro, keyin yovvoyi qushlari ko'p bo'lgan g'am-anduh og'ushidagi botqoqliklarni bosib o'tdik. Bu joylarga odam oyoq bosmagan, goyalarining shundoqgina tagidagi mana shu torgina yo'l bo'lmaganida, organimizga qaytarmidik.

Bu yarimtropik botqoqliklar atalasiga necha martalab tushib ketmadik! Lekin hammasidan dahshatlisi — Janubiy Amerikaning eng zaharli, eng yovuz ilonlari — yaraka-ki edi. Bunaga ilonlar shu botqoqliklarda juda ko'p ekan. Ular qo'lansa botqoqliklardan gala-gala bo'lib chiqishib,

¹ *Gapriyalar* — qadimgi yunon mitologiyasidagi qanotli yirtqich maxluqlar.

organimizdan sapchib qolishardi. Doimo o'qlab olib yurgan miliqlarimizgina bizni omon saqlardi. Men, ehtimol, kulrang-ko'kimtir qurbaga o'tlarga burkangan botqoqlikning voronkasimon chuqurlaridan biriga tushib ketganida kechirgan dahshatli holatimni umrbod unutasam kerak. O'sha chuqur haligi gazandalarning ini ekan, chuqurining yon-verlarida bu ilonlar g'ujg'on o'ynab yotishgan ekan, shu ondayoq biz tomon yugurishdi, chunki yarakakilar odamni ko'rishlari bilan oq unga daf qilishlari bilan mashhur-da. Ilonlarning hammasini o'tib yo'q qilib bo'lar-midi, shuning uchun kuchimizning boricha ura qochdik. To'xtaganimizda orgamga bundoq qarasam, bizni ta'qib qiluvchi dahshatli maxluqlar qamishlar orasida o'rnatilab kelishyapti, xurujni to'xtatgilar yo'q, men bu manzarani hech qachon unutmayman. Biz chizayotgan xaritada bu joyni Ilon botqog'i deb atadik. Yassitog'ning sharqiy tomonidagi goyalar qizil emas, balki to'q-jigarrangda ekan, uning cho'qqisida xoshiyadek bo'lib turgan o't-o'lanlar ancha siyraklashib qolgan, lekin tog' tizmasining umumiy balandligi uch yuz-to'rt yuz futcha kamaygan bo'lsa-da, yugoriga ko'tarilishimiz uchun qulay joy topmadik. Bu yerdagi goyalar biz aylanib o'tayotgan joylardagidan ham tikroqqa o'xshaydi. Bularga chiqib bo'lmashligini toshloq sahro tomondan olib, mazkur hisobotga ilova qilingan suratdan ham bilisa bo'ladi.

— Lekin yomg'ir suvlari pastga oqishi kerak edi-yu, — dedim kelgusi ishlarimiz muhokamasi paytida. — Demak, qiyaliklarda o'pgon bo'lmashligi mumkin emas.

— Navgiron do'stimizning aqli ba'zan balodek ishlab qoladi, yaxshi fikrlar ham chiqadi, — javob berdi professor Chellenjer yelkamga qoqib.

— Yomg'ir suvlari qayogqadir chiqib ketishi kerak-ku, — takrorladim men.

– Qoyil, fahm-u farosatingga balli-ye! Aql-u zakovating joyida! Lekin falokat shundaki, biz ana shunaga o'pqonlardan bittasiniyam uchratmadik-da.

– Unda suv qayoqqa ketadi?

– Sizib chiqadigan joy bo'lmaganidan keyin bir yerga yig'lsa kerak.

– Demak, yassitog' markazida ko'l bor ekan-da?

– Shunday bo'lsa kerak.

– Ko'l qadimgi krater o'rniida paydo bo'lganligi ehtimoldan xoli emas, – dedi Sammerli. – Bu tog' tizmasi vulqon otilgan paytda bo'lgan. Har qalay, o'ylashimcha, yassitog'ning usti o'rtasiga qarab nishablanib borsa kerak, unda esa kattagina rezervuar bo'lib, yig'ilgan suv allaqanday yerosti yo'llari bilan Ilon botqog'iga oqadi.

– Yo bo'lmasa bug'lanib ketadi, bu ham haroratning ma'lum darajada saqlanishiga ko'maklashadi, – deya gap qistirdi Chellenjer. Shundan keyin olim-u zukkolar tarki odat – amri mahol degandek, bizdek omilar hech vaqoni tushunmaydigan ilmiy bahslarini boshlashdi.

Oltinchi kuni biz tog' tizmasini aylanib o'tib, piramidasimon qoya poyidagi avvalgi qo'nalg'amizga qaytib keldik. Hafsalamiz pir bo'lib, xafa bo'lib qaydik, chunki tog'ni aylanib o'tganimizdan keyin eng epchil, eng dovyurak odam ham bu yassitog' ustiga chiqishga jur'at etolmasligiga qat'iy ishonch hosil qilgan edik. Mepl-Uaytning yo'l ko'rsatuvchi belgilarini (aftidan, o'zi ham shu ishoralardan foydalangan bo'lsa kerak) boshlab boradigan dara tomonga endi o'tib bo'lmadi.

Endi nima qilamiz? G'amlagan oziq-ovqatimiz, ov qilib topgan yemishlarimiz yetarli bo'lsa ham, bir kun emas bir kun yana ovqat izlashga majbur bo'lamiz-ku. Ikki oydan keyin yog'ingarchiliklar boshlanadi, unda lagerda o'tirib bo'lmaydi-da. Bu qoyalar marmardan ham qattiq bo'lgani

uchun uni kesib so'gmoq yo'l qilishga vaqtimiz yo'q, kuchimiz ham yetmas edi. Shuning uchun ham o'sha kechasi hammamiz xo'mrayib bir-birimizga tikilgancha, biror og'iz ortiqcha so'z aytmay, ko'rpaga o'rilib yotganimizga ajablanmasa ham bo'ladi. Uxlashimdan oldin qiziq bir manzaraning maroqlanib kuzatdim: Chellenjer bamisoli ulkan cho'l qurbasiga o'xshab, gulxan yonida cho'ngayib, kattakon kallasini qo'lga tiragancha fikrga tolgan edi, hatto „xayrli tun“, deganimga ham javob qilmadi.

Ammo ertalab butunlay boshqa Chellenjerni ko'rdik. Bu Chellenjer, aftidan, o'zining mo'tabarligidan o'zi g'ururlanib, saxt-sumbati bilan talayib, o'zidan o'zi mamnunligini namoyish qilardi. Nonushta paytida o'zini kamtarlikka olib sipo o'tirdi, turish-turmushi go'yo: „Hamma maqlovlarninga munosibman, men buni bilaman, meni uyatirib, qizartirvermalarimg“, – deya yotgandek edi. Sog'oli cho'chmayib kelgan, ko'kragi oldinga chiqqan, o'ng qo'li esa kamzullining orgasida edi. U o'zini Trafalgar-skverdagi hali navbatdagi london tasqarasi egallashga ulgurmag'an shoxsupada turganday tasavvur qilsa kerak chog'i.

– Evrikal – qichqirdi nihoyat Chellenjer sog'oli orasidan tishlarini yaltiratib. – Meni tabriklashlaring mumkin, men esa sizlarni tabriklasam bo'ladi. Masala hal bo'ldi!

– Yassitog'ga chiqadigan yo'lni topdingizmi?

– Shunday deb o'ylashga jur'at etaman.

– Qayogdan, ayingi!

Chellenjer javob o'miga qo'nalg'amizning o'ng tomonida yuksalib turgan piramidasimon qoyaga ishora qildi. Hammamizning afimiz g'alati bo'lib ketdi, har qalay, o'zining basharam o'zgarib, cho'zilib ketganiga kafliaman. Chellenjerning so'zlaridan mana shu goya ustiga ko'tarilish mumkinligini bildik. Axir, u bilan yassitog' o'rtasida tubsiz jar bor-ku!

– Biz undan aslo oshib o'ta olmaymiz-ku, – dedim men zo'r-bazo'r.

– Bu cho'qqiga biz bir amallab chiqamiz, – dedi u. – U yerda esa ko'rarmiz, balki sizlarga son-sanogsiz kashfiyotlarini namoyish qilarmen.

Nonushtadan keyin barcha alpinistik asbob-anjomlarimiz joylangan qopni ochdik. Undan temir timoqlarni, uskunalarni, yuz ellik fut uzunlikdagi baquvat va yengil arqonlarni oldik. Lord Jon tajribali alpinist. Sammerli ham alpinistlar qatori qiyin ko'tarilishlarda qatnashgan edi, binobarin, oramizdagi bu ishga ilk bor qadam qo'yuvchi yolg'iz men ekanman. Lekin kuch-g'ayratim bilan zavq-shavqim tajribasizligim o'rmini bosishi kerak.

Garchi ba'zan qo'rquvdan sochlarim tikka bo'lib ketgan vaqtlar ham bo'lsa-da, vazifa unchalik og'ir emasdi. Ko'tarilishning birinchi yarmi juda jo'n ko'chdi, lekin keyin qoyatosh tobora tikkeyib boraverdi, o'ttiz fut masofani qiyinalib, har bir do'ngga, har bir yoriqqa oyoq qo'yib, tir-mashib siljiyverdik. Agar Chellenjer bo'lmaganida men ham, Sammerli ham bu qoyatoshga chiqqa olmasdik. U birinchi bo'lib cho'qqiga chiqdi-da (shunday semiz odamning epehilligini kuzatishning o'zi maroqli edi), arqonni o'sha yerda o'sayotgan katta daraxtning tanasiga bog'ladi. Biz uning yordami bilan notekis tosh devordan sudralib, yuqoriga ko'tarilaverdik, eni yigirma besh fut keladigan o't-o'lanlar o'sib yotgan maydonchaga chiqib oldik. Bu qoyatoshning naq cho'qqisi edi.

Nafasimni roslab olgach, orgamga qaragam, ko'z ol-dimdagi manzarani ko'rib hayranda qoldim. Nazarimda butun Braziliya tekisligi ko'kinitir tuman qo'ynida uzoqlarga, ufqgacha cho'zilib, yastanib yotgandek ko'rindi. Shundoq-qina oyog'imiz tagidan u yer-bu yerida daraxtsimon papo-rotniklar o'sib yotgan, tepaliklarining o'rkachida esa biz

yaqinda o'tib kelgan sariq-yashil bambukzorlari ko'zga yaqqol tashlanib turgan yassitog' qiyaligi boshlanardi. Keyin butalar va daraxtzorlar quyuqlashib-quyuqlashib, nihoyat changalzorning zich devoriga aylandi; bu changalzor ko'z ilg'amas puchmoqlarga, balki mamakatning rosa ikki ming mli yeriga cho'zilib ketgan edi.

Men bu maftunkor manzaraning sehriga berilib turarkanman, birdan professorning og'ir qo'li yelkamga tushganini his qildim.

– Siz bu yoqqa qarang, navqiron do'stim, – dedi u. – Vestigia nulla retror sumi!¹

Olg'a intiling, shonli maqsadimizni ko'zlang, yigit!

Men nigohimni yassitog' sari burdum. U biz turgan joy sathida bo'lib, chelarini onda-sonda daraxtlar ham ko'rinadigan butazorlar yam-yashil hoshiyadek o'rab olgan bu yassitog' qoyatoshga judayam yaqin bo'lgani uchun, nahoki uning ustiga chiqish shunchalar qiyin bo'lsa, degan shubha xayolimiga keldi. Ko'z bilan chamlaganda, bu jarlik eniga qirq futdan oshmas edi, lekin baribir emasmi – qirq futni yoki to'rt yuz futni?

Men daraxtning tanasini ushlaganimcha pastga, jarga qaradim. Ikkala devor – tog' tizmasining ham, qoyatoshning ham devori tippa-tik edi.

– Juda g'alati narsa ekan-da! – ortimdan professor Sammerlining xirillagan tovushi eshitildi.

Orgamga o'g'irilgan edim, uning meni jarga yiqilib ketishimdan saqlab turgan daraxtni zo'r qiziqish bilan kuza-tayotganini ko'rdim. Uning sillig po'stlog'i va mayda-mayda qovurg'asimon barglari judayam tanishdek tuyuldi.

– Bu axir shamshod daraxti-ku! – xitob qildim men.

– Mutlaqo to'g'ri, – tasdiqladi Sammerli. – Bizning hamshaharimiz ham musofir bo'lib kelib qolgan ekan-da.

¹ Orgaga bir qadam ham qo'yma! (lotincha)

— Hamsahargina emas, muhtaram ser, to'g'ridan to'g'ri ittifoqchimiz deyavering, — dedi Chellenjer. — Bu shamshod bizning xaloskorimiz bo'ladi.

— Ko'prik! — qichqirdi lord Jon. — O, mehr-u shafqati Xudo, ko'prik!

— To'g'ri, do'stlarim, ko'prik! Kechasi bir soat o'ylab, biror yo'l izlaganim zoye ketmadi. Navqiron do'stimizning esida bo'lsa kerak: unga bir gapni aytgandim — ya'ni Jori Eduard Chellenjer hamma yopirilib siqshirgan chog'larda ham o'zini juda yaxshi his qiladi degandim. Kecha — sizlar, albatta, buni inkor etmaslaringiz kerak — hammamiz tang ahvolda qolgan edik. Lekin fahm-farosat bilan iroda uyg'unlashib harakat qilsa, mushkulotdan qutulish yo'li hamisha topiladi. Ana shu jar uzra ko'prik solish kerak. Mana o'sha ko'prik, oldilaringizda!

Haqiqatan ham, ajoyib fikr! Daraxtning uzunligi kamida oltmish futcha bo'lib, uni lozim bo'lgan tarzda yiqitilsa, jar-ko'prik bo'ladi qo'yadi. Chellenjer ko'tarilishga hozirlik ko'rarkan, boltasini qo'lga oldi. Endi uni menga uzardi.

— Navqiron do'stimizning mushaklari rosayam baquvat. U mana shu vazifani hammadan ham yaxshiroq do'ndiradi. Shunday bo'lsa ham sizdan iltimos, faqat sizga aytilgan ishini qiling, boshqa narsalar bilan miyangizni qotirib o'tirmang.

Uning ko'rsatmalariga amal qilib, daraxtni lozim bo'lgan tomonga qulaydigan qilib chopa boshladim. Vazifa uncha qiyin emasdi, chunki daraxtning tanasi yassitog'tomonga judayam yonboshlab qolgan ekan. Keyin lord Jon bilan galma-gal ishga jiddiy kirishib ketdik. Taxminan bir soatlardan keyin kuchli qarsillagan tovush eshitildi, daraxt tebranib-tebranib, uchidagi shox-shabbalari bilan jarning narigi tomonga gursullab qulab tushdi. Tanasi maydonchening eng chetiga surildi, bir lahza daraxt pasga qulab tushayotgandek bo'lib ketdi. Lekin u maydoncha chetiga

Bo'qolgan dunyo
bir necha duym qolganda tebrana-tebrana turib qoldi. Noma'lum mamlakatga ko'prik tashlandi!

Biz hammamiz bir kalima ham so'z aytmay, professor Chellenjerning qo'lini qisib chiqdik, u bo'lsa poxol shlapasini qo'lga olib, har birimizga ta'zim qilardi.

— Noma'lum mamlakatga birinchi bo'lib oyog' qo'yish sharafti menga muyassar bo'lishi kerak, — dedi u. — Bu tarixiy daqiqani rassomlar o'z asarlarida aks ettirishlariga shubham yo'q.

U endi jar yoqasiga kelgan ham ediki, lord Jon kamzulidan ushlab qoldi.

— Qimmatli professor, — dedi u, — men bunga aslo yo'l qo'ymayman.

— Ya'ni masalan, bu qanqasi ser? — Chellenjerning boshi orgasiga tashlandi, sog'oli yuqoriga cho'qqaydi.

— Ilm-fanga taalluqli jamiki narsada sizning birinchiligingizni tan olaman, chunki siz olimsiz. Lekin bu ish menga munosib, shuning uchun marhamat qilib menga quloq soling.

— „Menga munosib“, deganingiz nimasi, ser?

— Har birimizning o'z kasbimiz bor, mening kasbim askarlik. Fikri o'jizimcha, axir biz Noma'lum bir mamlakatga otlanyapmiz, balki, unda dushmanlar to'lib yotgandir. Biroz aql-farosatni ishlatib, sabr-qanoatli bo'lish kerak. Men o'ylamasdan ish qilishga odatlangan emasman.

Lord Jonning mulohazalari nihoyada o'rindi bo'lgani uchun hech kim u bilan bahslashib o'tirmadi. Chellenjer boshini silkib, yelkasini qisdi.

— Xo'p, yaxshi, ser, qanday taklifingiz bor?

— Kim biladi deysiz, balki, mana shu butalar orgasida gonicharlar qabilasi yashirilib yotgandir, ayni ovqatlanadigan vaqtlarimkin? — dedi lord Jon ko'prik osha qoyalarga tikilib. — Qaynab turgan qozonga borib tushsak, keyin kech

bo'ladi o'ylashga. Shunday ekan, bas, kelinglar, ishning xavf-xatarsiz, yaxshi bo'lishini o'ylaylik, har qalay, ehtiyoqlik bilan harakat qilgan yaxshi-da. Biz Meloun bilan pasiga tushamiz-u, to'rttala miltiqning hammasini olib, ikki metris bilan birga qaytib chiqamiz. Keyin bironimiz miltiqlar panohida naryoqqa o'tadi, hech qanday xavf-xatar bo'lmasa, uning ortidan qolganlar ham o'tadi.

Chellenjer kesilgan daraxt to'nkasiga o'tirdi-da, toqatsizlanib ingrab qo'ydi, biz Sammerli bilan, amaliy ishga kelganda rahbarlik, shubhasiz, lord Jonda bo'lishi kerak deb hisoblab, bir og'izdan uni quvvatladi. Endi qoyaga ko'tarilish ancha osonlashgandi, chunki eng qiyin joylarda arqon yordam berardi. Bir soatdan keyin biz miltiq va sochma o'qlar bilan qaytib chiqdik. Mabodo Noma'lum mamlakatga ilk yurishimiz cho'zilib ketgudek bo'lsa asqotadi, degan fikrda lord Jonning ko'rsatmasiga binoan, metislar yemishlarimiz solingan qopni yuqoriga olib chiqishdi. O'qlar har kimning o'zida edi.

— X-xo'sh, Chellenjer, albatta birinchi bo'lishni xohlasangiz... — dedi lord Jon hamma tayyorgarliklar ko'rib bo'lgach.

— Bunday muruvvat va marhamat qilib ruxsat bergangiz uchun sizdan bisyor minnatdorman! — g'azab bilan dedi o'zidan boshqa hech kimning obro'sini tan olmaydigan professor. — Modomiki siz qarshi emas ekansiz, men muruvvatigizdan foydalanib, bu ishda pioner bo'lishga tayyorman.

U boltani beliga gistirtdi-da, daraxtga minib olib, ikki qo'lini ishga solib, surila-surila tezda narigi tomonga o'tib oldi.

— Xayriyat! — qichqirdi u. — Xayriyat!

Men uning bu qalits o'yini zamirida qanday taqdir yashiringan ekan, deb qo'rguv bilan kuzatardim. Lekin hamma

yoq jimjit, faqat allaqanday olqush professorning oyog'i ostidan potiriblab uchib, daraxtlar orasida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Jardan professor izidan ikkinchi bo'lib Sammerli o'tdi. Bu zaif tanada qancha kuch-g'ayrat borligini ko'rib hayron qolasiz! U ikki miltiqni ko'tarib o'tishga xohish bildirgan, endi ikkala professor ham qurollangan edi. Keyin navbat menga keldi. Men tagimdagi dahshatli jar manzarasiga qaramaslikka harakat qilardim. Sammerli menga miltig'ining qo'ndog'ini uzatdi, bir soniyadan keyin esa uning qo'ltidan ushlab oldim. Lord Jon bo'lsa ko'prikan bematol — hech nimani ushlamasdan dadil o'tdi! Bu odamning asablari temirday mustahkam edi.

Mana biz to'rttovimiz — sehrlil mamlakatdaminiz, yolg'iz Mepl-Uayt o'ta olgan yo'qolgan olamdaminiz! Eng buyuk tantana daqiqasi boshlandi. Lekin ana shu dam bizga ulkan falokat keltirishini kim ham o'ylapti deysiz? Bu dahshatli zabraga qanday duchor bo'lganimizni bayon qilishga ijozat bering.

Biz jar yogasidan uzochlashib, qalin butazor ichiga ellik fucha yurgan ham edikki, birdan organimizda qulog'ni gomatga keltiruvchi gulduros ovoz eshitildi. Jonholada orqaga yugurdik, ko'prigimizdan nom-nishon qolmapiti!

Jar tubiga qaragam, shox-shabbalarning ayqash-uyqash bo'lib yotganini ko'rdim — shamshod daraxtidan qolgan-qutgani shu bo'libdi. Nahotki maydonchanning cheti bitta daraxtning og'irligini ko'tara olmay, uvalanib tushgan bo'lsa? Bizning miyamizga kelgan birinchi fikr shu bo'ldi. Keyin piramidasimon qoyatoshning zinasidan allakimning jigarrang basharasi ko'rindi. Bu o'zimning metisimiz Gomes edi. Ajabo, uning bosiq tabassumi-yu pismiqligi qayerda qoldiykin? Bizga boqqan basharani nafat hissi xunuk qilib yuborgan, qasosdan qoniqish olgan ko'zlarida tentakona tantana yog'dusi porlardi.

– Lord Rokston! – qichqirdi u, – Lord Jon Rokston!

– Nima kerak senga? – javob berdi hamrohimiz. – Men bu yerdaman!

Bir arava shag'al ag'darilgandek xaxolash eshitildi bizga.

– Ha, sen o'sha yoqdasan, ingliz iti, endi o'sha yerda gundon bo'lasan, chiqib bo'psan! Menga ham navbat kelishini kutardim, uzoq kutgan edim. Yugoriga juda qiyinlab chiqqandilaring, pastga tushishlaring undan ham battar bo'ladi. Eh, omilar! Rosa tushdilaringmi tuzoqqa?

Hammalaring tushdilaring!

Bu holdan hang-mang bo'lib, metisga tikilgancha biror og'iz so'z aytishga majolimiz kelmasdi. O't ustida yotgan katta bir shox ko'prigimizning jarga tashlab yuborilishida dastak vazifasini bajarганиni angladik. Gomesning afti bu-talar orasiga yashirindi, lekin bir daqiqadan keyin g'azabdan yana-da xunuklashib ko'rindi.

– Biz sizlarni g'or ichida toshbo'ron qilib o'ldirishimizga oz qoluvdi, – qichqirdi u, – lekin endi yanayam yaxshi bo'ldi! Sekin-asta o'lish dahshatliroq. Suyaklaring ogarib ketadi, ularni yig'ishtirib, yerga ko'madigan odam topilmaydi. Joning hiqildog'ingga kelib, nafasing bo'g'itilganda, besh yil burun Putumayo daryosi sohilida o'zing o'ldirgan Lopesni eslarsan! Men uning ukasiman, endi qanday o'lim boshimga tushsa ham xo'rtjam oyog'imni uzatib ketaman, chunki akamning gasdini oldim!

Metis mushtini bizga do'laytirib, po'pisa qildi-da, g'o-yib bo'ldi. Hamma yoq jimjit bo'lib qoldi.

Gomes gasdini olgandan keyin indamasdan ketaversa hech nima bo'lmasdi. Lotin irqidan bo'lganlarning hammasiga xos bo'lgan zo'r tomoshaga hirs qo'yish odati Gomesning ham boshiga yetdi, Lotin Amerikasining uch mamlakatida „Xudoning g'azabi“ nomini olgan lord Rokston esa o'z ustidan maynavozchilik qilishlariga yo'l qo'ymasdi. Metis bu vaqtda qoyatoshning narig'i tomonidan

pastga tushib ketayotgandi, ammo yerga eson-omon tushish unga nasib bo'lmadi. Lord Jon uni ko'zdan yo'qotmaslik uchun yassitog'ning chetiga yugurib bordi. O'q tovushi gumburladi, dahshatli ingrashni eshitdik, bir lahzadan so'ng esa yerga qulab tushgan tananing gursullashi qulog'imizga yetdi. Rokston yonimizga qaytib keldi, basharasi toshdek qotib qolgan o'xshardi.

– Ko'r ekanman, judayam sodd ekanman! – afsus-nadomat bilan derdi u. – Mening ahmoqliгим hammalaringni nobud qildi. Bu odamlarning hech nimani unutmashligini, ular bilan doimo hushyor bo'lish lozimligini esdan chiqarganim alam qiladi.

– Nega o'zingiz boshqa metisga rahm qildingiz? Axir Gomes uning yordamisiz daraxtni eplay olmasdi-ku.

– Uni ham o'ldirdim-u, lekin ayadim-da. Lekin, aslini olganda, siz haqsiz. Uni ham otib o'ldirganim yaxshi edi: echimol, u Gomesga yordam bergandir.

Mana endi, bu xoinlikning haqiqiy ma'nosi aniqlangach, biz metisning xulq-atvori ko'p hollarda shubhali bo'lganini eslay boshladik. Hamma narsa: uning ekspeditoriya rejalarini bilib olishga zo'r berib urinislari ham, bizning gapimizni eshitishga urinayotganda chayla yonida Sambo bilan g'ijillashgani ham, ko'pincha ko'zimizga chalinib qoladigan nigohining g'azabnok bo'lishi ham endi tushunarli edi. Biz yuz bergan voqealarga birmuncha ko'nukib, ularni muhokama qilayotgan paytimizda qo'qqisdan pastda, qoyatosh etagida yuz bergan g'alati bir hodisa diqqatimizni o'ziga jalb etdi. Oq kiyimdagi odam – aftidan, tirik qolgan metis bo'lsa kerak, ketidan quvib kelayotgan ajal changalidan qutulish uchun kuchining boricha yugurar edi. Uning ortidan esa katta-katta qadamlar bilan sakrab-sakrab mumdek qop-qora devgomat odam – bizning sodiq negrimiz Sambo – yeldekk uchardi. U ko'z oldimizda qochqoqqa yetib oldi-da, belidan quchoqlab bo'yindan g'irrag'a oldi.

Bir daqiqa o'tgach, Sambo o'rmidan turdi, oldida cho'zilib yotgan murdaga tikildi-da, biz tomon quvonch bilan qo'lini silkitib, qoya tomon yugurib ketdi. Oq murda tekislik o'rta-sida qimir etmay yotaverdi..

Ikkala sotqin ham intiqomga uchradi, biroq ularning qilinishlari tufayli, biz o'nglanmas zarbaga duchor bo'ldik. Biz qoyatoshga qaytib bora olmaydigan bo'ldik. Bir vaqt-lar „qarorgohimiz“ butun olamdan iborat bo'lsa, endi u shu yassitog' maydonchalik toraydi. U ham, bu ham alohi-da-alohida mavjud edi. Mana, o'sha bizning qayqlarimiz yashiringan joyga olib boradigan tekislik. Huv u yoqda – niliy harir parda orqasidagi ufqda esa – madaniy olamga qayta olib boradigan yo'l... Faqat yakka-yu yagona narsa, shu ikkisini bog'lovchi bo'g'in g'oyib bo'lgandi. Bizning hozirimiz bilan kelajagimiz o'rta-sidagi jarmi bog'laydigan ko'priknı tiklash uchun hech qanday kashfiyot ish bera ol-masdi. Bir lahzada hammasi o'zgardi-qoldi.

Mana shunda men uch hamrohining zuvalasi qanday xamirdan qorilganini bildim. Albatta, ularning qiyofasi juda jiddiy, filrlar ummoniga cho'mgan bo'lsa ham, bu odamlarning sabot-matonatini buza oladigan kuch dunyoda yo'q edi. Biz butalar ostiga o'tirib, Samboning qaytib ke-lishini sabr bilan kutishdan o'zga ilojimiz yo'q edi. Haqiqat-tan ham ko'p o'tmay, uning yoqimli qop-qora chehrasi tosh-lararo yana ko'rindi va uning alpday qaddi-qomati cho'qqi uzra yuksaldi.

– Endi men nima qilmoq? – qichqirdi Sambo. – Sizlar gapirmoq, men hammasini qilmoq.

Bunday savolni berish oson, ammo unga javob berish mushkul edi. Biz faqat bir narsani bilardik: Sambo – tashqi dunyo bilan aloqamizning yagona ishonchli rishtasi. Faqat bizni tashlab ketmasa bas!

– Yo'q, yo'q! – qichqirdi Sambo. – Men sizlarni tash-lamagan. Men doim shu yerda. Hindular kemogchi bo'lmoq.

Sambo hindularni ushlab turolmas. Ular aytadi: bu yer-ga Kurupuri yashagan, uyga ketamiz. Sizlar yo'q, Sambo bir o'zi bo'lsa hindularni ko'ndira olmas.

Haqiqatan ham keyingi paytlarda hindular bizni tashlab, kelgan tomonlariga ketish niyatida ekanliklarini yashirish-masdi. Sambo to'g'ri aytyapti: ularni tutib turishning hech qanday iloji qolmagan edi.

– Sambo, hindularni ertagacha kutib turishga ko'n-dirgin! Shunda men ulardan xat berib yuboramani! – deya qichqirdim men.

– Yaxshi, ser! Hindular erta kutadi. Sambo so'z beradi. Sodiq negrimiz qiladigan ish ko'p edi, u hammasini o'rnatib ado etdi. Hammadan avval to'nkaga o'ralgan ar-qonni bo'shatib olib, uning bir uchini bizga o'tishni buyurdik unga. Argon kir yoyadigan chizimchadek ingichka bo'lsa-da, juda mahkam edi, garchi u ko'priki sifatida foydalanish-ga yaramasa-da, har qalay, bizning shu ahvolimizda foydali buyum edi. Keyin Sambo argonning o'zi tomonidagi uchiga biz qoyatosh ustiga olib chiqqan yemishlar solingan qopni bog'ladi-da, biz tomonga surdi, uni tortib oldik. Oziq-ovqa-timiz ov qilib ko'paytmagan chog'imizda ham kamida bir haftaga yetardi. Nihoyat, Sambo tepaga o'q-dori va juda ko'p narsalar solingan ikkita qopni olib chiqdi. Biz bu nar-salarning hammasini argon yordamida o'zimizga olvoldik. Negrimiz hindular ertalabgacha qolishadi, deb bizni qattiq ishonitib, oxirgi marta pastga tushib ketganida qorong'i tushib qolgandi.

Shuning uchun ham men shu kecha – bizning yassi-tog'dagi birinchi kechamizda – fonarni yoqib, bo'lib o'tgan vogelarni yozib chiqdim.

Biz jar yomasida tunadik, shu yerning o'zida ovqatlan-dik, oziq-ovqat solingan qoplarning birtidagi ikki shisha apollinarisni olib ichdik. Suv qidirib topish – biz uchun

hayot-mamot masalasi, lekin o'ylashimcha, hatto lord Jon uchun ham bugungi sarguzashtlar yetib-ortardi, boshqalar uchun-ku inchunin, ular Noma'lum mamlakatga u-bu izlab borish istagini zohir qilishmadi. Gulxan yoqmaslikka qaror qildik, umuman, shovqin-suromi imkon boricha kamaytirishga tirishdik.

Erta, to'g'rirog'i bugun, chunki men tong otguncha o'tirib chiqdim-da, bu sehtli olamni birinchi marta kezamiz. Yozuvlarimni qachon davom ettirarkanman — davom ettirish nasib bo'larmikin? — buni bilmayman. Hali hindularimiz shu yerda, shu yerdan ko'rib turibman, ishonamanki, Sambomiz xatni olib ketgani tezda keladi. Maktubimning egasiga borib tegishiga umidim juda katta.

P.S. Ahvolimiz haqida qancha ko'p o'ylasam, uning noxushligi shunchalik ortayotgandek tuyuladi. Qaytib ketishimizga umidim yo'q. Bordi-yu yassitog' chetida baland bir daraxt o'sganida edi, uni jar ustiga yangi ko'priq qilib tashlagan bo'lardik, ammo ellik Futga yaqin keladigan daraxt yo'q, bo'lganda ham bunday og'ir narsani hatto to'rt kishi bo'lib ham sudrab olib kela olmagan bo'lardik. Arqon esa juda kalta bo'lib, unda tushish mumkin emas. Yo'q, ahvolimiz nochor, juda nochor!

MUNDARIJA

Nashriyotdan	3
Birinchi bob	6
Ikkinchi bob	14
Uchinchi bob	24
To'rtinchi bob	35
Beshinchi bob	57
Oltinchi bob	74
Yetinchi bob	87
Sakkizinchi bob	99
To'qqizinchi bob	115

Adabiy-badiiy nashr

ARTUR KONAN DOYL

YO'QOLGAN DUNYO

Roman

Birinchi kitob

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2020

Muharrir

Abdurahmon Jo'rayev

Badiiy muharrir

Nasiba Ergasheva

Musahhih

Gulnardon Umarova

Sahifalovchi

Umar Qodirov

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019

06.05.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 ¹/₃₂.

Ofset qog'oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 7,56. Adadi 5000. Shartnoma № 111–20.

Buyurtma raqami 406-20.

„Ziyo nashr“

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ

Kitob fabrikasida chop etildi

Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.

Tel.: 71 234-44-01/05

www.credoprint.uz